

**ISAJON SULTON**



**ONAZORIM  
(QISSA)**

**TDYU ARM**

## ISAJON SULTON

### ONAIZORIM (QISSA)

O'Imasoy opamning aziz xotirasiga bag'ishlayman

#### Muqaddima

Bahor tog'larning ustlaridan to nigoh yetmas olislardagi yaylovlargacha yastanib ketgan bepoyon kengliklarni sanoqsiz rangu tus, shaklu qiyofadagi anvoyi gul-chechaklar bilan bezaydi, shamollar qatida islarini, gulchanglarini va urug'larini ko'tarib uchib, boshqa yerlarga sochadi, turli-tuman qushlar u rizqlardan cho'qib sayrab yurishadi. Gurkirab o'sgan butalar bag'rida qurtu qushlar turlicha saslanishadi, chigirtkalar sakraydi, chumolilar yemish ilinjida har yoqqa tarqalishadi.

Havolarni almashtiradigan va tabiatni jo'shtiradigan ikki unsur bor bu yerda: shamol va suv. Shamol kurtaklarni ochadi, gulkosalarni to'kadi, yerni uyg'otadi. Suv tuproq bag'rida yashirinib yotgan urug'largacha singib boradi. Shu ikkovlon tuproqni ilhomlantiradi, go'yo quloq eshitmas, aql bovar qilmas bir sado ila har narsa birdaniga harakatga keladi.

Bu yerlarda shamollar suron solib esadilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga...

Shamol zabtida tollar, tutlar, teraklar chayqaladi, qamishlar shovullaydi, bug'doyzorlar shitirlaydi, qovg'a popiltiriqlari momaqaymoq ukparlari bilan har yon qo'shilib uchadi, yovvoyi o'tlar atri ekinlar va daraxt gullari isi bilan qo'shilib huzurli, g'alati bo'y hosil qiladi.

#### Birinchi qism

Qishloq tomorqalari aro olingan sarg'ish guvalak devor ustiga quyosh chiqmasidan ninachilar qo'nib olishgan. Ular turli-tuman. Masalan, kichkina sariq ninachi zaif bo'ladi, tez charchab qoladi. Qizg'ish tusli yana bir turi ham bor. Eng kattasini, ko'k ranglisini ot ninachi deymiz, u sira toliqmaydi. Boshqalari tonggi shudringda namlangan qanotini guvalak yoki yerdagi kesak ustida quritib o'tiradi, kattasi esa qanoti nam bo'lsayam uchaveradi.

Tomorqa adog'ida baland teraklar bo'y cho'zgan. Ostlarida o'tlar gurkirab o'sgan, pechaklar oppoq gullab, terak tanasiga chirmashib, hatto uchigacha chiqib ketgan. Ra'no degan ko'zlari chaqnab-chaqnab turadigan bir qizcha mana shu hovlida dunyoga kelgan.

U – shiddati, g‘ayrati ichiga sig‘mas qizaloq. O‘zidan katta chelaklarni ko‘tarib, daranglatib yurib qoladi. Yugurib tinmaydi, guldor ko‘ylaklarni yaxshi ko‘radi, ammo o‘yinga berilganidan kir qilib qo‘yadi, “kir bo‘pti-ku” deyishsa, “voy o‘lay” deb egilib etagini ko‘tarib qaraydi.

Daraxtlar benihoya bahaybat va ajoyib, shoxlaridagi qushchalar Ra’noga anqayib qarashadi. Ulkan soyalar aro shunaqangi tez chopadiki! Na’matak butalari oppoq gullaydi. Shaftoli pushti, o‘rik oqish, gilos qizg‘ish gul ochadi. Momaqaldiroq gumburlab, jala quyganida barining guli to‘kilib, suvlarda chayqalib turadi, shunda Ra’no yalang oyoqchalari bilan suvlarni sochib o‘ynaydi.

Qo‘shni bir qizaloq ham bor, ismi Xosiyat. Xosi deb chaqiradi Ra’no uni.

– Xosi, o‘ynaysanmi?

– Yo‘q, onam ish buyurgan.

– U ishni bitirib qo‘yib, keyin o‘ynasak-chi?

– Mayli.

Xosiyatning onasi ozg‘in, baland bo‘yli, doim guli o‘chgan ko‘ylak kiyib yuradigan ayol.

Birgalashib ichi qorayib ketgan o‘choqning kulini tozalashadi. Keyin ariqda enkayib, kosa-tovoq yuvishadi. Kosa-tovoqlar sopoldan. Uyda oppoq chinni idishlar ham bor, Xosiyatning onasi ularni hech kimga ishonmaydi. Kundalik ishlatiladigan idish-tovoqlarni ko‘pincha tandirdan yo o‘choqdan kul olib, ishqab-ishqab yuvishadi. Goho o‘tlarni yulib, shu bilan ham tozalashadi.

Ikkovining ham oyoqchalari ingichka, tovonlari qorayib-qorayib ketgan, ikkalovi ham ko‘zlari chaqnab-chaqnab turadigan yoqimtoy qizaloqlar.

Yumushlardan bo‘shaganlarida birgalashib o‘ynashadi. Kichkinaliklarida qum o‘ynashardi. Keyinroq cho‘pga bir bo‘lak matoni ip bilan o‘rab-chirmab, ayol shaklini berib, “mehmon-mehmon” o‘ynaydigan bo‘lishdi. Bu o‘yinning xususiyati shundaki, goh unisinikiga, goh bunisinikiga “mehmon” kelib qoladi. Qizaloqlar mehmonni kutib olishib, to‘shak solib o‘tirg‘izishib hol-ahvol so‘rashishadi, keyin bir chekkaga qozon-o‘choq osib, ovqat pishirishib, dasturxonga taom ham tortishadi. Keyin qizaloqlardan birini yo onasi chaqirib qoladi, yo o‘zi:

– Voy o‘lay, gaplashib o‘tiraverganimni qarang, ishlarim qolib ketyapti-ku, boraqolay, – deya uyiga “jo‘naydi”.

Ajab, bu besh-olti yashar bu qizginalarning “bolalari” ham bor, ularni o‘zlaricha koyib-urishishadi:

– Bola bo‘lmay qol, muncha meni kuydirasan? Buyurgan ishlarimni qilmabsan-ku?

– Xosi, bolalaring nechta?

– To‘rtta. Seniki-chi?

– Menikiyam to‘rtta. Yo‘q, beshta ekan!

Qishloq qizginalarining o‘yinlaridan yana nimalarni aytsa bo‘ladi? Bahorda birinchi bo‘lib tol och-yashil tusda kurtak yozadi. Tol po‘stlog‘i mo‘rt, yengil burab turib, ichidagi oqish chivig‘ini chiqazib tashlab, popukli qismini sochlariga qo‘shib o‘rib olishadi, buni tolpopuk, deydilar. Yashil tolpopuklar chiroyli ko‘rinadi-da. O‘g‘il bolalar esa tol novdasidan surnay yasab, chiyillatib chalib yurishadi.

O‘ynaganlarida qo‘shiqlar ham aytadilar:

Chumoli chumoli-ya,  
Mayda chumoli-ya,  
Chumolini uyasi,  
Doshqozonni kuyasi,  
Alli qiz, balli qiz,  
Chiqaqolsin Ra‘no qiz...

Qo‘shiq aytar ekanlar, maysa poyalarida o‘rmalab yurgan chumolilar angrayib qarashayotganday tuyuladi, Ra‘noning kulgisi qistaydi.

Bunday qo‘shiqlar ko‘p, Ra‘no ham anchaginasini yod biladi. Kech kira boshlaganida darvozaxona oldidan bolalarning jo‘r bo‘lib aytgan chorlovlari eshitiladi:

Halinchag-o halinchak,  
Uydan chiqmagan kelinchak!..

O‘ynay-o‘ynay charchashgach, bu qo‘shiqning tersi aytiladi:

Halinchag-o halinchak,  
Uyiga kirmagan kelinchak!

Potirlab hamma uy-uyiga tarqalib ketadi...

Shom tushganida ko‘kda yulduzlar jimirlay boshlaydi. Uzum toklari orasidan juda yorug‘ oy samoga ko‘tariladi. Ishkom ostidagi so‘rida ovqatlanib o‘tirishsa, to‘satdan g‘o‘ng‘illab daraxt qo‘ng‘izi yoki buzoqboshi uchib kelib qoladi. Ra‘no buzoqboshidan qo‘rqadi. Qo‘ng‘iz esa yagona shoxini ko‘z-ko‘zlab, dasturxonni tirmalaydi. Oy yanada havolab, kecha qorong‘isida shitirlayotgan teraklar uchiga yetganida ayvonga qatorasiga joy solinadi, boshi yostiqqa tegishi bilan dong qotib, bolalikning musaffo uyqusiga cho‘madi.

Tush ham ko‘radimi? Ha, lekin u tushlar esda qolmagan.

Esida qolgani – ayvonning orasi ochiq taxtalari, tepadagi vassajuftlar va o‘sha yerdan mo‘ralab turadigan qaldirg‘och bolalari.

Har holda, u juda odobli va aqlli qiz bo‘lib o‘smoqda edi.

Hushyor nigohi bilan tevarakni kuzatar edi.

Kishilarning bari oppoq yaxtak kiyib, bellarini yashil yoki ko‘k rang belbog‘ bilan bog‘lab, mahsi-etik kiyib yurishadi, belbog‘larida pichoqlari osig‘liq turadi. U juda o‘tkir, ayb ish qilsa, kattalar o‘sha pichoq bilan sho‘xroq o‘g‘il bolalarning qulog‘ini kesib olishlari mumkin. Qizlarning qulog‘ini kesishmaydi, qizaloqlarni faqat xotinlar chimchilab-koyishadi.

Dunyo jo‘shib yotadi-da. Bahorda har narsa junbishga kelib, tevarak birpasda turli-tuman gul-chechakka burkanib ketadi. Ariqchadagi suv ham sho‘x-shodon oqa boshlaydi: rangi bo‘tana tus olib, u bo‘tana aro mayda shoxchalar, o‘tlarning barglari va gullari oqib keladi.

Goh-goh uyga begona kishilar ham kelishib, iljayishib “Hoy qizcha, otingiz nima?” deb so‘rashadi. Ra’no ularga ismini aytgisi kelmaydi. “Bor-e” deb chopib ketib qolsa ham birov uni koyib-urishmaydi, kulib qo‘yaqolishadi.

## Ota

Ota baland bo‘yli, keng yelkali kishi bo‘lib, Ra’no uni juda yaxshi ko‘radi.

“Otang kelganida “Assalomu alaykum” deb, qo‘lingni ko‘ksingga qo‘yib, burro-burro qilib salom berasan, – deb qulog‘iga quyadi ona. – Salom berganingda baqrayib qarab turmayсан, darrov qaytib, ishingga urinasan.

Sen qiz bolasan, tengdoshlaringga salom bermasang ham bo‘laveradi, lekin kattalarga albatta salom berasan.

Kattalar senga salom berishsa, alik olmaysan, xuddi eshitmaganday, shoshib o‘zing salom berasan.

Qizalog‘im, har muomalaning o‘z odobi bor. Mehmon kelsa, darrov yangi to‘shaklardan opkelib solasan, fотиha qilingach, dasturxon yozasan. Dasturxonni teskari yozib bo‘lmaydi, xafa bo‘ladi, yuzimni teskari qildi deb. Kelgan kishi sanog‘iga qarab to‘rtta, oltita yoki sakkizta non, qand-qurs, meva-turshak qo‘yasan. Nonni toq qo‘yib bo‘lmaydi. Nonni teskari qo‘ysang, u ham dasturxonga o‘xshab xafa bo‘ladi. Mehmon kutishning o‘ziga xos odoblari bor, qay tarzda hol-ahvol so‘rashishu qay tarzda xayrlashishgacha asta-sekin o‘rgataman, ammo uyda o‘zimiz o‘tirganimizda ham odobga rioya qilishing shart. Masalan, kechagiga o‘xshab sirayam to‘rga chiqib

ketmaysan, qiz bolasan-ku, axir? Hamma o'tirganida sen osh-ovqat opkelasan. Keyin, ikki oyog'ingni chapga bukib, odob bilan o'tirasan, kim choy ichkisi kelsa, piyolaga yarim qilib quyasan, barmog'ingni uchi bilan tutib, nazokat bilan uzatasan.

Agar kimdir choyni oxirigacha ichmasdan qaytib uzatsa, bildirmasdan to'kasan, choy qoldig'i ustiga yana choy quymaysan.

Choy damlashniyam o'z usullari bor, choynak ichi oppoq bo'lishi kerak, qaynoq suv bilan chayib tashlab, keyin quruq choy solasan. Albatta, dam yedirasan.

Dasturxonda fotihadan oldin o'tkir narsa turmasin. O'tkir narsa duoni kesadi deganlari yolg'on, aslida tig'iga dam berilgani yoki go'sht kesilgani uchun olib qo'y deyiladi.

Hamma duo qilgach, turib kosa-tovoqlarni yig'ishtirasan, keyin dasturxonni "Savobini dunyodan o'tganlarga bag'ishladim" deb qoqasan. Dasturxon odamlar oyoq osti qilmaydigan joyga qoqiladi, uvoqlari qurtu qushlarning rizqi bo'ladi, qurtu qush yesa ro'zg'orga baraka kiradi..."

Jamalaksochgina, shaddodgina Ra'no mana shularni ko'ra-ko'ra o'sadi.

– Erkak kishilarga tik qaramagin, – deydi ona.

– Nega?

– Odobsiz qizcha ekan deyishmasin-da. Erkak kishi kelayotganida yo'l bo'shat, qaqqayib turma. Yoningga kepqolsayu tanish bo'lsa, yerga qarab salom ber, notanish bo'lsa gapirmayam, qaramayam.

Hovliyu ko'cha supurishni azaldan o'rganib olgan. Yozda suvlar ham sepadi. Hamma juda erta turgani uchun saharlar onasi "tur, qizalog'im" deganida ko'zlarini zo'rg'a ochadi, uyqu juda shirin. Ona hammadan erta turib, suv isitib ham qo'yadi. Lekin Ra'noga ariqdagi suvda bet yuvish ma'qul.

Chunki, jildirab sho'x-shodon oquvchi shu ariqcha Ra'noning suhbatdoshi.

– Ariqcha, oqyapsanmi?

– Ha, oqyapman.

– Zo'rg'a turdim, yana uxlab qolgim kelyapti.

– Mehnat odamni o'ldirmagan, tanangda joning bor ekan, urin, qimirla, o'zingni yumushga ur, – deydi ariqcha onasining ovozi bilan.

Shu tariqa yana bir kun boshlanib ketadi.

Goho Xosi ikkalasi behi ostida bir-birlariga suv sochib cho'milishadi. Lekin kunlarning birida cho'milishga borib, behi shoxiga qo'nib olgan katta bir qushni ko'rishdi.

Qushning ko'zlari sariq, katta-katta, shoxda qimir etmay o'tirardi. Qizaloqlar hayiqishib, ortlariga qaytib ketishdi.

– Nimaga cho'milmading? – deya so'radi ona.

– Bir qush bor ekan, baqrayib qarab turaverdi, uyaldim, – dedi qizaloq.  
Ona qizini o‘ziga tortib, bag‘riga mahkam bosib yuz-ko‘zlaridan o‘pdi, “Ishqilib, omon-  
eson katta bo‘lgin, onang cho‘ri”, dedi sochlarini silab.

\* \* \*

Yana bir chaqaloq tug‘ildi.

U hech nimani bilmaydigan, goh o‘zicha kulimsirab, goh chirillab yig‘laydigan qiziq bir  
jonzot edi.

Onasi yumushga unnab ketganida goho Ra’noga “Ukangga qarab tur”, der edi. Shunda  
Ra’no qiziqsinib uning qo‘l-betlarini ushlab ko‘rardi. Chaqaloqqa bu yoqmas,  
g‘ingshirdi.

Ona allalari ham o‘chmas bo‘lib yodiga muhrlandi:

Tilimning uzuni-yo, alla.

Yuzimning qizili-yo, alla,

Yuragimning taftiga-yo

Tandirlar qiziydi-yo, alla...

...Otasining davlati yo‘q, alla-yo alla,

Onasining rohati yo‘q, alla-yo alla...

So‘zlariga e‘tibor berarmidi? “Yuzimning qizilligi sen tufayli”, dermidi onasi? “Sen  
bo‘lmasang somonday sarg‘ayardim, Xudoyim yetkazganiga ming shukur” dermidi?  
“Tilimning do‘stu dushman orasida uzun bo‘lishiyam sendan, axir... Yo‘qsa, orzu-  
armonlarim mo‘l edi, endi esa yuragimda taftiga tandirlar qiziydigan darajada lahcha  
cho‘g‘lar bor, jonim bolam”, deb kuylarmidi allasini onaizor?

Goho xotinlar to‘planib, childirma chalib qo‘shiq ham aytar edilar:

Toleim bo‘lsa edi, yongan chiroq o‘charmidi?

Men suyangan tog‘larim osti bilan ko‘charmidi?

Yig‘lay-yig‘lay tiniqib, keyin yana chaqchaqlashib o‘tiraverishardi. Qizgina ular kiygan  
ko‘ylaklarga, taqinchoqlarga e‘tibor berar, tezroq katta bo‘lgisi, mana shunaqa guldor  
ko‘ylaklar kiygisi, taqinchoqlar taqqisi kelar edi.

Chimchilovchi g‘alati maxluq

Bu yerlarda shamollar suron solib esadilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan  
kunbotarga...

Uylarning omonat tomlarni ko'chirib, xas-xashaklarni uchirib, tik qadli teraklarni cho'rt uzib yuboradigan mana shu quvvatli shamollar qatida devlar uchib kelishardi.

Ular buvining yoki onaning ertaklaridan paydo bo'lgan xayoliy maxluqlar edilar.

Ba'zilarini esa Ra'noning o'zi o'ylab-yaratib olgan edi.

Shulardan biri – g'oyat uzun bo'yli, bahaybat, butun vujudi yaltirab, ko'zlarining soqqasi tinmay aylanib turadigan chimchilovchi g'alati maxluq bo'lib, hamma uxlagan, oy havolagan mahalda tomorqalar orasidan sezdirmay chiqib kelar, mabodo hech kim sezmasa, o'yib-chimchilab olishi mumkin edi. Paydo bo'lar makoniyu g'oyib bo'lar joyi ham noaniq, qilar ishi faqat Ra'noni ko'rqitishdangina iborat bu maxluq qayda yashashiniyu nima yeb-ichishini ham bilib bo'lmasdi. Ayvonda yotganida, oy yog'dusi nurli chang singari tevarakni enlab, sokinlikka cho'mdirgan mahalda daraxtlaru jo'xorizorlar orasidan chiqib kelaverardi. U maxluqni faqatgina Ra'no bilardi, xolos, birovga aytsa kulgiga qolishini o'ylab indamasdi. Aslida u maxluq Ra'noning tasavvuridagina bor edi, biroq, qay tarzdadir paydo bo'lib, tepasiga kelib o'yib-chimchilab olishidan qo'rqardi-da. O'ylab qarasa, shu mahalgacha u maxluq biror so'z aytmabdi, qilar ishi vahima uyg'otish bo'libdi, xolos.

Ayyor malla tulki

Shunaqa qo'rqinchli jonzotlardan yana biri ayyor malla tulki bo'lib, kishilarning gapiga qaraganda, ekinzorlar va daraxtlar orasida payt poylab yashirib yotar, yosh bolalar uyda yolg'iz qolgan mahalida tepasiga kelib qitiqlar, kuldira-kuldira o'ldirar ekan.

Uniyam yashash joyi va nimalar bilan mashg'ulligi noma'lum edi. Bepoyon tomorqazorlar aro ba'zan yolg'iz yurganida, qo'ralar va jingullar orasidan o'sha tulki chiqib kelishidan qo'rqib yurdi. Bir kuni baland o'sgan, barglari sarg'aya boshlagan jo'xorilar orasidagi yo'lakdan borayotsa, poyalar qattiq shitirlab, bir nima otilib chiqib kelganida qo'rqqanidan joyida serrayib qotib qoldi. Jajji yurakchasi qinidan chiqquday duk-duk urar, yuzlari muzlab ketganday edi. Qarasa, shu atrofda sanqib yuradigan daydi mushuk ekan. Mushuk ham ro'parasidagi qizchaga angrayib qarab turaverdi.

– Bo-or, yo'qol! – dedi Ra'no va yig'lab yubordi. Yerdan kesak olib otgan edi, mushuk ura qochdi.

Kichkina sariq qizcha

U qizchaning mavjudligini Ra'no o'rtog'idan bilib oldi.

Sariq qizcha daraxtlarning shoxlarida, qalin va g'uj o'sgan qarovsiz jingulzorlarda oyoqchasini osiltirib o'tirar, aytishlaricha, pichoq va qalampirdan juda qo'rqar, mabodo



yolg'iz bolalarga duch kelsa, boshini aylantirib uzoq dalayu yaylovlarga adashtirgani olib ketardi.

Ra'no mana shulardan juda qo'rqardi.

Kechalari ba'zan o'rnidan turib, uyqusiraganicha borib otasining bag'riga kirib ketardi. Ota bag'ri ulkan, tinch va osoyishta, u bag'irda ta'rifsiz tinchlik va farog'at qo'yniga cho'mar, sal o'tmay pishillab uxlab qolar, uyqudan uyg'onganida esa o'zini o'z joyida ko'rar, shunda ota, u uxlab qolgach, avaylab ko'tarib o'rniga olib ketib yotqizganiga aqli yetar edi. Otasini shuning uchun ham yaxshi ko'rardi, yo'qsa ota u bilan juda kam gaplashardi, chunki ishidan kech kelardi. Ammo kelganida qizginaning qalbi quvonchga to'lib ketar, shuni onasiga ham, otasiga ham aytolmasdi-da. Shamollarda, yomg'irlarda ona javray-javray supra yoyib, xamir qorar, bir yoqda uka chirillab yig'lab, bir yonda ona yumushlariga ulgurolmay sannaganida, onamga yordam beraqolay deb chopib borib kichkina mushtchalari bilan xamir qararkan, tezroq otam kepqolsaydi deb orzu ham qilar edi. Ajabki, mana shunday paytlarda ota kirib kelsa, hamma narsa o'z o'rniga tushar, ishlar o'z-o'zidan yengil bitar, otam qanday zo'r-a degan o'y uning murg'ak diliga quvonch baxsh etardi, "Otam hammadan zo'r" deya Xosiyatga maqtanar ham edi.

\* \* \*

– Ha, ariqcha, oqyapsanmi?

– Oqyapman.

– Otam hammadan zo'r-a?

– Ha, sening otang hammadan zo'r!

Yana bir nimalarni gapirishni istardiyu ichi to'la his-tuyg'u bo'lgani bilan tiliga so'z kelmayotganini o'ylab, hayron bo'lardi.

Tunlari olislarda jivirlayotgan yulduzlarga ham termilar, ular nima uchun bu qadar olisdaligiga aqli yetmay, qaysi biri mening baxt yulduzim ekan, deb o'ylar edi.

Baxt nima o'zi?

Baxt nimaligini tuzuk-quruq tasavvur qila olmasdi. Bilgani shuki, bir kuni ulg'ayib, chiroyli, ko'rkli qizga aylanadi, keyin kimgadir turmushga chiqib, er-xotin bo'lishadi, har holda, bolasi ukasiga o'xshab yig'lamaydi, o'ziyam onasiday javramaydi, hamma ishlarni darrov bajarib qo'yadi, hovli top-toza, idish-tovoqlar yuvilgan, o'choqda shirin ovqatlar pishiradi, bolachasini uxlatish kerak bo'lsa onasidan yodlab olgan allalarini aytadi, hayot sira tugamaydi, o'ziyam sira qarimaydi... tasavvuri yetgani shu edi.

\* \* \*

Ular yana “mehmon-mehmon” o‘ynar edilar.

Ra’no uzun bir cho‘pni olib, unga ipdan belbog‘ boyladi.

– Bu kim? – dedi Xosiyat, hayron bo‘lib.

– Otam, – dedi Ra’no. – Ishdan keldi.

– Ha, yaxshi o‘tiribsizlarmi? – deya kirib keldi “ota”.

– Shukur. Yaxshi kelyapsizmi?

– Hah, ishiyam qursin, charchadim, – dedi “ota”.

– Choyingdan bormi, opkelaqol.

– Bolangizni yana mazasi bo‘lmayapti, – dedi ona, o‘choq boshiga ketarkan.

– Iya, nima qipti?

– Yana ichi o‘tyapti.

– Hozir yaxshi qipqo‘yaman.

Ota “bola”ni qo‘liga oldi.

\* \* \*

– Ha, ariqcha, oqyapsanmi?

– Oqyapman.

– Bugun ukam o‘lib qoldi.

– Voy, nima bo‘ldi?

– Bilmadim... Qo‘rqib ketyapman, ariqcha.

– Qo‘rqma...

– Yaxshi bolacha edi... Qo‘lchalarini o‘ynatib, chug‘urlab yotar edi. Iljayib turib, chuvillatib siyib ham qo‘yar edi...

– Ha, ukang yaxshi bola edi.

– Onam nima qiladi endi?

– Bechoraga qiyin bo‘pti.

– Yupataman deb, “Onajon, xafa bo‘lmang, yana bitta ukacha tug‘ib olasiz” desam, rosa yig‘ladi.

– Endi sen unga mador bo‘l, xayolini chalg‘it.

– Otam-chi?

– Otang nima qilyapti?

– U ham yig‘layapti. Ammo onamga o‘xshab emas. Tomorqalarni aylanib yuradi-da, keyin boshini daraxtlarga, guvalak devorlarga urib-urib yig‘laydi.

\* \* \*

Ukachaning o‘lib qolgani yomon bo‘lsa-da, vaqt o‘tgani sayin u musibat unutila bordi. Qarindosh-urug‘lar, mahallaning chollari tez-tez kirib turishar edi, keyin kamroq yo‘qleydigan bo‘lishdi. Onaizor otaning yengiga osilib “bolamni oldiga boraman” deb yig‘lar, ota goh uni urishar, goh esa indamay qaylargadir – ukachaning oldiga olib ketar edi.

“Qora yerlarda yotaveradimi bolam?” deya yig‘lar edi boyoqish.

Sellar kelganida bolam qo‘rqmayaptimikin deb, kuz yomg‘irlarida yotgan yeri namlanib ketmadimikin deb, qishlarda muzlab-sovqotmayaptimikin deb yig‘lardida, sho‘rlik.

– Bolamni oldiga boraman! – deya xarxasha qilardi onaizor.

– Hoy aqli past, borganing bilan qo‘lingdan nima keladi?

– Bilmayman, boraman!

– Hammaning bolasi bor, meniki yo‘q.

– Hamma xotinlar o‘sma-xinolar qo‘yib, yasanib yurishibdi. Men esa jinnilarga o‘xshab tentirayman, it ham qaramaydi. Bolam bo‘lganida men ham chiroyli bo‘lardim...

\* \* \*

Kichkina Ra’no nima qilarini bilmas edi.

Xudo nimaga ukachani olib qo‘ydi?

“Nimaga olib qo‘yding” deb so‘rardi Xudodan.

Xudo javob bermas edi.

“Onam qiynalib ketdi-ku? Otam so‘rida boshini egib o‘tirib qolmoqda-ku? Men ham sog‘inib-sog‘inib ketyapman-ku?”

– Ariqcha, Xudo nimaga ukachamni olib qo‘ydi?

– Bilmadim, o‘rtoqjon. Unaqa narsalarga mening aqlim yetmaydi.

\* \* \*

Bahor keldi.

Ona ketmonni olib, tomorqa chopdi. Hamma ishni otangga tashlab qo‘yib o‘tiraverishimiz insofdan bo‘lmaydi, dedi u. Tomorqalar bir-biriga tutashib ketgan, narigi hovlilarda ham bola-chaqasi bilan yer chopayotgan kishilar ko‘rinar edi. Shunaqa ishlarni ham o‘rganib olaqol, vaqti kelib kerak bo‘lib qoladi, dedi onaizor. Yerni bir yarim ketmon chuqurligida chopasan. Tagida unumdor qatlami bor, u qoramtirroq

bo‘lib ajralib turadi, chopganingda olgan tuprog‘ingni ag‘darib ketaverasan, shunda unumdor qatlam tepada bo‘lib qoladi, ana o‘shanga urug‘ qadalsa, hosil yaxshi bo‘ladi. U ro‘mol bilan boshini boylab, oyog‘iga etik kiyib olgan edi. Ona yonida baravar yer chopa boshladi.

Ketmon g‘uvullab tushganida eski tomirlarni tikkasiga kesib yuborar, yer ostiga in qurgan qurtu qumursqalar jonholatda har tarafga qochar edilar. Bo‘linib ketgan chuvalchanglar to‘lg‘onardi. “Borib tovuq katagini ochib yubor, bir mazza qilishsin” dedi ona, kulimsirab. Yuzi qip-qizil bo‘lib bo‘g‘riqib ketgan edi. Ra‘no chopib borib, sim ilgagini tushirib, katak eshigini ochgan edi, tovuqlar chopilgan yer bo‘ylab yoyilib ketishdi. Qaydandir qushlar ham uchib kelib, uchib-qo‘nib rizq izlay boshlashdi.

– O‘lsin-a mehnati, – dedi ona, ro‘moli bilan peshanasining terini artib. – Belim qotib qoldi.

Shu tobda u judayam istarali edi. Ra‘no qarab turib, mahkam quchoqlab oldi.

– Sizni yaxshi ko‘rib ketyapman, – dedi yuzini ko‘ylagiga ishqab.

– Aylanay jonim qizimdan, – dedi ona ham. – Bo‘laqol, ishimiz ko‘p.

Shu mahal onaning ukalari – tog‘alar ham yetib kelishdi-da, barchalari birgalashib kechgacha yer chopishdi.

Shom mahali kirib kelgan ota buni ko‘rib mamnun bo‘ldi.

– Kechikib ketyapti deb tashvishlanib yuruvdim, yaxshi qipsizlar, – dedi onaga. – Bugun o‘zim bir osh damlab beray sizlarga.

Otaning osh damlashi qiziq edi. Ra‘no uning go‘sht-yog‘ qovurishini, tuz-namagini totib ko‘rishini angrayib tomosha qildi. Iya, otasi ham ovqat pishirishni bilar ekan-da? Bir mahal osh suzildi, juda shirin bo‘pti, maqtab-maqtab yeyishdi.

– Ovqat yeyayotgan kishilarga mahtal bo‘lib turadi, – dedi ona. – Uni maqtab-maqtab yeyish kerak.

– Er kishini o‘choq-qozonga yaqinlashtirmaysan, – dedi. – Bugun otang iyib ketib, o‘zi istab osh qilib berdi, ammo qozon-o‘choq xotinlarning joyi.

Qozon tagida qirmochi qolgan, ona uni kapgir uchi bilan ko‘chirib, kosaga solib qo‘ygan ekan, Ra‘noning yegisi keldi. Qarasa, shirin ekan, hammasini yeb qo‘ydi.

– Qozon qirmochini yesang, to‘yingda shamol esib, yomg‘ir yog‘adi, boshqa yemagin, – dedi ona.

Ertasiga jo‘yak oldilar.

“Qizim, jo‘yaklar to‘ppa-to‘g‘ri qilib olinadi, sug‘organingda suv tez oqib ketmasin yo ko‘llab ham qolmasin”, dedi ona. Jo‘yak olingach, suv ochib kelishdi. Suv kesaklarni ivitib, egat oralarini asta-sekin to‘ldirdi. Ra‘no mayda hasharotlarning jon halpida qochishlarini tomosha qilib o‘tirdi.

“Endi bir kun tursa selgiydi, tuproq namni emib oladi, – dedi ona. – Shundan keyin urug‘ qadasak ham bo‘ladi”.

Ertasiga saharlab turishdi. Bodring urug‘i qovun urug‘i bilan bir xil ekan. To‘rtburchak qilib olingan pollarga esa piyoz, ukrop, kashnich ekishdi. “Yer chopish qiziqroq edi, ekin ekish sira qiziq emas, bel og‘rib qolarkan”, deb o‘yladi Ra‘no. Pollarning chetiga ona gullar qadadi. Tomorqaning hovli bilan tutashgan yerlariga rayhon ekildi.

“Rayhonning bir necha turi bor. Sadarayhon, oq va qora rayhon. Oq deganlari sira oq emas, balki juda och yashiltob tusda, bargchalari kichkina, qora va sadarayhonning hidi o‘tkir bo‘ladi”, dedi ona.

Ota saharlab bozorga borib, besh-olti tup ko‘chat olib keldi, ularni suvli chuqurchaga solib qo‘yishdi. Keyin ota daraxtlarni butashga tushdi. Ra‘no otasining yonida yurardi.

– Ota, nimaga shoxlarini kesyapsiz?

– Novdasi ko‘p bo‘lsa, daraxtning kuchi yetmaydi, qizim, – dedi ota. – Meva qiladigan shoxchalarini qoldirib, qolganlarini kesib olamiz.

Keyin ko‘rsatdi:

– Qara, mana shu kesilgan joyidan yon novdachalar o‘sib chiqadi. Bu daraxt juda itoatkor, biz qanaqa shakl berishni istasak, o‘sha qiyofaga kiradi. Tikka shoxlarini atay kesdim, ona qizim hosil pishganida uzib olishga qiynalmasin, deb.

Ota quruq shox bilan nam shoxni ko‘rsatdi:

– Ko‘ryapsanmi, qurug‘ida hayot asari yo‘q. Nami esa tirik. Aslida bu daraxtlarning bari jonli, bolam. Daraxt ham odamga o‘xshab umr kechiradi. Mana, hozir ko‘chat ekasan.

– Ota, nimaga siz ekmaysiz? – deb so‘radi u.

– Oy qizim, sendaqa yosh bolalar qadasa, baraka mo‘l bo‘ladi, – dedi ota.

Shunday qilishdi. Ra‘no ko‘chatlarning nam novdasini ushlab turdi, ota esa “bismillo” deb tuproq bilan ildiz qismini ko‘mdi. Shibbalab, suv ham quydilar.

– Bular – sening daraxtlaring, – dedi ota. – O‘zing qarab tur endi.

Kesilgan shoxlardan hali nam ketmagan, qo‘lga muzday tegardi. Endi bular qish kelganida o‘tin bo‘ladi, dedi ota. Bolta bilan urib-kesib sarjinladi, saranjomlab, po‘stloqdan beldamchi yasab boylab ham qo‘ydi. To‘plab, qo‘raga bosishdi.

– Oy qizim, rosa mehnat qildik, – dedi ona. – Endi senga yangi gulli ko‘ylak oberaman. U shodlanib uxlab qoldi. Tushida oy jilmayib turganmish, u ham guldor ko‘ylak kiyib olganmish.

\* \* \*

Ekinzorni yovvoyi o't bosdi.

Bular ariqdagi suv bilan oqib kelgan o't urug'lari edi. Nam joylarda semizo'tlar o'sa boshladi. Ra'no ularning hammasini diqqat bilan kuzatib chiqdi.

Jo'yaklar orasida kurmaklar bo'y cho'zibdi. To'q yashil uzun bargli, tez o'suvchi bu o'tni sigiru qo'ylar yaxshi ko'radi, dedi ona. Kurmak ular uchun jizzali nonday shirin tuyuladi. Kurmak ildizi pataksimon, oppoq bo'ladi. Yerga qattiq o'rnashmaydi, tortsang, salga qo'porilib chiqadi. Sho'ralar ham bor ekan, ular ikki tur – oddiy sho'ra va makkasho'ra. Oddiy sho'ra baland o'smaydi, ammo ildizi o'q ildiz bo'ladi, chuqur ketadi. Makkasho'raning ham ildizi shunaqa, uning tanasiyu bargi qo'pol, tukli. Kattalashib, butaday bo'lib o'sib ketishi mumkin. Eng zaif o'rnashadigani semizo't, urug'i doimo suvda oqib keladi, tanasi ham nuqul suvdan iborat. Quritgani oftobga qo'ysang, qo'ng'ir tusli yengil xasga aylanib ketadi. Ajriq – eng ashaddiysi. Boshqa o'tlarning tanasini egsang sinavermaydi, yumshoq bukiladi, ajriqning tanasi qattiq bo'ladi, buksang, qirs etib sinadi. Har bo'g'inidan ildiz otaveradi, oftobda qolib qurigan ham nam tegsa, darrov sergaklanib, o'sa boshlaydi. Ajriq bosgan yerni tozalash qiyin bo'ladi. Shuning uchun yulingan ajriqlarni tuproq ustida qoldirish yaramaydi, bitta bo'g'imi qolsayam bir necha kundan keyin qarasang, ko'payib ketgan bo'ladi. Yana bangidevona bilan ituzum ham bor. Ituzum xuddi uzumga o'xshaydi, ammo yeb bo'lmaydi, uni itlar yeydi. Bangidevona katta-katta tikan soladi, ichida qop-qora, uchli urug'lari bo'ladi, mana shu urug'ni mol yesa, aqldan ozib qoladi. Agar yulib tashlamsang, urug'i yetilganida po'sti quruqshab, oralari ochiladi, keyin urug'larini yerga sochadi. Daraxtlar ostida va ekinzorda pechak hamda qoqio't-momaqaymoqlarni ham ko'rasan. Pechak zaif narsa, ekinga chirmashgani yomon, momaqaymoq esa beozor, chunki u o'z holicha ekinga zarar bermasdan o'sadi, darrov oppoq popiltiriq chiqaradi, har popiltiriq ostida bittadan sarg'ish urug'i bo'ladi. Shamol esganida u urug'ni ko'tarib ariqlar, ekinlar, tomorqalar uzra uchadi, qo'ngan yerida o'rnashib urchiyveradi.

– Shularning barini joni bor, o'sib urug' solay deb urinishadi. Urinsa urinaversin, ammo o'sib ketishsa, yerning kuchini so'rib olib, senu mening rizqimizni yo'qqa chiqarishadi. O'shan-chun ham barini yulib tashlashimiz kerak, yulganlarimiz sigir-qo'ylarga yemish bo'ladi, keyin sigirimiz mo'l sut beradi, qaymog'i ham ko'p bo'ladi, – deb tushuntirdi onaizor.

Ra'no onasining yoniga tushib olib hafsala bilan o'toq qilar edi.

“Mana senga”, deb jahl bilan yular edi begona o‘tlarni.

Oradan o‘n besh kunlar o‘tgach, “Endi jo‘xori bilan makka ekamiz”, dedi ona.

– Nimaga, ekinlar yetilmadi-ku?

– Jo‘xori bilan makka qadab chiqsak, hosil pishguncha bir-ikki qarich o‘sib ulgurishadi,

– dedi ona. – Sabzavotlarni yig‘ishtirib olganimizdan keyin bemalol o‘saverishadi.

Hosil pishganidan keyin eksak, o‘n-o‘n besh kun yutqizib qo‘yamiz.

Ra‘no teshacha bilan chuqurcha qaziydi, kichkina kaftiga uch-to‘rtta makka donasini oladi-da, chuqurchaga tashlab, ustiga tuproq tortadi. “Oson ekan-ku” deydi qoniqish bilan. Ona unga suv izini ko‘rsatdi. Mana shu izdan tepaga ham, pastga ham ekma, dedi, chunki sug‘organimizda ildiziga suv yetib borishi kerak. Pastroqqa eksang, nam ko‘pligidan chirib qoladi, teparoqqa eksang, suv yetib bormay, quriydi...

U shunday qildi.

Makka doni katta, sariq, uch tarafi oqish, uchli edi. Jo‘xori doni esa kichkina, yumaloq.

Ammo oradan besh-olti kun o‘tib, ekilganlar unib chiqqanida hayron qoldi: doni turlicha bo‘lsa-da, ungan nihollar bir-biriga o‘xshash ekan. Ona aytdiki, keyinroq bular o‘zgaradi, makka bargining chetida sariq hoshiya paydo bo‘ladi. Jo‘xorining bargi kambarroq, tukli, makkaniki esa enli, silliq bo‘ladi.

– Oy qizim, yer ishiga doim xotinlar qarab kelishgan, – dedi. – Hamma ishni otang qilaversa, charchab qoladi-ku? Ayolda baraka bor, deyishadi. O‘shan-chun kuch-quvvat kerak bo‘ladigan ishlarga otang, maydalariga sen bilan men qaraymiz. Otang saharlab uydan chiqib ketib kechgacha mehnat qiladi, shom mahali horib-charchab qaytadi, shu ishlarni bajarib qo‘ysak, xursand bo‘ladi. Jonim qizim, buni ro‘zg‘or deydilar. Hamma baravariga urinib-tirishmasa, ro‘zg‘or bo‘larmidi? Qara, ekin yerlarimiz saranjom-sarishta, hovlimiz top-toza. Ozgina bo‘sh yer qolgan bo‘lsa, darrov gulu rayhon qadab qo‘yamiz. Oqila ayol shunaqa bo‘ladi, qizim. Hali katta bo‘lgin, o‘zingni ro‘zg‘oring bo‘ladi, o‘shanda sen ham shunaqa qilasan.

– Ha, shunaqa qilaman, – dedi Ra‘no, ishonch bilan. Ona qizini bag‘riga bosib, o‘pib-o‘pib oldi.

Behi ostidagi ariqcha hanuz jildirab, sho‘x-shan oqar edi. Tegrasidagi o‘tlar baland o‘sibdi, ajriqlar uchta yoki to‘rtta uchli ko‘kish gul ochibdi, kurmaklar esa gullamabdi, pechaklar oppoq, mayda, bangidevona to‘q naparmon hoshiyali katta karnaysimon gul yozibdi. Yana allaqancha otini bilmaydigan o‘tlar ham bor ekan, suv to‘la turli o‘tlarning urug‘i edi

\* \* \*

- Ariqcha, oqyapsanmi?
- Ha, qizgina, oqyapman.
- Suving urug‘larga to‘lib ketibdi.
- U o‘tlar ayyor-da. Kelib yulib tashlashingni sezib, urug‘larini suvlarimga sochishdi. Oqib borib, boshqa xavfsiz joylarga o‘rnashishsin, deya.
- Men hammasini yulib tashladim. Endi ekinzorimiz top-toza.
- Yasha, qizgina. Juda aqlli qizsan-da.
- Bo‘pti, ariqcha, men ketdim. Xosi bilan o‘ynayman desam, Xosinikidayam ish ko‘p ekan.
- Mayli, qizaloq, yaxshi bor.

\* \* \*

- Kun sayin o‘syapsan, tikishniyam o‘rganishing kerak, – dedi onasi. – Hali o‘nta bolang bo‘lsa, kiyim yetkaza olarmiding, bir joyi yirtilsa, o‘zing tikib berasan-da. Ra‘no ignaga ip o‘tkazib, keraksiz matolarni bir-biriga chatishtirib tikishni ham o‘rganib oldi. Tikish ikki tur bo‘larkan: oddiy, mahkamlamasdan o‘tkazib-o‘tkazib tikish, ikkinchisi o‘rmoqlab tikish. O‘rmoqlab tikilgan joy mustahkam bo‘lsa-da, egri-bugri bo‘lib do‘ppayib qolarkan, to‘g‘ri tikilganida esa chok tekis chiqsa-da, oson so‘kilarkan. Igna barmog‘iga kirib og‘ritdi, ona unga angishvona ishlatishni ham o‘rgatdi.

\* \* \*

- Xosi-i! Huu-uv Xosi!
- Ha?
- O‘ynaysanmi?
- Yo‘q, o‘ynagim kelmayapti.
- Nimaga o‘ynamaysan?
- Chunki, yig‘lagim kelyapti.
- Nimaga?
- Otam onamni urdi, o‘shanga.
- Nimaga urdi?



– Bilmayman, o‘rtoqjon. Ko‘chada ichib kepti. Senlarni boqaman deb umrim zoe ketdi, bittang ham qadrimni bilmaysan deb rosa yig‘ladi, keyin onam bir nima degan edi, baqirib oldiga solib quvdi... Qo‘rqib ketganimdan yig‘lagim kelyapti. Ammo yig‘laganiyam qo‘rqyapman.

– Yig‘lashgayam qo‘rqadimi odam?

– Otam kelib, meniyam urisa-chi?

– Ha, unda yur, makkalar orasiga kirib olamiz, o‘sha yerda yig‘laysan.

Shu tariqa ikki qizaloq qo‘l ushlab, yalangoyoqlari quyoshda qizigan sho‘r hovlida kuya-kuya, tomorqa adog‘iga yo‘l olishdi.

Ammo yig‘lashga imkon bo‘lmadi. To‘satdan katta bir qush paydo bo‘lib, shundoqqina uch qadam nariga qanotlarini potirlatib shovqin solib tushdi-da, bir nimani changallab yana tepaga ko‘tarilib ketdi.

– Jo‘ja o‘g‘risi! Voy, jo‘ja o‘g‘risi! – der edi hayajonlanib Xosi. Yig‘lamoqchi ekani ham allaqachon esidan chiqib ketgan edi. – Ko‘rdingmi qanotlarini yoyganini? Juda katta ekan-a?

– Ha-ha, – der edi Ra‘no ham. – Nimani ko‘tarib ketdi?

– Bilmadim, borib qaraymizmi?

– Yana kepqolsa-ya?

– Kelmaydi, uzoqqa uchib ketdi-ku.

Borib qaragan joylarida hech nima yo‘q edi.

– Ishqilib, yeydigan bir nimani ko‘rdi-yu opketdi.

– Balki uniyam bolalari bordir? – dedi Xosi.

– Qushlarni bolalari daraxtda, savatchada o‘tirishadi, – dedi Ra‘no. – Bultur men bolasini ko‘raman deb terakka chiqib, yiqilib tushganman. Polaponlari kichkina, tuklari tikkaygan bo‘ladi. Yaqiniga borsang, qo‘rqib chiy-chiy qilishadi. Yanayam yaqinlashsang, cho‘qib ham olishadi.

– Cho‘qisa og‘riydi, – dedi Xosi. – Uyda meni tovuq cho‘qib olgan.

– Tovug‘ing jo‘ja ochdimi?

– Ko‘rsataymi, oltita jo‘jasi bor.

– Yur!

Ikkovlon hamma narsa eslaridan chiqib, katta bo‘lib qolgan jo‘xori poyalari orasidagi yo‘lakchadan tovuq katagi tomon chopib ketishdi.

\* \* \*

Qushlarning turlari ko‘p edi.

Chumchuqlar daraxt kavaklariga in qurishar, gala-gala bo‘lib uchishar, anchayin surbet edilar. Musichalar ayvonga in qurishardi, har bahorda ku-kulab, tumshug‘ida xas-xashak tashir, otasi uning epsizligidan kulardi. Qaldirg‘och loydan xaltachaga o‘xshatib in qurardi, otasi bu qush har loyni ham olavermaydi, yetib kelgunicha tumshug‘ida pishitib, yumaloqlab keladi derdi. Qarqunoq ham boriydi, ko‘rimsiz bu qush pishgan jo‘xorilar uzra yopirilgan chumchuqlar galasini haydar, havoda changal solardi. Ba‘zan zag‘chalar paydo bo‘lishardi, bular yanada surbetroq bo‘lib, bir-birlari bilan chag‘illashib urishib ham qolardilar. Qizilishtonning esa ular bilan ishi yo‘q, kun issig‘idagi jimlik aro to‘satdan daraxt tanasini to‘qillatib teshayotgani eshilib qolardi. Yana sassiqpopishak bilan sariqso‘fiyon degan qushlar bor edi, sariqso‘fiyon “Kuyov-kuyov, kimga kuyov” deya sayrardi.

Ba‘zan ko‘m-ko‘k samoda qanotini yoyib bamaylixotir aylanib uchayotgan kalxat paydo bo‘ldi. Jo‘ja o‘g‘risi shu edi. Aylanib-aylanib zerikkach, uzoqlarga uchib ketar, Ra‘no uning ortidan qarab qolardi.

Qisqasi, Ra‘no yashab turgan mana shu kichkina hududning jonliyu jonsizi, tilliyu tilsizi, daraxtiyu tuprog‘i – hammasi bir bo‘lib, ana shu tarzda, qavmu qarindoshlar kabi hayot kechirar edilar.

## Ikkinchi qism

Ra‘noning bo‘yi cho‘zila borgani sayin yumushlar ham orta bordi. Yozda hosilni to‘plab, issiqda makka so‘talarini qayirish, ona bilan birga jo‘xori o‘rish, dastalab boylash, ildizlarini ko‘chirib tomorqa adog‘iga to‘plash, qurigach, bostirma ostiga olib borib bosish kabi yumushlarning adog‘i ko‘rinmasdi. Goho Ra‘no onasiga qo‘shilib xamir ham qorardi. Xamirga xamirturush qo‘shardi, qo‘shni – Xosining onasining xamirturushining mag‘zi shirin, o‘shandan opchiqardi. Vaqt shomga yaqinlashganida onasiga qo‘shilib ovqat ham pishirardi.

Turli o‘tinlar yonganida turli islar chiqarardi. Tut o‘tini sarg‘ish-qo‘ng‘ir uchqunchalar hosil qilib och-yashiltob tusda yonsa, o‘rik o‘tini shiddatli yorqin tillarang alanga hosil qilardi. Terak shoxi esa tez o‘t olar va darrovgina yonib bita qolar, Ra‘noga o‘rik va tut o‘tinining isi yoqardi.

– Oz masalliq bilan shirin ovqat pishirishni o‘rganishing kerak, qizalog‘im, – der edi ona, qozonga yog‘ solib, jizillatib piyoz tashlarkan. – Ro‘zg‘orda har doim ham to‘kin-

sochinlik bo'lavermaydi. To'kin-sochinlik bo'lganidayam shu qoidaga amal qilishing shart. Qara, otang hamma mayda-chuydalarni uyga opkeldi. Endi bularni bir haftaga yetkazishing kerak. Go'shtni tuzlab, shamolli joyga osasan, shunda u qoq go'shtga aylanib, ancha muddat buzilmay turadi. Sabzilarni yerga ko'masan, o'rada salqinda tursin, piyozni esa ko'mib bo'lmaydi, u "Egam meni ekib qo'ydi", deb o'ylab o'sib ketishi mumkin.

– Voy, shunaqa deb o'ylaydimi? – deb qiqir-qiqir kuldi Ra'no, piyozning ahmoqgarchiligini ko'z oldiga keltirib.

– Odamning qorni ozgina narsaga ham to'yadi. Shuning uchun ko'p ovqat pishirish shart emas. Har payshanba va bozor kunlari palov pishirasan. Boshqa kunlari esa mastava, shavla, sho'rva, nonpalov pishirsang ham bo'lavradi. Manti, chuchvara kabilar ko'p mehnat talab qiladigan narsalar, ularni ahyon-ahyonda, ko'pincha mehmon kelganida hozirlaysan. Tushlikka ovqat pishirish shart emas, hamma uyda bo'lgan kunlari qaynatma yoki qovurma sho'rva qilganing ma'qul, sho'rvaga mo'l-ko'l piyoz, ko'kat solasan. Qovurmaning bir bo'lak go'shtini saryog'da qovurib olsang yanayam shirin chiqadi. Istarsang pishishiga bir-ikkita tuxum chaqib yuborasan, sababi – go'sht qimmat, tuxum esa arzon narsa, uni sotib olmasang ham o'z tovuqlarimiz tug'ib turibdi, – deya o'git berdi ona.

– Sho'rvani to'ldirib quymaysan. Shirin ovqat pishirishning o'zi bo'lmaydi, uni chiroyli qilib suzishing, qilgan mehnatingni ko'rsata olishing ham kerak-ku.

Kecha qotgan nonlarni uzunasiga kesgan edik, esingdami? Ular quyoshda rosa quridi, o'shalarni sho'rvaga qo'shib bersang, ham non isrof bo'lmaydi, ham shirin bo'ladi.

Nonni shamolda yo shabadada qoldirma, nonqutiga solib, dasturxon bilan o'rab qo'y. Ochiqda qolsa, nonning suvini shabada quritib ketadi.

Ena

Ena – qo'llari g'adir-budir, yonoq suyaklari turtib chiqib turadigan ildam kampir edi. Enanikida ham tabiat jo'shib yotar, bir qarich bo'sh yer yo'q, ammo hovlining tuprog'i nimagadir sho'rlashgan, yozda oppoq oqarib yotardi. Ena doim bir xilda to'q yashil tusli yengi uzun ko'ylak kiyib, tog'aning yaxtagini boshiga yopinib olar, qizig'i shundaki, savatmi-dasturxonmi, boshiga shundoq qo'yib olib ketaverardi. Shu narsani keyinroq onasida ham ko'rdi: kuzda bepoyon dalalarga chiqib, uzundan-uzoq tutqatorlar tagida o'sgan o'tlarni o'rishdi, bir g'aram bo'lgach, ona mahkam boyladi-da, bir zo'riqib boshiga ko'tarib, ildam ketaverdi. Ra'no ham ozgina o't g'aramini shunday qilib

ko‘rgan edi, og‘irligidan yiqilib tushguday bo‘ldi. Buni ko‘rib ona kuldi, hali o‘rganmagansan-da, dedi.

Buvasi, ya‘ni onaizorning otasi ancha yil burun o‘tib ketgan, hozir tog‘alari bilan edi. Uchta o‘g‘il birin-ketin yetilib kelmoqda, qanday qilib uylab-joylab olarkanman, deya koyinar edi ena. Goho onasi Ra‘noni enaga yordamga jo‘natar ham edi.

Enanikidagi ishlar ham o‘z uyidagi kabi edi. Tomorqani suvda oqib ketgan urug‘lar tufayli o‘t bosar, ularni yulib tozalashar, xazonlarni to‘plab, supurib-sidirishar, uy “ko‘tarishar”, idish-tovoqlarni saranjomlashar, farqi shundaki, u xonadonda sigir-buzoq ham bor edi. U – qo‘shiqni yaxshi ko‘radigan ola sigir edi, bir nimani xirgoyi qilib turmasa, tuyog‘i bilan paqirni daranglatib tepib ag‘darar, ko‘pirib turgan oppoq sutning bir qismi yerga to‘kilar, shunda ena joni achib, sigirni urishib-koyirdi.

– Hah o‘l, – derdi. – Sutingni qizg‘anyapsanmi? Ana, buzog‘ing emib oldi-ku, endi meni bolalarimgayam bergin-da?

\* \* \*

“Qiz tushmagur, ko‘ylaging darrov kalta bo‘pqopti, o‘saverasanmi?” deya hazilomuz koyiydigan bo‘ldi uni onasi.

Gapiradigan qushlaru daraxtlar Ra‘noni allaqachon qiziqitirmay qo‘ygan, endi u hodisalar o‘zining tasavvuri tufayli shunday tuyulganini bilardi. Behi ham gapirmas ekan, ammo u bilan suhbatlashganlari Ra‘noning esida edi, albatta. Shoxchasiga chiqib olib, shirindan-shirin mevalarini yegani uchun o‘zicha minnatdor ham bo‘lgan edi.

Paxta behi deb atardi uni Ra‘no, chunki mevasining sirti tekis yiltiroq bu nav suvli va juda mazali bo‘lib, nariroqdagisi tosh behi, qizig‘i shundaki, u Ra‘noniki emas, qo‘shniniki bo‘lib, bolalar shoxlariga chiqib mevalarini yeyishsa ham egasi lom-mim demas, jilmayibgina qo‘yardi. “Mevali daraxtning qo‘shni tomonga egilgan shoxi – qo‘shniniki”, der edilar.

Bolaligida Ra‘noni qo‘rqitgan narsalar ham uzoqlashgan, jo‘nlashgan, jingul shoxlaridagi ajinachalar allaqachon o‘zlari chiqib kelgan xayoliy makonlarga jo‘nab ketishgan, bir mahallar qo‘rqanlarini eslasa, uyalar ham edi. Ajabki, u xayoliy maxluqlar biron marta zarar yetkazmabdi, ya‘ni u, o‘zi o‘ylab chiqargan narsalaridan o‘zi qo‘rqibdi, xolos. Qilich ko‘targan qora kishi, o‘rama to‘fonlar, ajinaning uyi va shunga o‘xshash bolalik tasavvuri hosilalarining bari sezilar-sezilmas oddiylashib, olislashib borar edi.

\* \* \*

Bir kuni ona, xolasining kasal bo'lib qolganini aytib, "ko'rgani borib kelamiz", dedi. Ona tandirda non yopib, somsa pishirdi. Somsaga oq piyozdan to'g'raysan, biroq go'shtini o'zing chop, dedi. Uchburchak qilib somsa yasashdi. Somsalar qip-qizarib pishdi. Yeb ko'rsa, juda shirin chiqibdi, yana yegisi keldiyu ammo o'zini tiydi.

"O'zingni tiyasan-da, bolam, – dedi ona. – Juda ko'p narsalardan tiyilmasang bo'lmaydi. Jon qizim, masalan, mehmonga borsang, yeging kelgan narsalardan ham tiyilasan. Chunki u odam bisotida borini oldingga qo'ygan bo'ladi".

Keyin ona qozon osdi, tagiga olov yoqib, tuxum aralash go'sht qovurdi.

"U yerning ovqati ovqatmi, uynikiga nima yetsin", dedi.

Taomni chinni kosaga solib, gulli yangi dasturxonga yaxshilab o'rashdi. So'ngra onabola yo'l yoqalab kasalxonaga jo'nashdi.

Xola ko'zlari kirtayib, ozg'in quruqshoq barmoqlari bilan ko'rpani changallab yotgan ekan. Ularni ko'rib xursand bo'ldi, "Meni ko'rgani jiyanim kepti" deb suyunib, Ra'noning betlaridan cho'lp-cho'lp o'pdi. Hol-ahvol so'rashishgach:

– Nima dard kelaqoldi senga? – deya so'radi ona.

– Bilmasam, ichagim buralib og'riyverdi, o'tib ketar desam, o'tmadi. Do'xtirga kelsam, yotqizib qo'ydi, – dedi xola.

– Qanaqa dorilar ichyapsan?

– Qaydam, so'rabmanmi? – deya kulimsiradi xola. – Ishqilib, bir nimalar beryapti.

Ichyapman, xiyla tuzukman, shekilli.

– Rang-ro'ying binoyiday, – dedi ona. – Sira kasalga o'xshamaysan.

Ra'no angrayib qarab turardi. Axir, xolaning rang-ro'yi sirayam binoyiday emas-ku? Avvallari uning uyiga bir-ikki borgan edi. Uy bitmagan, ammo yangi, ko'chasi toshloq, tomorqasi ham sarishtamas, makkalar pishib-sarg'ayib ketgan, o'rib olishga odam yo'qday, ariq bo'yidagi yalpizlar ham o'sib, urug' solib yuborishgan ekan. Bu xotin o'shandayam sog' emas edi.

– Endi xafa bo'lmaysan, qizim, choy qo'yib, dasturxon yozay desam, ahvol bu, – dedi xola Ra'noga, o'ng'aysizlanib, xijolat tortib.

Uyga qaytayotganlarida Ra'no onasidan so'radi:

– Xolam binoyiday emas-ku, nimaga unaqa dedingiz?

– Ha, ancha puturdan ketib qopsan, deymi? – dedi ona.

– Gapingizga ishonib qolsa-chi? – dedi Ra'no, chopqillab borar ekan.

– Odamning ko'nglini shu ikki og'iz shirin gap bilan olasan-da, bolam. Hamma ham

shu ikki og‘iz so‘zga zor. Aytgan gaping uchun birov sendan bir nima so‘rarmidi, bor-yo‘g‘i, og‘zingni bir chetidan chiqadigan nafas, xolos.

“Odamning ko‘nglini olish uchun yolg‘on gapirsa ham bo‘laverarmikin?”, deb o‘yladi Ra‘no.

Endi u odamlarning tutumlariga diqqat qila boshlagan edi. Birovning uyiga borilsa, darvozadan o‘tiladi, ammo ichkariga kirilmaydi. Darvozaxonadan turib ovoz berib chaqiriladi. Kelguvchi erkak bo‘lsa, unga erkak kishi peshvoz chiqadi, uyda erkak yo‘q bo‘lsa, mayda o‘g‘il bolalar chiqishi mumkin. Mayda bolalar ham yo‘q bo‘lgandagina ayol chiqa oladi, shundayam yuzining bir chetini to‘sib turib gapiradi.

Kelganlaru ketganlarning bari bilan shirin muomala qilinadi. Kasal kishi erkak bo‘lsa “sira kasalga o‘xshamaysiz” deb, xotin kishi bo‘lsa “bir chiroyli yuripsiz-ku” deya, kasali og‘irroq bo‘lsa “tezda tuzalib ketasiz, falonchi ham shunaqa yotgan edi, bir necha kunda oyoqqa turib ketib, hozir tuppa-tuzuk yuribdi” deb misol ham keltirib qo‘yiladi, xullaski, bir iloj qilib muhtoj odamning ko‘nglini ko‘tarish kerak bo‘ladi.

Odamning ko‘nglini sindirish gunohi azim, bolam. Hatto shunchalarki, aytaylik, kim bilandir gaplashib turibsan, boshqa birov chaqirib qoldi deylik. Birinchi kishiga keskin qilib “Siz kutib turing, men hozir...” demaysan, balki “Hozir-a...” deya, ovozingni ohangi bilan ham noqulay vaziyatga tushganingniyu shundan o‘ng‘aysizlanganingni ham bildirib qo‘yasan.

“Ba‘zan “Ha” degan gapning ma‘nosi “Yo‘q” bo‘ladi, ba‘zan esa “Yo‘q” deganining ma‘nosi “Ha” ham bo‘lishi mumkin”, dedi onaizor va misol keltirdi. Erkaklarning “Ha” deyishi bilan xotinlarning “Ha”si o‘rtasida anchagina farq bor. Erkak kishiga hech qachon “Ha” demaysan. Kun kelib oila qurarsan, qandaydir ish buyursa, indamay bajaraverasan, nimadir so‘rashsa javob berasan, bo‘lmasa yo‘q. Biror joyga chaqirishsa, “Qani, ko‘rarmiz” deysan, yo‘qsa seni mehmonga chaqirganlar “O‘l-a, ko‘zi uchib turgan ekan, darrov rozi bo‘ldi”, deyishlari mumkin. Bilib qo‘y, hamma so‘zlarning ma‘nolari aslidagiday bo‘lavermaydi. Aytdim-ku, odamning ko‘nglini sindirish gunohi azim deb. Masalan, kimdir qarz so‘rab keldi deylik, o‘shanda ham uzil-kesil “yo‘q” demaysan. “Birovda biroz pulim boriydi, o‘sha qaytarib berib qolsa, mayli”, deganday javob qilinadi, shu bilan qarz berilishini o‘sha kimgadir bog‘liq qilib qo‘yiladi.

Qolaversa, uyda puling yo‘q bo‘lsayam borday, zoriqqanimiz yo‘q deganday tasavvur hosil bo‘lsin. Bilib qo‘y, uydagi gapni ko‘chaga chiqarmaysan. Zoriqib o‘layozgan bo‘lsang ham, o‘zingni to‘q ko‘rsatasan. Yangi ohorli kiyimlaringni ko‘chaga kiyasan, mehmonxona bilan uy tashqarisini chiroyli qilib bo‘yaysan. Eng qimmatli, ohorli dasturxoniningni mehmonga ishlatasan. O‘zingni qorning bir burda nonga ham to‘yadi,

toki kelgan kishi xursand bo‘lib ketaqolsin. Hamma shunaqa qiladi, sen ham shundan o‘tib qayga borarding?”

– Nega eng shirin narsalarni o‘zimiz yemaymiz?

– Chunki mehmon hammasidan ulug‘, bolam. Mehmon senda yo‘q narsani senga berib ketadi.

– Nima u?

– Mehmon duo qiladi. Duo ko‘zga ko‘rinmas shaklda ko‘k toqiga ko‘tariladi.

Farishtalar ham duo qiladilar. O‘sha yerda katta bir xazina hosil bo‘ladi. Bir kuni o‘sha yerga borganingda xazinangni ko‘rasan. Shirin taomingni bir o‘zing pishirib yesang maza qilasan, ammo qanchadir vaqt o‘tib, yana qorning ochqaydi. Mehmonga berganing o‘zingniki, yeganing yerniki, bolam.

Ra‘no bu gapga chippa-chin ishondi, boz ustiga, ona aytdimi, demak, albatta rioya qilish kerak. Kerakmasday yoki hatto zararliday tuyulayotgan qancha narsalar bor, ularni Ra‘no faqat ona aytgani uchungina bajarardi-ku? Masalan, har kuni tong saharda turib, ko‘cha supurishni kimga keragi bor? Ko‘cha chinniday qilib supurilishi, keyin suv ham sepilishi kerak, toki saharlab ko‘chadan o‘tgan kishilar duo qilib alqab ketsinlar. Supurindini tandirga tashlash kerak, xas-cho‘plar shunda yonib kulga aylanadi. U kulni olib idish-tovoq yuvishga ishlatsa ham bo‘laveradi.

Tomorqa ishlari ham birday davom etardi. Yana dala tozalash, g‘irillab esgan shabadalar, chayqalgan teraklar, quruqshagan poyalar.

– Makka poyasi shirin bo‘larkan, shimiysanmi? – dedi Xosi.

– Yo‘g‘-e, po‘sti tilingni qirqib yuboradi-ku?

– Ehtiyot bo‘lib shimasan, – dedi Xosi.

Shunday qildilar. Haqiqatan ham poya ichidagi suv mazali ekan.

– Lekin jo‘xori poyasining suvi undan ham shirinroq, – dedi Ra‘no.

– Juda qiziq qizlarmiz-da, – deb kuldi Xosi. – Tentirab yurib-yurib, bir nimalarni topib yeganimizga hayronman.

Po‘kaklar ham shirin bo‘larkan. Tegradagi daraxtlarning tanasida sirach kabi g‘alati yelimsimon g‘uddalar bo‘lar edi. Shularni ham mazasini totib ko‘rishdi. O‘rikning yelimi shirin ekan, buni bilib qolgan ona “Lekin shaftolining yelimini yeb bo‘lmaydi, jinni bo‘lib qolasan”, deya urishdi. Behinikini ham yeb bo‘lmaydi. “Ammo behi donasi o‘tlar orasiga tushib chirydi, holva kabi jigarrang tus oladi, o‘shani yalasang juda mazali bo‘ladi”, dedi Xosi.

Bulutlar o‘z-o‘zidan surilib kelar, mayda yomg‘ir tomchilari tevarakni shitirlarga to‘ldirib yuborar, bulutlarning paydo bo‘lishlariga va o‘tib qayga ketishlariga ham qiziqar edi-da.

Dunyo qaydan boshlanib, qayda tugashini bilgisi kelardi.

– Ho‘v tog‘larning ortida ham odamlar bormikin?

– U yoqda odamlar yashamaydi, – derdi Xosi. – U yoqda devlar, ajdarlar yashaydi.

Odamlar faqat biz tomonda, xolos.

– Yashasa ham boshqacha odamlar bo‘lsa kerak, qop-qora, yuzi ko‘k, – dedi Ra‘no.–

Yo‘q, u yoqlarda lo‘lilar yashaydi. Lo‘lilar kelganida uyga kirib yashirinib olish kerak, bo‘lmasa opketib qolishadi.

– E, bizga nima, – dedi Xosi.

– Televizor ko‘rdingmi? – deb so‘radi u.

– Otam ruxsat bermaydi, – deb javob qildi Ra‘no. – Atay buzib qo‘ygan. Lekin avval bir-ikki ko‘rganman. G‘alati kishilarni ko‘rsatadi-ku? Kulishadi, beo‘xshov gaplar gapirishadi... o‘zimizni odamlarga sira o‘xshashmaydi.

### Uchinchi qism

Xola tuzalib qolgan ekan, dasturxoniga yangi yopgan nonlaridan o‘rab, ularni ko‘rgani keldi.

– Qoshingni qorasi yuvsa ketarmi? – dedi uni quchib. – Aylanay sendan, ko‘z tegmasin, muncha chiroyli bo‘lmasang, o‘lgur? Qaldirg‘ochni qanoti-ya, menga bermaysanmi?

– Bermayman, – dedi Ra‘no, kulib.

– Qizg‘anasanmi, a, qizg‘anasanmi? – dedi xola. – Unda bilib ol, mening qoshim senikidan chandon quyuq, qop-qora edi.

– Unda qani o‘sha maqtagan qoshlaringiz?

– Bolalarimga bo‘lib berdim-da, – dedi xola. – Beshta bolani har biriga bo‘lib bersam, o‘zimga nimayam qolardi?

\* \* \*

– Boqqa kirsam, bir olma rosa qizarib pishibdi, – dedi ona kulib. – Bozorga olib chiqib sotib yuboraqolsammikin?

Haqiqatan ham bog‘ning olmasi bir tarafi taram-taram qizg‘ish, boshqa tarafi och-yashil bo‘lib yetilgan, yaqiniga borsa, boshni aylantirar shirin isiyam gurkirab turardi.

Ra‘no endi aytilgan gapning tagida boshqa gap bo‘lishini bilib olgan edi.

– Sotib nima qilasiz, – dedi g‘ashi kelib. – Zarari tegyaptimi, bechorani?

– Voy, nimaga zarari tegar ekan? – dedi ona. – Meva yetilsa, uzib egasiga berasan-da!



Yerga to‘p etib tushsinmi bo‘lmasa?

– Tushsa tushaversin, – dedi Ra‘no, zarfa qilib.

– Qo‘yarmidim? – deb kuldi ona. – Xalqni ko‘ziga katta to‘y qilamiz hali.

– Xalqingiz bilan nima ishim bor? – deya lab burdi Ra‘no.

– Bekor aytibsan, bilsang, boring ham, yo‘g‘ing ham shu el, – dedi ona.

Shu el senga qiymat bersa, qadring oshadi, qiymat bermasa, moxovdan battar bo‘lib qolasan.

– To‘y qilsang ham shu elga qilasan, bo‘lmasa kimgayam qilarding?

Marosiming bo‘lsa ham shu xalq kelib qaraydi.

Yukingni ko‘taradi, shodligingga sherik bo‘ladi, musibatingni aritadi.

O‘zingni yurtingda hamma senga qavmu qarindosh, hamma senga jigar.

Biror begona joyga borib ko‘r-chi, birov senga “kel” dermikin?

Birov ikkita non ko‘tarib chiqarmikin, to‘y-to‘ychig‘ida xuddi o‘zingnikiday o‘ynab-kulib o‘tira olarmikinsan?

\* \* \*

Ota xastalanib yotib qoldi.

Kuz kelgan edi. Behining yaproqlari oltin rang olgan, terak qirmizi tillarang, o‘tlarning uzun barglari tubidan och-yashiltob sarg‘aygan, ariq suvi yashil tus olgan edi. Havoda mezonlar ucha boshladi. Ertalablari o‘tloqlar shudringdan jiqqa ho‘l bo‘lardi, ekinzorlarning kulrang tuprog‘i namdan qorayib qolardi.

– Nima bo‘ldi sizga? – dedi ona.

– Bilmadim, – dedi ota ihrab. – Shu, biqinim sanchiydi. Anchadan beri sanchib-sanchib qo‘yardi, o‘tib ketar deb yuraveribman, endi kuchayib ketdi.

– Voy o‘lmasam, nima qilamiz?

– Maqsud do‘xtirni chaqiraqol, – dedi ota.

Ona qo‘shnikiga chiqib ketdi. U yerdan “Maqsud do‘xtirnikiga borib keling, bolam, akangizni mazasi qochib qoldi”, degani eshitildi.

Ra‘no otasining yonida ne qilarini bilmay o‘tirardi. Bir nima deb ko‘nglini ko‘targisi kelardi, o‘ylab turib-turib, axiyri:

– Choy damlab kelaymi, ota? – deb so‘radi.

Otaning atrofi tirishlarga to‘la ko‘zida iliq ifoda paydo bo‘ldi.

“Jonim qizim”, dedi ovozi allanechuk o‘zgarib. Yana bir nimalar demoqchi bo‘lib jim qoldi, o‘ylari ko‘zlaridan bilinar edi. Har holda, suyib-alqab ancha gaplar aytgisi kelgan bo‘lishi mumkin. Keyin qiynalibroq bir yutindi-da:

– Mayli, qizim, – dedi.

Ra’no otaning ayta olmagan gaplarini tushunganday edi. O’sha mahalda nimalar degisi kelgan ekan ulkan gavnali barvasta bu kishining? Qalb sezib-tug‘yon ko‘tarar, o‘zini ota bag‘riga otgisi, to‘yib-to‘yib yuzlarini ishqagisi, yana allaqancha noma’lum istaklar bor va hammasi qizning otaga ulkan mehridan bino bo‘lmoqda edi.

Lekin, ota ham bir nima demadi, qiz ham.

Ra’no ayvonga bordi-da, choy damlashga tutindi.

To‘rtinchi qism

Bu yerlarda shamollar suron solib esaveradilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga...

Ra’no o‘n oltiga to‘ldi.

Ishlar, yumushlar bir zaylda davom etar edi.

Ona ko‘chaga kamroq chiqishini tayinladi. Endi u ariqdan suv olgani yoki ertalablari ko‘cha supurgani chiqardi, xolos. Shu o‘tgan bir necha yil ichida devorning suvog‘i anchayin sho‘rlashdi, uvalanib ko‘chib tushdi, bir-ikki joyida sinchlari ham xiyol ko‘rinib qoldi. Uvalangan joydan tushgan tuproqni ham supurib, to‘plab olar edi Ra’no. Vassalarning ko‘chaga chiqqan tarafi qorayib, yorilib-yorilib ketibdi.

Shu o‘tgan bir necha yil ichida tevarakda ham, kishilarda ham ancha-muncha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. U bilgan daraxtlar quvvatga kirib meva tugdi, ba’zilari qartaydi, masalan, etakdagi shaftoli bir tutam bo‘lib qoldi, shoxlari qorayib, bujuri ko‘paydi, yaproqlari ojiz, shu holda ham achchiq-tirsiq meva solmoqqa tirishar edi. Ota ham ancha bukchaydi, yuzidagi, bo‘ynidagi tirishlari ko‘paydi, ona esa nimagadir to‘lishib, et oldi. Bir mahallar bejirim va chiroyli yuzi ko‘pchiganday tuyulardi. Ra’no esa yanada durkunlashdi, sochlari ham qoshlari kabi qalin, qop-qora, uzun edi. Goh o‘zini oynaga solib diqqat bilan razm solarkan, husnidan ko‘ngli to‘lmas, goh yuzi, goh burni, goh qulog‘i o‘ziga yoqmas va oynadan shart burilib ketib ham qolardi.

Har holda, so‘rab-surishtiradiganlar ko‘payib qolgan shekilli, ona Ra’nodan mutlaq ozodalikni talab qila boshladi. Hovlining ko‘z tushmaydigan eng chekkasida bo‘lsa-da, bir xas qolmasin dedi. Hammayoq ozoda bo‘lishi shart. Qilmayman, dedi to‘rsayib Ra’no. O‘lsin, keladigan sovchilarga yoqaman deb shunaqa qilamanmi? Ozoda bo‘lmasang menga malomat opkelasan, qiz tushmagur, dedi ona. Seni birov malomat qilmaydi, onasi tarbiyalamapti-da, deydilar.

Kelgan-ketgan ko‘p edi. Nihoyat, bir kuni ona Ra’noga gap ochdi. Falonchining bir

o'g'li bormish. Kelishgan, aqlli, og'ir-bosiqmish. Oilasi ham kamsuqum, ammo topgan-tutgani o'zlariga bermalol yetadigan bir ro'zg'or egasi ekanlar. Bittagina o'g'ilmish, avlod-ajdodi ham tuzuk odamlar o'tishgan ekan. Shular senga og'iz solishyapti, dedi. Otang ham roziday, dedi ona.

Otang ko'cha-ko'yda tanish-bilishlaridan so'rabdi, men ham, amma-xolalaring ham "Qanaqa yigit ekan", deb surishtirdik. Hammaning boshidagi qismat senga ham yetib keldi, xo'p desang, tayyorgarchiliklarimizni ko'raversak?

Ra'no ne deyarini bilmas edi.

Bir tomondan mana shu eskigina, ammo ozoda-sarishta hovlisidan sira ketgisi kelmasa, boshqa tomondan, ashyolari lovullab turgan yangi xonadon, kelinlarning ohori mo'l liboslari, qoshlariga o'smalar qo'yib yurishlari qiziqtirar ham edi. Ona aytgan tutumlarning birontasi bu vaziyatga mos kelmayotgan, "ha" desa ham, "yo'q" desa ham bo'lmaydigan bir holat o'rta qayg'uga chiqqan edi.

Qolaversa, otasi "ma'qul" debdimi, demak, haqiqatan ham yaxshi insonlar bo'lsa kerak, deya o'ylardi. Ota sira adashmagan, hamma narsani biladigan qudratli va g'oyat aqlli zot, modomiki shunday degan bo'lsa, ortiqcha gap-so'zga sira hojat yo'qday edi.

\* \* \*

– Ariqcha, oqyapsanmi?

– Ha, qizgina, oqyapman.

– Otam erga beraman deyapti, nima qilsam ekan?

– Hammaning boshida bor bir qismat-da, ko'nmay qayga borarding?

– Qaydam... Qanday odam ekan, qanaqa xonadon bo'lar ekan, o'ylab o'yimga yetolmayman.

– Tashvish qilma, Xudo senday qizni yaratadi-yu baxtingni bermaydimi? Xudo xohlasa, ajoyib hayot kechirasan, bir etak bolalaring ham bo'ladi.

\* \* \*

Sovchilar yana kelishdi. Endi ularga beriladigan javob aniq edi.

– Sahar kelib ko'changizni supurib ketay desam, zamon boshqa, ammo shu qizingiz uchun yil bo'yi har kuni supurishgayam roziman, – deya avradi kuyovning ammasi, semiz xotin.

O'z amma-xolalari ham shunda edilar.

– Sizday xushmuomala, har narsani o‘ylab ish tutadigan oilaga bermasak, kimgayam berardik, – dedi ona. – Qoshimni ostida, kiprigimni ustida avaylab o‘stirgan qizimga o‘zimdan ham afzal ona bo‘lasiz-ku, sizniyam, avlod-ajdodingizni ham yaxshi bilaman. Bu bir ishora, zamirida o‘ksikroq hayiqish sezilar, ya’ni, berishga berarmizu ammo shuncha yil zahmatlar bilan katta qilgan qizimga o‘z bolangizday qararmikansiz degan ilg‘ar-ilg‘anmas bir o‘tinch ham bor edi.

Non sindirildi, oqlik berildi. Kelganlarning erkaklariga belbog‘, ayollariga ro‘mol, dasturxonlariga non va qand-qurs solindi. Sovchilar xushhol, yuz-ko‘zlari sevinchu mamnuniyatdan porlab, xayr-xo‘shlashib jo‘nashdi.

“Xudo xohlasa, endi qarindosh bo‘ldik”, deyishdi ketar oldidan.

“Oqlik ham berildi, endi bu yog‘i to‘y, qiz o‘lgur”, dedi xolasi, Ra‘noni biqinini chimdib, sevib-suyib.

“Hoy qiz, endi ko‘chaga chiqqaningda qarindosh-urug‘laridan birontasi o‘tib qolsa qochgin, – dedi ona. – Yo‘ling o‘sha tomonga tushsa, u ko‘chadan yurmagin.

Gapirishsa gapirmaysan, ko‘rishaman desayu qochgani ilojing qolmasa, yerga qarab turasan.

Elning ko‘zi senda bo‘ladi, bularning bari sening hayo-odobingni ko‘rsatadigan narsalar, hushyor bo‘lasan”.

Qo‘ni-qo‘shnilar – keng-mo‘l guldor ko‘ylak kiygan shaddod-shaddod xotinlar ko‘rpa-to‘shak qavigani chiqishdi.

Qoq yerga kattakon palos solindi. Qo‘shnilar u yoq-bu yoqdan gaplashib, to‘shak qavir edilar.

– Qiz tushmagur, choy-poy damlab kelsang-chi, senga ko‘rpa qaviymiz deb bellarimiz qotib ketdi-ku, – deb ham qo‘yishardi.

– Kerak bo‘lsa o‘zingiz damlab olavering, – der edi Ra‘no.

– Zarda qilmay qol, – deb kular edilar qo‘shnilar.

Ra‘no odamlar ko‘zidan ham qochar bo‘ldi. Chunki nafaqat teng-to‘shlari, hatto kichkina bolalar ham “Kelin! Kelin!” deya mazaxlar edilar.

\* \* \*

Ikki kundan keyin o‘sha kishilar, yonlariga yana bir-ikki odam qo‘shilib, qoplarda guruch, sabzi, savatda yangi yopilgan patirlar, shirinliklar, kelinga sidirg‘a ko‘ylaklar olib, oq kiygani kelishdi.

Ra‘no uydan chiqmay o‘tirardi. Kelguvchilar bir nimalarni gaplashib, ko‘proq

hazillashib o‘tirishdi. Bugun saharlab ona va xola tandinga somsa yopib, qatlamalar pishirishgan edi, kelguvchilarning dasturxoniga shu qatlama-somsalardan solib qaytarishdi. Ular olib ketgan patirlaru qand-qurslarni qo‘shnilarga tarqatib chiqishdi. Yana bir necha kun o‘tgach, “qozon oshi” bo‘ldi. Kuyov tomondan uch kishi aravada ikkita qo‘y, bitta nimta, yog‘, ikki qop un, guruch va sabzavotlargacha opkelishdi.

– Ana, seni sotib boy bo‘ldik, – deb kuldi ona.

Qo‘ylar bostirmaga boylandi, nimtadan esa sho‘rva tashlab qo‘yishdi, nonlar yopilib, yupqa pishirildi. Kelguvchilarga to‘n, belbog‘, yaxtak, ayollariga qora chiybaxmal yo banoras to‘n berildi.

– Kuyovimizga ham ziyofat yuborsak arzir? – dedi xola. U uchun atay tikilgan “maysa beqasam” to‘n, xonatlas qora belbog‘, qo‘y to‘shi pishirilib, tovoqda pistayu bodomlar bilan berib yuborildi.

To‘y kuni ham shu bugun belgilanaqoldi.

To‘ydan bir kun avval “non-patir” marosimi bo‘ldi. Yuztalab non yopildi, qatlamalar pishirildi. Xalqqa “bugun falonchinikida “non-patir”, ertaga to‘y” deb ma‘lum qilindi. Kuyov tomon yana ikkita qo‘y, qopda un-guruch keltirib, nikoh o‘qiladi deb, ma‘lum qilib ketishdi.

Kechga yaqin mulla keldi. Kuyov o‘rtog‘i bilan banoras to‘nini yopinib kelib turgan edi. Ichkari uyga kirildi. Kuyov yuqoriroqqa, Ra‘no esa poygak tomonga o‘tirdi. Oraga bir kosa shirin suv qo‘yildi, mulla buva har ikki tomondan roziliklarini so‘radi, kuyov birinchi so‘rashdayoq “Ha” deb javob qildi, Ra‘nodan so‘ralganida esa lom-mim demay o‘tiraverdi. “Sukut – alomati rizo” dedi mulla buva, do‘rillab. Xullas, nikoh o‘qildi, o‘rtadagi nikoh suvidan ikkovlariga ham ichirildi.

Nikoh o‘qilayotgan mahal kuyov ustidan guruch sepilib, uchi tugilmagan uzun oq ip o‘tkazilgan igna bilan to‘ning yelka qismidan tinimsiz tikib turishdi, umr yo‘llari shundayin oq, shundayin uzun bo‘lsin, deya.

Mahr aytili.

Kechga yaqin Ra‘noning teng-to‘shlari kelishdi. Zardo‘z so‘zanalar, ro‘molu ro‘molchalarning uchlari boylanib, uy tegrasiga qatorasiga osildi, kuyovbola o‘tiradigan joyga eng chiroyli, eng nafis so‘zana boylandi.

Bir mahal “kuyovnavkar keldi” degan xabar taraldi. Hamma shoshib qoldi. Childirma do‘p-do‘piyu karnay-surnay sadosi ostida kuyovnavkarlar hovliga kirib kelishdi, ishkamlar tagida turib olib, quyunday bo‘lib o‘ynashdi.

Kuyovnavkar kiradigan uy ostonasiga turib olgan amma-xolalar “Ho-o, kirib bo‘psizlar, qani to‘ngak puli?” deb turib olishgan edi, ammo yigitlarning epchilroqlari ularni yelkalari bilan surib, ichkariga kirib ketishdi.

Kuyov ziyofati tezda nihoya topdi. Kuyov kuyovnavkarlar davrasida to‘n yopinib kelib, to‘n yopinganicha chiqib ketdi. Ra’no bu mahal qo‘shnining uyida edi, uni o‘z uyiga qaytib olib chiqdilar, isiriq tutatdilar, sochlariga oq paxtadan uzun piliklar boylab o‘rdilar, oq surp ko‘ylak, mahsi-kavush kiydirib, paranji yopintirishib, ota oyog‘iga bosh urdirdilar.

Yor-yorlar shunda avj oldi.

Oq miltig‘-o qora miltiq otgan otam...

Qolganlar jo‘r bo‘lishdi:

Yor yor-o, otgan otam...

Qiz uyidagi yor-yor sadolari ishkomlar, tomorqalar, teraklar uzra qalqa-qalqa havolanaverdi:

O‘z qizini-yo begonaga sotgan otam,

Yor yor-o, sotgan otam...

Ajabki, bu g‘alati yor-yorni aytayotganlarning bari shod, bari xurram edilar:

O‘z qizini o‘rniga-yo bodom eksin,

Bodom shoxi titrasa-yo bolam desin...

Yor-yor-o, bolam desin...

Darvozaxonaga yaqinroqda to‘plangan erkaklar, qiy-chuv solayotgan xotinlar, quvalashib o‘ynab yurgan mayda bolalar uzra yoyilaverdi to‘y yor-yori:

Uzun-uzun arg‘amchi-yo, halinchakka,

Oppoq ko‘ylak yarashadi kelinchakka,

Oppoq ko‘ylak yengiga-yo tut qoqaylik,

Kuyov bola bag‘riga-yo o‘t yoqaylik.

Ra’no ota oyoqlarini quchoqlab, boshini urib yig‘ladi, ketmayman deb dod soldi. Ota ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lib, ovozi titrab, ho‘ngramoqdan beri bo‘lib “Jonim bolam, iloyo, borgan joyingda unib-o‘sgin” deb duo berdi.

Shu tariqa, mana shu xonadonda chopqillab-chopqillab o‘sgan, yumushlarini sira og‘rinmay ado etgan, bo‘yi yetgan sayin esi kirib, hammayoqni saranjom-sarishtalagan, ammo taqdir charxpalagining bir aylanishida shu qadrdon hovlisidan boshqa bir xonadonga tosh kabi otilib ketayotgan Ra’no qizni ota uyidan olib chiqdilar.

Borar joyingda toshday bo‘lgin, deya duo qilishdi amma-xolalar. Toshday tushginu toshday qolgin, qizgina.

Kelin ketarkan, shoʻrlik onaizori ham qizining sep-surugʻini, boʻxchalarini koʻtarib, orqasidan joʻnadi.

Borguncha yor-yor aytib borildi. Gurillab yonayotgan olov atrofini uch aylangach, amma-xolalar qizni kelin uyiga olib kirishdi. Kuyovning amma-xolasi shu yerda ekan, ular qattiq-qattiq gaplashishar, sharaqlab kular edilar. Raʼnoga qatiqqa shakar qoʻshib ichirishdi. Uy devorlarining shiftga yaqin qismiga uzun chilvirlar tortilib, kelinning seplari osib bezatildi. Roʻmollari, koʻylaklari, dasturxonu sochiqlarigacha osildi, chimildiq tutildi.

Tashqarida eski matolardan toʻpchalar yasali, moyga botirib osib qoʻyilgan edi, oʻshalar yoqilgach, hovli charogʻon boʻlib ketdi. Toʻy koʻrgani kelganlar, bola-chaqa, xullas, hamma oʻyin-kulgi qilaverdi.

Asta-asta esib turgan shamol kechga yaqin birdan kuchaydi, kunbotardan qora bulutlarni haydab olib keldi, toʻsatdan sharros jala quydi. Shunda onaizorining “Qozonning qirmochini yemagin-a, qizim, toʻyingda yomgʻir yogʻadi” deganlari esiga tushdi, “Voy, tavba qildim, rost ekan-da” deya hayratlandi.

Ichkari kelin bilan birga kelgan qizlarga toʻla edi. Katta yoshli ayollar kelishmagan, davrada faqat yosh qiz-juvonlar edi. Ular uy yasatishdi. Dasturxon yozildi, yeb-ichib, oʻyin-kulgi qilib oʻtirishdi.

Tashqaridagi oʻyin-kulgi tugagach, ketgan ketib, qolgan qolaverdi. Ertalab hamma oʻz uyiga joʻnadi. Onaizor choynak-piyola, idish-tovoqlarini olib, xotinlar bilan yetib keldi, “yuz ochar” boʻldi.

Oq surp mato bilan Raʼnoning yuzini yopdilar. “Kelyapti, qaynonasi kelyapti”, deyishdi xotinlar. Bir mahal qaynona qoʻlida supراسiyu uni bilan kirib keldi. Suprani oʻrtaga yoydilar, Raʼnoga “Unni xamir qorganday qilib gʻijimlang”, deyishdi. Raʼno choʻnqayib oʻtirib, shunday qildi. “Mahkam-mahkam gʻijimlayvering, qizim, qoʻlingiz xamirdan chiqmasin, barakali boʻlsin”, deyishdi. Shundan keyin amma-xolasi ikki qoʻltigʻidan tutib tashqariga opchiqishdi, oʻchoqqa oʻt yoqishib, idishdagi yogʻni uch marta oz-ozdan quydirishdi. “Qozoning doim yogʻli boʻlsin, muhtojlik koʻrmagin”, deyishdi.

Shundan soʻng kuyov tarafning yosh bolalaridan biri iljayib turib, mevali daraxtdan sindirib olingan kichkina choʻp bilan kelinning yuzidagi surpni yulqab oldi. “Hoy bola, olib borib onangga ber, sengayam shunaqa kelin nasib qilsin” deyishgan edi, bola uyalib, qochib ketdi.

“Yuz ochar” marosimi mana shunday boʻlib oʻtdi.

Raʼnoni ichkariga qaytib opkirishdi. Chimildiq koʻtarildi, kuyov tomon kelinga atagan

narsalarini olib kira boshlashdi: birov palos, birov gilam, birovi to‘p mato ko‘tarib olgan edi. Kirganlarga to‘n, belbog‘, sochiq, qariroqlariga to‘shak-bolishlar berildi.

Shundan so‘ng hamma ketib, yanga qoldi.

Shundan so‘ng kuyov kirar bo‘ldi.

“Kuyov bola kirib kelganida burchakda kutib turasan, egilib uch marta salom berasan”, deb tayinlashdi unga.

Tayinlovlar mo‘l edi. Xolalar goh “qog‘ozga o‘rab”, goh ochiqchasiga shaddodlik bilan hamma gapni aytib bo‘lishgan, aytgani boshqa gap qoldirishmagan edi.

Shu bilan hammasi poyoniga yetdi. Ra‘no qiz – kecha o‘z uyining yo‘laklarida potirlab, jayronday chopib yurgan o‘sha qizaloq bugun o‘yday kelin bo‘ldi.

Shu bir kunning ichida juda ko‘p voqealar qatorasiga ro‘y berdi.

Bu elda shamollar suron solib esadilar demaganmidik?

Eh-he, shamol rosa esdi, to‘pchiroqlar yona-yona o‘chib qoldi, kelin-kuyov yotgan uyning dahlizida yangalar bor edilar, ayniqsa bittasi juda barvasta va shaddod ekan, o‘g‘ri mushuk tugul, chivinni ham yaqinlashtirmadi. Hushyor ekan, tiq etgan tovushga quloq solib yotdi. Jim yotish o‘rniga bir nimalarni pichirlab duo o‘qib yotdi, nimalar deb pichirlaganini bilib bo‘lmadi.

Bir mahal tungi osmondagi bulutlar supurilib, ozod-ozod to‘lin oy samoda nur sochdi.

Bir malak bor edi, kelin bo‘ldi, bir jayron bor edi, qafasga tushdi, bir qiz bor edi, turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo‘ydi. Ana o‘sha barvasta xotin Ra‘noning yuragidan kechgan tuyg‘ularu hislarga oshnolikka yo‘l qo‘ymadi, Ra‘no qiz shu kech nimalarni o‘yladi – hech kim bilmadi.

\* \* \*

Saharlab qush uyqusida xiyol ko‘zi ilingan Ra‘noni xolasi dahlizdan ovoz berib uyg‘otdi.

“Tur, qiz bo‘lmay qol, hovlilarni supur, ishlaringni qil”, dedi pichirlab.

Ra‘no o‘rnidan turdi. Ohorli kelinlik liboslarini kiydi, u liboslar o‘ziga yarashdimi- yo‘qmi, oynaga tuzukroq qaray olmadi xam, ammo rang-barangligi, islari va yangiligi yoqar edi.

Tashqari chiqarkan, u ham pichirlab, xoladan:

– Supurgi qayda ekan? – deya so‘radi.

– Hammasini topib qo‘yganman, – dedi xola. – Men ham chiqaman, bo‘laqol.



Hovli kenggina edi. To'y o'tgach, qolgan qavmu qarindosh hammayoqni saranjomlab ketishgan ekan. Bir chetda dasta-dasta piyolayu laganlar turar, rayhonlar ostida Ra'no yangi supurgini ko'rdi. Xolasidan minnatdor bo'lib, hovli supurishga tutindi. Ko'cha eshik oldini ikki tarafdagi qo'shnilarning darvozaxonasigacha supurib bordi, suvlar sepdi, keyin qaytib kirib, nonushta tayyorladi, bu orada qaynota-qaynona ham turishdi. Bir chetga qumg'onda suv ham isitib qo'ygan edi, qaynota keliniga qaramasdan, borib tahoratini olib keldi. U kelguniga qadar Ra'no shoshilib ular yotgan uyga kirib, joynamozini qiblaga to'g'rilab soldi. Qaynonaga salom berganida, u nimagadir ko'zyosh qilib, peshanasidan o'pdi, yelkasiga bir sidirg'a kiyimlik mato tashladi. Qaynota namozini o'qib chiqqach, unga ham uch bora egilib salom berdi.

– Barakalla, qizim, Xudoyim baxtingni bersin, – deb qo'ydi qaynota ham.

– O'g'lingni uyg'ot, – dedi keyin, qisqa qilib.

Qaynona keliniga qaragan edi. Ra'no “hozir” dedi shosha-pisha. Keyin tez o'zining uyiga kirdi. Kuyovbola uxlab yotar edi.

– Ey, turing, – dedi eriga. – Chaqirishyapti.

Keyin qaytib chiqdi.

Yumushlarni bajarib yurar ekan, yuz-qo'lini yuvib kelib choyga o'tirgan eriga sira qarayolmas edi. Xudoga shukur, dedi keyin ichida. Bir tuzukkina yigit ekan-ku. Qiyshiq yo xunuk bo'lganida nima qilardim? Nimayam qilardim, ko'nardim-da. Ko'ngach, umrim bo'yi shu bilan yashar ham edim. Xudoyimga shukur, der edi.

Yangi ro'zg'or mana shu edi. O'z uyidagidan aytarli farqi ham yo'q ekan. Hovli adog'ida tandir, osti tovuq katak. Beriroqda o'choq. Ustida uzum valishi. Narigi tomonda bostirma, molxona. Tomorqa ham o'z uyidagi kabi: makkalari o'rib olingan, adog'ida nok, behi, olma va shaftoli bor. Farqi shundaki, qo'shni bilan tutash yerida tut o'sibdi, hovli adog'ida esa ikki tup o'rik bilan yong'oq bor ekan, bular o'sib-bahaybatlashib ketgani uchun ostida o't-o'lan unmabdi. Tomorqa oxirida ariqcha oqib o'tibdi, qirg'og'ida turli o'tlar gurkirab o'sibdi.

Kuyovbola ko'chaga chiqib ketgan edi. “Shom tushguncha yurmagin, chillalisan”, dedi ona unga. “Xo'p-xo'p, – dedi. – Bir-ikki ishim bor, bitirib darrov kelaman”. Chillali dedilar, chilla uch kunda bitar ekan. Uch kungacha kechasi tashqariga chiqsang ham bir o'zing chiqma, meni uyg'ot, dedi xola. Chillang tugaganidan keyin bilganingni qilaverasan. Ammo mehnatdan qochma, muomalangni shirin qil, jilmayib gaplash.

Yarim soat kam uxlasang uxlabsan, uyquga yotishingdan avval hammayoq chinniday saranjom bo'lsin. Eng haqir ishgayam erinma. Bilib qo'y, hammamiz bir qishloqning

odamlari bo'lsak ham, kuyov tarafning odami har bir qadam olishingdan muomalanggacha, tutumingdan farosatinggacha kuzatib o'tiradi. Har qilgan to'g'ri ishing ota-onangga rahmat olib keladi, sal noto'g'ri ish qilsang, malomat olib kelasan. Iloji boricha kam gapir, bir nima so'rashsagina javob ber, chehrangni och.

“Xo'p”, dedi Ra'no.

Bularni barini ado etish mushkul edi. Yumushlarini bajarib yurar ekan, qaynona va bitta-yarim kelgan qarindosh so'rida baqrayib o'tirar edilar. Aslida-ku, hammasini o'zi bilganicha saranjomlab qo'yadi, ammo mana shu nigohlardan qutulish qiyin, shartta ishini tashlab uyiga kirib ketgisi kelsa-da, o'zini qo'lga olib, sezmaganday ishida davom etadi. Tush mahali bo'lganida sho'rva ichildi, ular bilan birga o'tirib, tushlik qilish ham noqulay bo'ldi, suvidan bir-ikki ho'plab, yana o'rnidan turib ketdi. Kosa-tovoqlarni joylagach, qaynona ham, qaynота ham uyiga kirib ketdi, shunda ustunga sanchib qo'yilgan o'roqni olib tomorqaga o'tdi, ariq bo'yidan ancha o't o'rdi, keyin olib borib bir qismini mol-qo'ylar oldiga soldi, bir qismini quyoshda qurib qolmasin deya bostirma salqiniga g'aramlab qo'ydi. Navbat tovuqlarga kelgan edi, o'z uyida makka donidan berardi, o'z uyiniki minnatsiz edi, “bu yerda ham bersam gapirishmasmikin” deb o'yladi.

Qavmu qarindosh, qo'ni-qo'shni salomga kelishda davom etar edilar.

Kimdir bir bo'lak go'sht solib qovurma qilib kelar, yonida albatta qirmizi tusda qatlama ham bo'lar, kimdir manti, kimdir somsa pishirib kelar, xullas, keluvchilarning oxiri ko'rinmasdi. Ularning dasturxoniga u-bu narsa solib, idishini top-toza qilib qaytarish, ustiga ustak, kim nima opkelganini esda saqlab qolish ham kerak edi. Bular bolaligida “mehmon-mehmon” o'ynaganlarida bilib olgan narsalari emasmi, hammasini uddaladi. Yugurib-elib xizmat qilar ekan, kelguvchilarni bari baqrayib qarayverishar, goho o'ziga eshittirib “kelin chiroyli ekan” deb qo'yishar, shu bir og'iz gapdan ko'ngli ko'tarilib, mana shu hovli-xonadon sulolasiga mehr uyg'onganday ham bo'lardi. Aqli “endi sening uying shu, bularning bari endi qarindoshlaring” desa-da, ko'ngli sarkashlik qilar, tan olmas, ko'ngil ovozi yana o'chirishga to'g'ri kelardi.

Qaynота donishmand va beozor kishi bo'lib chiqdi.

– Kelining bilan ro'zg'orga baraka keldi, – dedi qaynonaga. – Hali qarab turgin, mo'l-ko'lchilik bo'ladi.

– Juda maqtayvermang, taltayib ketmasin, – deya maqtovni xushlamaganini bildirib qo'ydi qaynona.

– Tavba, g'alati bir narsani sezdim, – dedi bir kuni qaynота. – O'tgan safar senga

barakadan gapirganim esingdami?

– Ha, esimda.

– Qirq yildan beri novvoylik qilaman, – dedi qaynota. – Shu yoshga kirib sezganim shuki, non bilan nonning farqi bor ekan.

– Qanaqa ekan? – deya qiziqsindi qaynona.

– Niyatga qarab ekan, – dedi qaynota. – Har kuni sotishga ikki tandir non yopaman. Shular ko‘pincha yo oqib ketadi, qiyshtayadi, yo yaxshi ko‘pchimaydi. Ammo to‘yga non yopadigan bo‘lsam, shunaqa chiroyli, shirin chiqadiki, o‘zim ham hayron qolaman.

– E, nonni joni bormidi? – dedi qaynona. – O‘zingiz epsiz bo‘lsangiz kerak.

– Yo‘g‘-e, – deya kuldi qaynota. – Nikoh to‘ylarini aytmayapman, gumroh, gapni ma‘nisiga qarasang-chi. Sunnat to‘ylariga yopadigan nonlarni aytyapman.

– Shunaqa demaysizmi? – deya, birdaniga gul-gul ochilib ketdi qaynona ham. – Qaydan sezaqoldingiz? Gapimizni qarg‘a eshitmasin yo shamol opketib yoymasin deyman-da. Xudo xohlasa, tez orada o‘shanaqa non ham yopasiz, otasi.

– Xudoyim, o‘zingga ming bor shukur, – dedi qaynota ham. – O‘sha kunga yetkazsin, iloyim. Shunaqa nonlar yopay-ki!

\* \* \*

Ra‘noning hayotiga baxt oraladi.

Turmushga chiqqan bo‘lsa-da, xayolida haliyam kichkina qizaloq edi. Haliyam o‘ynagisi kelardi. Haliyam sho‘x edi.

Ertalab ko‘ngli aynidi. Yomon narsa yeb qo‘ydimmi deb o‘yladi, ammo o‘qchiq boshqacha, me‘da o‘qchig‘iga o‘xshamasdi. Shu kuni onaizor ham qizidan xabar olgani kelib qoldi. Hol-ahvol so‘rashib, ichkari uyga kirganlarida yana o‘qchiq tutgan edi, ona ikki qo‘li bilan ikki bilagidan tutib, ko‘zlariga tikilib qarab:

– O‘lgur, nimaga o‘qchiyapsan? – deb so‘radi.

– Bilmasam, ertalabdan beri shunaqaman, – dedi Ra‘no.

– Bo‘yingda bo‘lmasin tag‘in?

Ra‘noga bu gap ari chaqqanday ta‘sir qildi. Angrayib onasiga qarab qoldi.

– Yo‘g‘-e, – dedi aqli bovar qilmasdan. – Shunaqamikin?

– Shunaqa bo‘lmasinam-chi, – dedi ona, keyin uni quchoqlab olib, yuzlaridan cho‘lp-cho‘lp o‘pdi. – Aylanay Ra‘no gulimdan, Xudoyim baxtingni bergani rost bo‘lsin. Hali pahlavonday o‘g‘ilcha tug‘volsang bormi?

Keyin homiladorlik belgilarini, nimalar qilish kerakligini birma-bir tushuntirdi.

– Bunga aytammikin? – deya ikkilandi Ra’no.

Ra’no erining ismini aytib murojaat qilmas, shunaqa paytlarda “bu” yoki “u” deb qo‘yaqolardi.

– Yo‘q, hozircha aytmay tur. Hech bo‘lmasa, oradan bir oy o‘tsin. Tushundingmi?

– Tushundim, – dedi Ra’no ham.

Tashqariga chiqqanlarida qaynonaning o‘tkir nigohi Ra’noda sodir bo‘lgan o‘zgarishni sezganday edi. Bir nimalarni pichirlab, o‘zini nimalargadir urinayotganday ko‘rsatsa ham, Ra’noga goh-goho yer ostidan qarab qo‘yardi.

Ha, Ra’no qizga baxt kulib boqdi.

Vujudining ich-ichida, yetmish ikki tomiri tutashgan joyda jajji va murg‘ak bir jon paydo bo‘lganini va u kun sayin emas, soat sayin o‘sayotganini tasavvur qilish qiyin, ammo yoqimli edi. Shu ignaning uchidaygina narsa Ra’noning hayotini o‘zgartirib yubordi. “Hali dunyoga kelmasingdanoq menga shuncha baxt olib kelding-a” deya murojaat qilardi Ra’no, go‘dagiga. Qanaqa ekansan? O‘g‘il bolamikansan, qiz bolami? Otangga o‘xshagan bo‘ying baland, sochlaring qop-qora, xushsurat bo‘larmikansan? Yo o‘zimga o‘xsharmikansan? Bir kuni dunyoga kelsang kulishlaring, qo‘lchalaring, oyoqchalaring qanaqa bo‘larkan? Dunyoga kelish degan narsani Ra’no sira o‘ylab ko‘rmagan edi, tasavvuriga shu o‘y kirib keldi. Yuragimning ostida hozircha jimgina o‘syapsan, dedi unga. Onang bo‘laturib, bor-yo‘qligingni ham bilmayman, bor-yo‘g‘i meni o‘qchitib o‘zingdan xabar berding, boshqa narsa o‘qchitganida xavotirga tushgan bo‘lardim, shu ozoringdan ham qanchalar suyunganlarimni bilarmikansan, jonim jahonim, sho‘xgina bolajonim? Shu alomatingni o‘ziyoq hayotimni butkul o‘zgartirib yubordi-ya, hech narsaga qaragim kelmay qoldi, yursam ham, tursam ham seni o‘ylayveradigan bo‘lib qoldim. Xudoyim menga seni berib, shu bandamga bir rahm qilay dedi, bermasa nima qilardim? Tavba, shungacha qaylarda bo‘lgan ekansan, xudoyimning dargohlarida dunyoga kelishingni kuta-kuta, onam kim bo‘lar ekan deb o‘ylaganmikansan... Xudoyo tavba qildim, g‘alati xayollar aqlimga kelishini qara-ya. Ishqilib omon-eson dunyoga kelib ol, onangni ko‘zlarini quvnatib-quvnatib yur, bolajon.

Ra’noning peshanasidagi sochi qaysarroq edi, doim tikkayib qolavergani uchun ba’zan qaychi solib kesar, kesilgan sochni esa o‘rab-chirmab, devor kavaklariga tiqib qo‘yardi. Kesilgan sochni tandirga tashlab bo‘lmaydi, juda iloji bo‘lmasa xoliroq bir joyga yerga ko‘mish kerak, deya o‘rgatgan edi ona. Endi soch kesib yurmagin-a tag‘in, deb uqtirdi bu safar.

Shunaqa irimimiz bor, bolani umrini kesib qo'yadi deyishadi. Odamlar kelganida oldiga chiqaverma, ko'hlikkinasan, suq-nazar tegmasin. Ko'proq harakat qil, yo'qsa bolang katta bo'lib ketib, tug'ishga qiynalasan. Xamir ovqatlardan, yangi yopilgan nonlardan yema, ko'ngling bo'r yoki kesak tusab qolsa, menga aytsang, tuxumning po'stini kelida maydalab tuyib olib kelib beraman, endi ba'zi xil narsalardan tiyilib turasan, deya o'rgatdi.

\* \* \*

Qiziq, Ra'no erini yaxshi ko'rarmidi? Eshitganlari, ko'rganlari boshqa, hayot boshqa ekanini avvaldan bilardi. Eri baland bo'yli, qorachadan kelgan yigit bo'lib, ko'p ham gapiravermasdi. Har holda bu oilada unga eng yaqin kishisi eri bo'lsa-da, o'z tug'ishganlari kabi yaqin va o'z-o'zinikiday tuyulavermasdi. Bunga hayron ham bo'ldi, nazarida ancha-muncha narsasidan ayrilib qolganday, turmush degan narsa o'shalardan judo qilganday tuyular, qalbini nedir armon va g'ussaga cho'mdirardi. Ha, bir mahallar ariq bo'ylarida yelday uchib chopganlari, o'ynaganlari, kulganlari – bari yorug' va g'ussali bir armonga aylanib qolgan edi. Yetishilmagan orzular armonga aylanadilar. Ammo umrning yashab o'tilgan nurli lahzalari ham armonga aylanar ekan. Goho ota uyiga borganida o'sha so'qmoqlar, tomorqalar, ariq bo'ylarini bir aylanib kelardi, o'zi o'tqazgan olma, shoxlarida o'tirib olib, mevasining suvini oqizib-oqizib yegan behi... ularning bari ko'ziga ajib qadrdonday va suyumliday ko'rinardi. Yog'ochlari issiqda yorilib-yorilib ketgan so'ri va rangi o'cha boshlagan to'shaklargacha suyimli, aziz bo'lib, goho islarini ham qo'msab qolardi.

Ra'no mana shularga boshqorong'i bo'ldi.

Ona "yaxshiyam tansiq narsalarga boshqorong'i bo'lmading" deya, o'sha to'shak, o'sha bolishlardan uyiga olib kelib berdi. Endi ona uyning isi o'sha to'shaklardan kelib turardi, yo'qsa uyda qancha yangi to'shak, qancha yangi bolish boriydi-yu? Yaxshiyam uzoqqa tegib ketmaganim, deya o'yladi shunda. Uzoqroqqa tekkanimda ona uyimga borishga qiynalardim, albatta. O'z uyida yashasa-da, ona uy taraf yuragining bir chetini ilitib, o'ziga tortib turar edi.

Ra'no qiz to'lishdi, yuzlariga dog' tushdi.

Tavba, ayol kishi ikkiqat bo'lganida yuziga Xudoning arshidan bir nur inadi deyishadi, dedi ona. Yuz-ko'zingdan nur yog'ilib turibdi-ya, bolam. Qarab tursam, ko'zimga o'tday ko'rinib ketyapsan. Iloyo shu nurdan benasib qilmasin Xudoyim.

U g'alati yog'duni Ra'noning o'zi ham sezardi. Chunki qalbi bemisl bir saodat-la limmo-lim to'lgan, nuqul baxt ichida yashayotganday sezardi o'zini.

Qaynona “bizlar sizdaqaligimizda tinim bilmasdik. Urining-tirishing, hech narsa qilmaydi”, deyishiga qaramay, avvaliga aytganlarini bajarib yurdi, keyin esa, qorni bir-ikki pastga tortib og‘riganida bas qildi.

“Sening dunyoga kelishing oldida u ishlar nima bo‘pti, bolajonim”, dedi xayolan bolasiga. “Seni o‘ylasam, o‘zimning borlig‘im esimdan chiqib ketadi-yu? Vujudimning ichida pitirlashingni, qimirlashingni sezsam, ko‘zimga dunyo charog‘on bo‘ladi. Yurganimniyam, turganimniyam bilmayman, go‘yo es-hushimdan ayrilgandayman”. “Qiz tushmagur, bo‘yingda bo‘ldingu shunaqa ochilib ketding-ki, – der edi ona. – Ishqilib, iloyim ko‘z tegmasin, ko‘ylagingga ko‘zmunchoq taqib yur”.

\* \* \*

Ra‘no pahlavonday o‘g‘il tug‘di.

To‘lg‘oqning qanaqa qattiq azob ekanini o‘shanda bildi. Butun vujudi ixtiyoridan tashqari, o‘z-o‘zidan tirishib, qornidagi chaqaloqni dunyoga keltirishga urinar edi. U kuchli og‘riq aro suyaklarining surilayotganini ham bildi. Yetmish ikki tomiriyu oltmish olti so‘ngagining bari g‘ayriixtiyoriy harakatga keldi, Ra‘no o‘lim nafasini yaqindan sezdi.

Ajabki, chaqaloqni olib kelib berganlarida hammasi esidan chiqib ketdi. Azob-ku esida, ammo azob hissiyoti unutildi.

Ism tanlashga ko‘p ikkilandilar

“Vaqtidan biroz o‘tib tug‘ildi, Keldivoy deb ot qo‘yaqolaylik”, dedi eri.

“Yo‘q”, dedi Ra‘no, keskin.

Umuman, qishloqda ism qo‘yishning o‘ziga xos rasm-rusumlari boriydi.

Masalan, Keldivoy degan ism bir oila uzoq vaqt farzand ko‘rmay yurib, keyin bolali bo‘lganida qo‘yiladi. Ismlarga qarab, u oilaning farzand ehtiyojmandligini bilib olsa bo‘ladi.

Juman yoki Jumavoy – juma kuni tug‘ilgan bola.

Ona qornida yig‘lagan chaqaloqqa Mashrab deydi.

Turg‘un – shu jo‘jiq hayotda muqim qolsin, turg‘un bo‘lsin.

Sotvoldi – go‘yo “sotib olinadi”, ya‘ni qo‘shnilardan yoki qarindoshlardan birining bolasiday qilib, ayolning etagiga bir yumalatib olinadi, keyin o‘z onasi bolasini ma‘lum haq evaziga “sotib” oladi.

To‘xtasin – bir oilaning tug‘ilayotgan farzandlari birin-ketin vafot etaversa, shunday ism beriladi, ya‘ni to‘xtab qolsin, ketmasin degan ma‘noda.

Xudoybergan – bu ismda ham ma’lum istaklar bor. Farzandsiz oilalar qo‘yadilar bu ismni.

Xoli bilan tug‘ilgan bolaga Xolmuhammad, Xolniso, Xoldorali, safarda tug‘ilsa Safarali, nori bo‘lsa Normuhammad, Anorxon, sunnati bilan dunyoga kelsa Sunnatvoy deydilar.

Aytilgan barcha ismlar Ra’noga xunukday, bolasiga yarashmaydiganday tuyular, juda chiroyli, bo‘y-bastiga mos ism tanlagisi kelar, ammo unaqa ism topolmas edi.

Nihoyat, Davlat deya ism qo‘ydilar.

### Beshinchi qism

Shu qishloqning shamol esadigan tomonida eski bir kulbada yashovchi qora yuzli bir sulloh odam ham bor edi.

U odamning yurgan yo‘llarida o‘t-o‘lanlar so‘lib, jizg‘inagi chiqib qorayar, hasharotlar nobud bo‘lar, ariqdan suv ichsa ifloslanar, qo‘li tekkan mevalarning suvi taxir bo‘lib qolar, shu qismatidan yanib-yanib yuradigan ozorli bir kishi edi.

Kulbasi zax, tevaragini zamburug‘lar va tushunarsiz oqish nimjon o‘tlar qoplagan, kulba devorlari ostidan sho‘ra va ajriqlar bo‘y cho‘zgan, tomorqasi qarovsiz, burganu sho‘ralar, supurgilar betartib o‘sib yotardi.

Ana shu kishi Ra’noga g‘alati-g‘alati qarashlar qilar edi.

Qishloqda odam ko‘p, hamma o‘z tashvishi bilan ovora. Bolasini ko‘tarib Ra’no damchi xotinnikiga borishga majbur, yo‘l esa o‘sha kulba yonidan o‘tadi. U odam choponini yelvagay tashlab, tob tashlagan eshigi yoniga chiqadi, Ra’noning kelishidan ketishigacha qattiq tikilib turadi. To muyulishga yetgunicha ortidan o‘sha bo‘lmag‘ur nigohni sezib boradi, muyulishdan qayrilgachgina yelkasidan tog‘ ag‘darilganday yengil nafas oladi.

“Xudoga shukur, o‘tib oldik”, deydi bolasiga.

U odamning esa hech kimi yo‘q. Qishloqdagi hammaning yaqini, qarindosh-urug‘i bor. Odamlar urug‘ining ko‘pligi bilan maqtanishadi. Uning esa hech kimi yo‘q. Ra’no u haqda birovdan so‘ragani ham or qiladi.

Farzand ko‘rgach, Ra’no haqiqatan ham gul-gul ochildi. Qizlik go‘zalligi bu tarovat oldida hech nima bo‘lmay qoldi. Gul edi, Xudoning qudrati bilan oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Chechak edi, barq urib ochildi. Bulut edi, yomg‘irini ayamay to‘kdi. Quyosh edi, harorat-la porladi. Oy edi, to‘lishdi. Kecha edi, bag‘ri yulduzga to‘ldi. Qush edi, jo‘shib-jo‘shib sayradi. Zilol edi, sharqirab chunon oqdi...

Bolani beshikka boyladilar. Ra'noning yuragi ezildi. Bolasini beshikka boylagisi kelmadi. Qaynona "Siz nimani bilardingiz" deya, beshikdan alas-alas qilib yomon narsalarni haydadi, qovuzini to'shadi, tuvagini qo'ydi, ilikbog'i bilan oyoqchalarini, qo'lbog'i bilan qo'lchalarini mahkam sarib, gavrapo'shini yopdi. Bolachasi oyoqlarini qimirlatgisi keldi, qimirlatolmadi. Qo'lchalarini o'ynatgisi keldi, o'ynatolmadi. Nima bo'lganiga tushunolmasdan qop-qora ko'zchalarini onasiga tikdi, ozorlanib yig'lamoqchi bo'ldi. Shunda qaynona beshikni u yoq-bu yoqqa do'pirlatib tebratib, alla aytmoqqa boshladi. Bolasining boshi chayqaldi, u chayqalishlar lohas qildi, qaynonaning ovozigga qo'shilib charchatdi.

"Beshik bo'lmay o'l" dedi Ra'no, qaynona chiqib ketishi bilan bolasini darhol yechib olib, bag'riga bosarkan. Kelaqol, jonim bolam, qo'lchalariningni, oyoqchalariningni o'ynataqol. O'lsin enang ham, dedi yozg'irib. Seni boylamoqchi bo'ldimi? Seni devlarga boylatmagan, jinlarga boylatmagan, enangga boylatib qo'yarmidim? Ra'no bolasiga o'zi bilgan hamma ertaklariniyu dostonlarini aytib berdi. Uch oylik bola ularni tushunarmidi? Lekin tushunishiga Ra'noning ishonchi komil edi. Ammo sal o'tmay kichkina ko'zchalari yumilib-yumilib, mitti kiprikchalari pirpirab-pirpirab uxlab qolganida suyib-suyib olar va shu suyim oromi aro o'zi ham uxlab qolardi. Ra'no unga Alpomishni aytdi, ammo "Alpomish kim bo'пти sening oldingda?" dedi. Nazarida, bolasi Alpomishdan ham kelbatli va haybatli bir bahodir bo'lib ulg'ayadiganday edi.

Unga Rustami dostonni aytdi, aqlli bo'lsin deya Ravshan dostonni aytdi, kulsin deya yetti ahmoqni aytdi, mehri toshsin deya Gulinigorni aytdi. Layli-Majnunni, Yusuf va Zulayhoni, Yozi bilan Zeboni... neki bilsa, barini aytdi. Faqat bilmagan joylarini o'zidan qo'shib-chatib, to'qib aytdi, shuning uchun dostonlarning mazmuni o'zgardi, ularning barida bolakay bir kuni o'sib-ulg'ayib, haqiqiy bahodirga aylanar, yomonlarning jazosini berar va yaxshilarga ko'maklashar, doston so'nggida esa ota-onasi bilan birga baxtli-saodatli hayot kechirar edi.

O'zining to'y bo'lganlarini ham aytdi.

Men ham bir mahallar senday gul edim, dedi. Kun keldi, bo'y yetib, turmushga chiqdim. Otang bilan bir chiroyli kelin-kuyov bo'ldik, hamma esi og'ib, havaslanib-havaslanib qaradi. Men soy chumchug'i bo'lib, soylarga qarab uchdim, otang tog' kaptari bo'lib ortimdan quvdi. Men tezuchar lochin bo'lib changal solsam, u mergan ovchi bo'lib otib oldi. Men bog'da anor bo'lib qizarib pishib tursam, u bog'bon bo'lib bittalab uzdi. Bog'da uzum bo'lib sarg'ayib yetilsam, sariq ari bo'lib uchib keldi. Men bog'da gulnor bo'lib ochilsam, u bulbuligo'yo bo'lib sayrab shoximga qo'ndi... dedi to'yni eslab.



Hamma-hammasini mana shu murg‘ak go‘dakkinaga aytib berdi. Ariq bo‘yida chopganlariniyu behining mazasigacha aytdi. “Bolajon, bir nimani bilmasang, mendan so‘ragin-a”, dedi. Yaqin orada alpang-talpang yura boshlaysan, shunda jon halpida orqangdan choparman? Sen ko‘p narsani bilmaysan-ku, hovlida o‘ynab yursang, ari chaqib olmasin deya xavotirlanib, quvib ham yurarman?

\* \* \*

Qaynona zorilladi.

– Kelin degan o‘tiravermaydi bolaga qarab. Chiqib ishingizni qilsangiz bo‘lmaydimi? Biz ham bola tuqqanmiz, nechtasini katta qilganmiz, ishimiz o‘lda-jo‘lda qolib ketmagan.

Ra‘no uning ko‘nglini olishga chandon urindi, qaynona sira tinchimadi. O‘tirsang o‘poq, tursa so‘poq deyaverdi.

– Hoy, qo‘ysang-chi, – dedi qaynота.

Qaynona uniyam jerkib tashladi.

Shunda eri oraga kirdi.

– Nima deysan, ona? – dedi jahli chiqib. – Qo‘li olti, oyog‘i yetti bo‘lib xizmatini qilyapti-ku?

– Sigirga suv bermapti, – dedi qaynona. – Shu yoshga kirib onam suv tashisin desang, o‘l sen ham.

– O‘zim tashiyman sigiringga suvni, – dedi er.

– Erkak bo‘lmay qol, endi sigirga qarab yursang, – dedi qaynona. – Erkak degan ko‘chadan rizq tashib keladi, uyda nima bor ekan?

– Unaqa dema, ona, – dedi o‘g‘il. – Jonimni ikki tomonida ikkalang turibsan. Bir qo‘limni tishlasam, boshqasi og‘risa? Axir, tushungin-da, ona. U boshimni ustida bo‘lsa, sen ko‘zimni ustida. Sen norozi bo‘lsang ko‘zim og‘riydi, u xafa bo‘lsa boshim.

Qaynona to‘ng‘illab-to‘ng‘illab nari ketdi.

Shunda Ra‘no er kishining nima uchun ustun ekanini tushunganday bo‘ldi. Erning erligi kelbatida, kuch-quvvatida emas ekan, deb o‘yladi. Erni er qiladigan adolati ekan. Ichida eridan minnatdor bo‘ldi, birdaniga yaxshi ko‘rdi. Undan faxrlandi, bolajonim, boshqalarning otasi sirayam bunaqa emas, xudoyim ikkovimizning boshimizga baxt qushini qo‘ndirdi, deya sevindi. Bola to‘shagi ustida chiroyli ko‘zchalarini unga tikib, bir nimalar deb chug‘urlar edi.

“Qara-ya, qanday otang bor”, dedi sevinib.

Nazarida, eri boshqa qiyofa oldi. Haybati oshdi, uyini to‘ldirdi.

“Sen sabr qiptur, uylarni top-toza qilay”, dedi.

Bola qo‘l-oyoqchalarini o‘ynatib chug‘urlab yotaverdi. Ra’no hammayoqni qaytadan tartibga keltirdi, yangi to‘shaklardan soldi, o‘ziga oro berdi, ko‘rpa qatiga yashirib qo‘ygan atirdan sepdi.

Bir qarasa, o‘g‘lon yangi atlas to‘shaklarga chuvillatib siyib qo‘yipti.

O‘rgilay bolajonimdan-a, dedi mehri tovlanib.

\* \* \*

“Ro‘zg‘or yupun, yeb yotaversangiz tog‘ ham chidamaydi, – dedi qaynona. – Hammaning keliniyu qizi dalaga o‘toqqa chiqadi, yer chopadi, mehnat qiladi. Biz ham shunaqa edik, mehnat o‘ldirmagan odamni”.

“Yegan nonimni minnat qilyaptimi? – dedi og‘rinib Ra’no. – Yarimta non yeymanmi-yo‘qmi? Eshigida bitta xizmatkori bo‘lsayam mendan ko‘ra ko‘proq non yeydi”.

“Jon bolam, sabr qil, – dedi onaizori. – Otang bilmasin, ko‘naqol. Ular ham tuppa-tuzuk odam, hali oldinda qancha tashvishi bor, shunga kuyinadi-da, seni yomon ko‘rarmidi? Joningni jinday koyitsang, bir nima bo‘lib qolmaysan, ko‘naqol, bolam”.

“Xo‘p”, dedi.

Ketmonini ko‘tarib dalaga chiqdi. Qarasa, o‘zi singarilar ko‘p ekan. Hamma boshigayu og‘ziga oq ro‘mol o‘rab olgan. Oyog‘iga etik kiydi, og‘iz-burnini ro‘mol bilan boyladi. Pahlavonini ikki tol orasidagi belanchakka yotqizdi, yaxshilab emizdi. Shu yerdagi barvasta semiz xotinga “bolamga yaxshilab qarang, opajon, oyligim chiqsa, sizga yangi ro‘mol olib beraman”, deya yalindi. Ortiga qaray-qaray, chopiqqa yo‘l oldi.

Dalaning tuprog‘i och kulrang, kesaklari ko‘p ekan. O‘zi o‘rgangan ish emasmi, qiynalmadi. Issiq kuchayaverdi. Dala ustida qaldirg‘ochlar aylana-aylana uchdi. Ancha-muncha xotin shu tariqa chopiq qilar edilar. Quyosh tikkaga kelay deganida ko‘kragi iyidi. Qarasa, ko‘ylagining burmasi sutdan jiqqa ho‘l bo‘libdi.

Ishini tashlab, ortiga yurdi.

O‘sha yerda hisobchi aylanib yurgan ekan. U o‘sha, Ra’no damchi kampirnikiga qatnaganida yomon-yomon qaragan qora yuzli kishi bo‘lib chiqdi.

– Ha, qayoqqa? – dedi, bema’ni iljayib.

– Bolam ochqab ketdi, – dedi Ra’no, qovog‘ini solib.

– Hammaniyam bolasi ochqagan, – dedi hisobchi. – Qani, orqangga qaytib, ishingni qilchi.

– Sen kim bo‘libsan? – dedi Ra‘no, birdaniga burgutday qanot yoyib. – Bolam ochqadi demadimmi senga? Qoch yo‘limdan, yo‘qsa hozir ketmon bilan chopib tashlayman! Hisobchi uning vajohatidan hayiqdi. Tavba, bu xotin jinnimi deya osmonga angrayib, bulutlarni tomosha qilayotganga soldi o‘zini.

Ra‘no chopachopa shiyponga bordi.

Uzoqdanoq, go‘daklarning yig‘isi orasidan bolasining yig‘isini tanidi.

Shiypon tollari ostida u barvasta xotin ko‘rinmaydi. Belanchakka yaqin shoxchalarga qora qushlar qo‘nib, chag‘illab sayrashyapti. Bola qo‘rqibdi. Bolani qarovsiz qoldirsang, mayna kelib ko‘zini cho‘qib oladi degan gap esiga tushdi-yu, “Voy o‘lmasam”, deb yelday uchdi. Shosha-pisha bolasini belanchakdan yechib oldi. Tagini ho‘l qilib qo‘yibdi, oyoqchalari qiyilib ketibdi. Bola onasini tanib, battar yig‘lab talpindi, Ra‘no unga ko‘krak tutdi-da, ichidagi to‘fon kabi chirpirak qilayotgan tashvish, xavotir, yana allanimalarning bari erib yo‘qolgani, yana shu ajoyib oromga erishganidan ko‘ngli to‘lib, piqillab yig‘lab yubordi.

Bola to‘ydi. Ra‘no uni belanchagiga yotqizib, chirillab yig‘layotgan boshqa bolani qo‘liga oldi. Bir qo‘liga unisini, bir qo‘liga bunisini. Ikkoviga ham ko‘krak tutdi.

Ochqagan bolalar begonasirashmadi, miq-miq emib olishdi.

Shu mahal bog‘cha xotin kelib qoldi.

– Voy, Ra‘no qiz, xafa bo‘lma, – dedi. – Qaynonam o‘sal yotuvdi, yugurib borib ko‘rib kelaqolay debman-a, attang!

– Bu bolalar endi seniyan bolang bo‘ldi, – dedi kulib. – Yaxshiyam kelibman, yo‘qsa hamma bolalarni o‘zingniki qilib olarkansan!

Hisobchi yana keldi.

– O‘tiraverasanmi, emizishni bahona qilib? – dedi. – Tur, chopig‘ingni qil!

“Shiyponing ham, chopig‘ing ham boshingda qolsin”, dedi Ra‘no. Tugunini qo‘liga oldi, ketmonini yelkaga, bolasini bag‘riga bosdi.

“Ishing ham, oyliging ham boshingda qolsin”, deya qarg‘adi u hisobchini.

“Bolamga qaramagan ko‘zlaring oqib tushsin”, deya qarg‘adi barvasta bog‘cha xotinni.

“Hammang do‘zaxda kuyib kul bo‘lgin”, deya qarg‘adi bolasini qo‘rqitgan qushlarni.

Shu ketishda uyiga kirib bordi. Ichkariga kirib, to‘yib-to‘yib yig‘ladi. Keyin erining kelishini kutdi. Eri kelsa hamma gapni aytib beraman, meni tushunadi deb intizor bo‘ldi. Tiq etsa tashqariga qaradi.

Er keldi. Aytadigan gaplari juda ko‘p edi. Lekin tiliga kelmadi.

– Ha, qaytib keppopsan? – deb so‘radi eri.

– Bolangiz ochqab ketdi, dala bo‘lmas ekan, – dedi.

– Ochqasa emiz-da, – dedi er.

Tushuntirolmadim deb o‘yladi u, ammo eridan xafa bo‘lmadi. Tushuntirolmagach, nimasidan xafa bo‘ladi? Xudo emaski, hamma narsani bilib tursa? Yo‘rig‘i bilan tushuntirarman dedi, bolasini uxlatib hovliga chiqarkan.

– Ha, qaytib kepsiz? – dedi qaynona, bo‘zarib.

– Mazam bo‘lmadi, – dedi Ra‘no gapirgisi kelmay.

– Bahona qiladi-ya, hamma narsa bitta o‘zimga. Qirqta jonim bormidi, bola emas, tosh tug‘sam bo‘lmasmidi? – deya, qaynona ota yotgan uyga kirib ketdi. U yerda ham bir nimalar der edi, ammo gaplarini tushunib bo‘lmasdi.

\* \* \*

Amakilaru tog‘alar ahyon-ahyondagina yo‘qlab kelishar, ammo qizlik uyiga tez-tez kelishlarini, ota-onasidan uni so‘rab turishlarini bilar edi Ra‘no. Sababi, qiz tomondan har kim hadeb kelaversa, gap-so‘z chiqmasin deyishsa kerak, deb o‘yladi u. Lekin kelinlik xonadoni o‘z yig‘in-marosimlariga albatta ularni ham aytishar, hammalarining izzat-ikromini joyiga qo‘yishar edi.

Ro‘zg‘orning ishlari asta-sekin Ra‘noning qo‘liga o‘ta bordi.

– Erkakning rizqi ko‘chada, – der edi onaizori. – Xotinning ishi uyda. Ostonadan bu yog‘i seniki, bolam. Har narsaga sen javobgarsan. Otang bir mahallar bir gap aytgan edi. Burgutning erkagi ovlashni bilarkan-u, ammo ovini maydalashni bilmas ekan. O‘shanchun ham nar burgut o‘ljani keltirib iniga tashlarkan, modasi esa bo‘laklab, palaponlariga tutarkan. Xudoyim hamma narsani odam ibrat olsin deb yaratib qo‘ygan, qarab o‘zing fikr qilib olaverasan.

– Er kishi doim xotiniga muhtoj bo‘ladi, – dedi yana. – Oilam, bolam-chaqam deb chekkan zahmatlarini bilishingni istaydi. Umr bepoyon, rizqu ro‘zg‘or degan tashvish betinim davom etyapti. Shu urinishlar aro eringga ikki og‘iz yaxshi gap gapirishni ham bilishing kerak. Shu bo‘lmasa, ro‘zg‘oring ikki bo‘lmaydi, shu ishlab dasturxoningga rizq tashib keladi, ustingni butlaydi, uyingni tuzatadi. Mahalla-ko‘yda birov seni so‘rasa, falonchining ayoli deyishadi, o‘z ismingni aytishmaydi-ku? Erga tekkuncha sen otangning soyasida, falonchining qizi eding, endi esa eringni soyasidasan. Mehnatini e’tirof qilsang, u ruhlanadi, oilam, qadrimni hech kim bilmasayam bola-chaqam biladi, deb xursand bo‘ladi. Bularga o‘zingniyam aqling yetib qolgandir, yosh bola emassan-ku? Xotin oqila bo‘lsa, ro‘zg‘or but, beaql bo‘lsa, ro‘zg‘or nobud bo‘ladi.

Shu o'tgan ikki yil ichida ona yanada kichraygan, ozg'inlashib, ushoqdekkina bo'lib qolgan edi. Goho non yopsa, qatlama-somsa pishirsa yo biror meva pishib yetilsa, ko'tarib kelib qolardi. Gohida esa besh-oltita tuxum ham olib kelardi.

– Nima qilardingiz ovora bo'lib?

– Quruq kelmayin dedim-da, qizim. Uy tovug'ining tuxumi bolangga juda foyda. Undan-bundan gaplashib o'tirishardi. Ra'no meva, qatlama, tuxum kabilar bari bahona ekanini, aslida onaizor bolasini sog'inganini bilib turardi. Lekin onaizor buni sezdirmaslikka urinardi.

Bir kuni Ra'no shuni so'rab ko'rdi.

– Voy, ha, sog'inaman-da, ichimdan uzilib tushgan parchamsan-ku, – dedi ona. – Ammo seniyam mehring kuchayib, uyga tez-tez qatnab qolishingdan qo'rqaman. Bir ko'chatni boshqa yerga o'tqazsang, tutib ketishi uchun qancha narsa kerak? Endi seni uying shu, qarindoshlaring ham shular, shu sabab ham ko'pam talpinavermagin deyman-da, – deb javob qildi ona.

– Voy, xo'-o'p, bormayman, – dedi Ra'no, onasidan arazlab.

\* \* \*

Oradan bir hafta chamasi o'tar-o'tmas, qaynota vafot etdi.

Tong sahar edi. Qaynota-qaynona yotadigan uydan “Voydod”, degan faryod chiqdi. Ra'no sakrab turib ketdi. Er uxlab yotar edi. “Ey, turing, bir nima bo'ldi”, dedi sarosima ichida, qattiq shivirlab. Shu mahal takror faryod ovozi erining qulog'iga kirib, sapchib turdi-da, o'sha tomon yugurdi. Ra'no ham uning ortidan oyoqyalang chopdi.

– Voy bola-am, otang ketib qoldi, – deya baqirib yig'lardi qaynona, gandraklab, ustunlarni ushlab-ushlab hovliga chiqib kelarkan. – Otang o'tib qoldi-ku, jon bolam! Er ham, Ra'no ham nima qilarini bilmay dovdirab turar edilar. Ajabki, yig'i kelmas edi. Er uyga kirdiyu o'sha zahoti qaytib chiqdi. Rangi bo'zarib ketgan, nigohi tentirar edi. – Chop, qo'ni-qo'shnini chaqir, – der edi ona. – Odamlarga ayt, otam o'tib qoldi de, bolajonim!

Er onasiga esipastlarga o'xshab qarab turarkan, iyaklari qaltirar edi.

– To'xta! – dedi shunda qaynona, to'satdan ilgari ko'rilmagan bir qat'iyat bilan. Ovozi ham qat'iy chiqdi. – O'zingni bosib ol! Borib qo'shnilarga ayt, odamlarga xabar berishsin. Keyin tezda qayt!

Er otilib ko'chaga chiqib ketdi.

– Yuring, qizim, – dedi qaynona.

Ra’no nima qilarini bilmay, unga ergashdi.

– Hay otasi-ya, – der edi qaynona. – Indamay ketaverdingiz-a? Rozi-rizolik ham so‘ramadingiz-a? Ketaverdingiz-a shunaqa qilib, otasi?

Shunda Ra’no qaynotasining ko‘zi ochiq, iyagi osilib qolganini ko‘rdi. Qaynona qoziqdan oq ro‘molcha olib iyagini tortib bog‘ladi, kafti bilan qovog‘ining ustini silagan edi, ko‘zi yumildi.

– Kelinjon, – dedi yana yig‘lab. – Bir bo‘lak toza oq mato yirtib oling, boshmaldog‘ini ham boylaylik.

Ra’no shunday qildi, ammo yaqinlashishga yuragi dov bermadi. Qaynona mayitning oyoqlarini ham boylayotgani on er-xotin yon qo‘shnilar kirib kelishdi.

– Voy o‘lay, – der edi qo‘shni xotin, talmovsirab. – Voy o‘lay, kechagina yuruvdi-yu?

– Bo‘ldi, xotinlar, chiqinglar, – dedi qo‘shnining eri, yo‘g‘on ovozda. – Mahtal qilmanglar, sarpo-surug‘ini tayyorlayveringlar.

– Malohat, Sabohat, tezda hovli-ko‘chani supuringlar, – dedi qo‘shni xotin qizlariga. Birpasda ancha xalq yig‘ildi, shuncha odam qaydan yetib kelganiga aql bovar qilmas edi. Xotinlar yana yig‘i chiqarishdi, uzatilib ketgan qizlar ham kirib kelishdi, biri o‘zini tashlab yubordi, hovliga oq mato tutilib, erkaklar va xotinlar orasi ayrildi.

– Kelin, eringizga oborib bering, to‘nini, do‘ppisini kiyib, belbog‘ini boylab olsin, – dedi qaynona.

Ra’no ichkari uydan yangi to‘n, do‘ppi, belbog‘ olib chiqdi. Er xotinini ko‘rib, yana ho‘ngrab yig‘lab yubordi, Ra’no: “Bo‘ldi-bo‘ldi, o‘zingizni bosing”, deya qo‘lidagilarni unga kiydirdi, belbog‘ini mahkam bog‘ladi, keyin yana iziga qaytdi.

Qaynona sandiqdan oq surup, yangi banoras to‘n, do‘ppi oldi.

– U yoqqa endi o‘zingiz qaraysiz, qizim, – dedi. – Bularni g‘assolga berishsin. To‘nini, belbog‘ini tobut ustiga yopishsin. Manavinisi kafanligi, mana bu ip o‘rami bilan tikishsin, bu – zamzam suviga botirib olingan ip, farishtalar savob aytib turishadi.

Tong yorishib ulgurmagan payt edi.

Hali Ra’noning boshiga musibat tushmagan edi. To‘satdan ro‘y bergan bu hodisa hammani dovdiratib qo‘ydi. Qaylardadir sokin hayot davom etayotganiga aql bovar qilmasdi. Hayal o‘tmay qarindosh-urug‘lar ham yetib kelishdi, ular ham to‘n kiyib olishgan, eshikdan erkagu ayol baqirib yig‘lab kirib kelar edi. Erkaklar darvoza oldida bir-birini quchoqlashib yig‘lashar, shuncha erkakning yig‘isini ilk bora ko‘rmoqda edi Ra’no. Ayollarning chuvvos solishlari yurakni ezardi. Mana shu ulkan musibat qalbiga kirib bordi-da, o‘zi ham sezmagan holda yig‘lab yubordi. Yig‘i ich-ichidan toshib

kelardi, marsiya kelardi, g'ussa va g'am kelardi.

G'assol ishini tugatgach, janoza e'lon qilindi. Tobut derazadan chiqarilib, hovli sahniga qo'yildi. Erkaklar saf tortishdi. Xotinlarga kimdir "janoza o'qiladi" degach, yig'i-sig'i birin-ketin tindi, ammo kimdir hanuz piqillab yig'lardi. Imom bu dunyoga kelish ham, ketish ham haqligini, qolganlar ketganlarni yod etib turishi shartligini aytib, endi ismi-rasmini bajarib qo'ysak, marhumning o'g'li mana shu, ayting-chi, otangizning qarzlari bo'lsa, zimmangizga oldingizmi, deb so'radi. O'g'il bo'g'iq ovozda "Ha" degach, marhumdan qarzi borlar shu yigitga uchrashsin, eshitganlar eshitmaganlarga xabar bersin deyilib, namoz o'qildi.

– Qani, ko'taringlar, – degan o'ktam ovoz keldi keyin.

Qolgani juda tez ro'y berdi. Kishilar tobutni qo'lma-qo'l ko'tarib olib chiqib keta boshladilar. Hamma qiy-chuv ko'tarib yubordi, Ra'no shu izdihom orasida erini ko'rib qoldi, kimdir uchiga oq latta boylangan hassa tutqazib qo'yibdi.

Bir odam bor edi, yo'q bo'ldi.

Boyagina shu uyda beozor uxlab yotgan edi. Ikki-uch soat o'tar-o'tmas ko'mgani olib ketishdi. Bu ishning juda tez ro'y bergani va shiddati aqlni shoshirardi.

Ra'no ham hamma qatori ko'k kiydi, ro'mol o'radi. Elning odati shu edi, yaqinlardan kimdir olamdan o'tsa, ko'k kiyilar, to'y-marosimlarga borilmas, bir yilgacha ko'kdan chiqilmas edi. Qo'ni-qo'shni osh-ovqat pishirib, paqirlarda chiqarib turishdi, kimlardir choy damlab keldi. Musibatdagi kishilarning tomog'idan ovqat o'tarmidi? Qishloqning shaddod-shaddod xotinlari azadorlarga qattiq-qattiq gapirishib, ovqat yedirishdi.

\* \* \*

Oradan yil o'tdi.

Yozning issiq kuni edi. Er ko'chadan hovliqib kirib keldi-da:

– Odamlarga yer bo'lib beryapti ekan, – dedi o'zida yo'q sevinib. Yuz-ko'zi kular edi.

– Qanaqa yer? – deya so'radi Ra'no, tushunmasdan.

– Chopiqqa chiqqan dalalaring bor-ku, o'shalarni o'lchab, xalqqa tomorqa qilib beryapti ekan. Bizga ham bor ekan.

– Voy, – dedi Ra'no, xursand bo'lib. – Rostdanmi?

Kichkina shu qishloq to's-to'polon bo'lib ketdi. Farzandi ko'p, katta oilalar bor edi.

Xonadonda necha oila borligiga qarab yer berarmish, degan gap chiqdi.

– Ana, – dedi qoniqish bilan eri. – Odam yer bilan tirik-da.

– U yerni birov tortib olib qo'ymasmikin? – deb so'radi Ra'no xavotir olib.

– Yo‘g‘-e, hammaga beryapti-ku? – dedi eri. – Birov bir tiyin so‘ramayapti ham. Ertasiga yerni ko‘rgani bordilar. Qarasa, rostdan ham o‘sha, o‘zi ishlagan joylar. Bepoyon dala chetida tutlar qatorlashib, shabadada shovullab turibdi. Eri qoziq qoqilgan joylarni aylanib chiqdi.

– Suvi yaxshi ekan, – dedi keyin. – Xudoning bergani shu-da. Yer odamni boqadi, u-bu ekib bozorga opchiqib sotsang, o‘h-ho‘, qancha pul bo‘ladi. Kambag‘alni yelkasiga oftob tegdi, desang-chi.

– Mehnatdan odam qocharmidi, – dedi Ra‘no. – Ishqilib, qaytarib olib qo‘ymasa, bas.

– Olib qo‘ymas, – dedi eri ham.

Yer tepasida ancha o‘tirishdi. Eri o‘zicha bir nimalarni rejalashtirib, goh u yoqqa, goh bu yoqqa o‘tib razm solar, tuproqni qo‘liga olib, maydalab ezib ko‘rar edi.

– Uyda, tomorqa adog‘ida teraklar yetilib qolgan, – dedi keyin. – Bu yerga ham aylantirib eksak, besh-olti yilda sinchga yarab qoladi, ham chegara bo‘pturadi. Manavi tomoniga bir uy-bir oshxona qilib imorat solsak, o‘g‘lingga uy ham tayyor-da. Guvalak bilan aylantirib devor urib chiqish kerak. Uch-to‘rt kunda bu yerlar qaynab-toshib ketadi hali, – dedi keyin.

Kech kirganda uyga qaytdilar. Ikkovlon ham xursand edilar.

Odamlar ham xursand edi. Hamma yoqda shu gap-so‘z: kimga qaerdan tomorqa tegdi, suvi qanaqa, tuprog‘i qanaqamish, qo‘shnisi kimmish... Bir-ikki kishi norozi bo‘lib, menga etakdan yo ichkaridan tegdi degan ekan, odamlar malomat qilib tashlashibdi.

“Hoy, yer yo‘q edi, osmondan tushganday ega bo‘lib qolding, xudo deb o‘tirmaysanmi?” desalar, o‘sha zahoti ularning uni o‘chib ketardi.

\* \* \*

Bir ish ikki bo‘ldi. Endi er-xotin ham o‘z uylarida, ham yangi tomorqada mehnat qilar edilar.

Yangi tomorqaning tuprog‘i hosildor chiqdi.

Tepa-quyi qishloqlardan biror insofsiz kelib o‘g‘irlab ketmasin, deya atrofni omonat qo‘ra bilan o‘rab, bug‘doy sochdilar. Tegrasiga aylantirib mosh, loviya, makka va jo‘xori ekishdi. Shoyon mehr bilan qarashdi, Ra‘no suv yo‘liga tushgan kesaklarni qo‘li bilan olib tashladi. Terakning yosh shoxlarini sindirib kelib, kecha suv qo‘yilgan aylana jo‘yakka qatorasiga suqib chiqishdi. Ajab, hammasi bir tekis yam-yashil nozik yaproqcha chiqarib, keyin birdaniga gurkirab o‘sdi.

Davlatbekning mo‘ylovi chiqdi, sabza urdi, o‘tday, quyunday, shamolday bola bo‘ldi.



Qo‘liga xivchin olib, o‘t-o‘lanlarning boshini tanasidan judo qilib o‘tib ketadigan odat chiqardi.

– Unaqa qilmagin, jon bolam, – derdi Ra’no. – Uniyam joni bor, xudo deydi-ya.

– O‘tda jon nima qilsin?

– Uyam mo‘min-musulmon bir narsa, – dedi Ra’no. – Joni bo‘lmasa o‘sarmidi?

Eri o‘g‘lini yoniga olib birga ter to‘kar ekan, zuryodiga hamma narsani birin-ketin tushuntirardi. Ularga qarab turib, otasi bilan ko‘chat qadaganlari, hosil o‘rganlari kelardi Ra’noning esiga.

Mosh mo‘l-ko‘l yetildi. Loviya qo‘zoqlari bo‘liqligidan yorilib-yorilib ketdi. Makkalar uzun-uzun, to‘liq-to‘liq so‘ta soldi. Jo‘xorilarining har biri qovunday-qovunday bosh tugdi.

Hosilga chumchuqlar galasi yopirildi.

Eri qaydandir uzun yaltiroq tasmalar topib keldi. Ekinzor ustiga uzunasiga boyladilar.

Sal shabadada tasmalar quyoshda yiltirasa, qushlar cho‘chib qochar edi.

Er uydagi uzum shoxchalaridan kesib olib, teraklar ostiga qadab chiqdi. O‘zini sal tutib olsa bas, teraklarga chirmashib o‘saveradi, dedi qoniqish bilan. Yanagi yil ular ham bexato tutib ketdi. Husayni, chillaki, qora charos va toshyumaloq degan to‘rt xil nav edi. Uch-to‘rt yilda hosilga kirib qoladi, dedi er.

U yoqlarga oqma gaz bormagan edi. Er-xotin loydan va kesakdan o‘choq qurishdi, loy bilan yaxshilab suvashdi. Shabada g‘irillab esadigan ajoyib yer bo‘ldi-ya, dedi Ra’no. Eski qumg‘onni, qozonni olib kelishdi. Shu yerda ishlashdi, shu yerda choy qaynatib, shu yerda ovqat pishirishdi.

– Bir tandir qurib bersangiz, non ham yopaman, – dedi Ra’no.

Qizchasi talpanglab kesaklar oralab yurdi. Qushlarga angrayib qaradi. Ariq suvini sochib-sochib o‘ynadi. O‘tlar orasidagi kapalaklarni quvdi. Yer arisi chaqib olganida chirillab yig‘ladi. Ra’no u qizchada o‘zining bolaligini ko‘rdi.

Erta kuzda er o‘z hovli-tomorqasidagi teraklarni qo‘ni-qo‘shnilar bilan birgalashib kesdi. Shoxlarini butab-saranjomlab, quritgani bosib qo‘yishdi. Keyin o‘g‘li bilan egik o‘roq olib, po‘stlog‘ini shilishdi. Terakning po‘stlog‘i zaif bo‘ladi, uchidan tortilsa, ancha joygacha ko‘chadi. Po‘stloq nam, suvli edi. Shilib olingan oppoq terak yog‘ochlarini yerga ko‘ndalang tashlangan eski xodalar ustiga quritgani qo‘yishdi. Ostidan havo o‘tib tursa bir tekis quriydi, tob tashlamaydi, dedi er.

Yanagi yili tomorqamizga bir uy-bir dahliz ko‘taramiz, o‘shanda tandir ham qurib beraman, deya va‘da qildi er.

Hosil yetildi. Ra'no hosilni alqab-alqab, maqtab-maqtab o'rdi. Bug'doy boshloqlaridagi donlarni sanab chiqdi. Boshloqlarining bari to'liq, yigirma to'rttadan o'ttiz oltitagacha doni bor ekan.

Kuzda yangi tomorqa top-tozalandi. Kech kuzgi arpa ham o'rib olindi. Er qaytadan tuprog'ini ag'darib chiqdi. Keyin "yaxob beramiz, endi tuproq dam olaqolsin", dedi.

– Yer ham bizdaqa egasi borligiga suyunadi, – dedi er.

Yerning ham joni bor.

U ham maqtashingga ilhaq bo'lib yotadi.

Ko'rdingmi, bo'liq tuprog'i nimaiki qadasang, hammasini gurkiratib- jo'shtirib tashladi.

Yovvoyi o'tlar ham tizza bo'yi o'sdi.

– Ha, ko'rdim, – dedi Ra'no.

– Xursand bo'lsang-chi.

– Nega?

– Xudo rizqni barakasi bilan oshirib-toshirib berganining alomati bu, – dedi er. – Baraka bermasa, shunday bo'larmidi?

– Yo'q, sira bo'lmas edi.

Xalq bir bo'lib, mol-qo'yini ekinzorlarga haydadi. Jonivorlar qolgan-qutgan poyalarni, maysa-o'tlarni yamlab-yamlab yeyishdi. Sigiri to'yib, terak ostida kavsh qaytarib yotdi.

\* \* \*

Bu yerlarda shamollar suron solib esar edilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga...

– Uzoqlarda, tog'lar orasida katta ochiq joy bor, – dedi er. – Shamol o'sha joydan kirib keladi.

Hammayoqni buzib esib o'tadi-da, olisdagi tog'larga borib urilib, o'tolmasdan yana ortiga qaytadi.

Ortiga qaytganida shiddati susayib, o'zi zaiflashib qoladi.

Shunaqa shamollar yiliga besh-olti marta esadi.

Birinchi esadigani – dov-daraxtni, o't-o'lanni, ekin-tikinni uyg'otadigan shamol, dedi u.

Taqir yerni, jonsiz shoxlarni egib-egib, uyg'otadi.

Ikkinchisi – gul-kurtak yozadigan shamol. Uyg'ongan daraxtlarning tanasida suv yuradi. Shoxlarida mayda-mayda kurtaklar bo'rtadi. Shamol o'sha kurtaklarni ochadi.

Uni qaldirg'och shamoli ham deydilar. Chunki qaldirg'ochlar o'sha shamol qanotida uchib kelishadi.

Keyingisi esa gul to‘kadi. U kamida uch marta esadi. Sababi – gilos, o‘rik, olma erta gullaydi. Behi, shaftoli, nok esa kechroq. Shularning barining gulini to‘kib o‘tadi, ana shunda gulkosasiz qolgan kurtak mevaga zo‘r beradi.

Keyingisi – erta mevalarni to‘kadigan shamol. U ikki marta esadi. Shundan keyin shamollar mavsumi kuzgacha to‘xtaydi.

Shu shamol bo‘lmasa, tabiat mana shunday gurkirasdi. Dov-daraxtni changlantiradi, urug‘larini sochadi.

Xudoning ishiga hayron bo‘lmay ilojing yo‘q. Bu shamollar o‘z-o‘zidan esib qoladi deb o‘ylaysanmi?

Dov-daraxt ham juft-juft bo‘lib umr kechiradi. Shularni birontasi changlanmasa, meva solmaydi.

“Shuncha narsani qaydan biladi? – deb o‘yladi Ra’no, hayratlanib.

Meva to‘kuvchi shamol bug‘doylarni egib-qayirib o‘tdi. Bo‘liq-bo‘liq boshoqlar yerlarga egilib, ayqashib ketdi. Ra’no ularga qarab turib, shamolni qarg‘adi.

“Sekinroq essang o‘larmiding”, dedi.

\* \* \*

Er bug‘doyni qoplab bosib qo‘ydi.

“Endi un deb xavotir olmaysan, – dedi kulib. – Chunki bug‘doyimiz bor. Un kerak bo‘lsa, shartta ikkita qopini olamanu tegirmonga oborib, torttirib kelaman”.

“Bizga pul-mul ham kerakmas endi, – dedi. – Tegirmonchi xizmat haqiga uch-to‘rt kilo unni olib qolaveradi. Chiqitini ham olib kelsam, sigiringga yemish bo‘ladi. Yog‘ zarur bo‘lsa, bir qopini olamanu do‘konga oborib, yog‘ga almashtirib kelaman. Yana nima kerak senga, hoy xotin?”

“Hech nima, – dedi Ra’no ham kulib. – Bolalar sog‘-omon, o‘zimiz tinch, bitta mo‘min-musulmonga yana nimayam kerak bo‘lardi?”

\* \* \*

Bahor yomg‘irlari tugab, kunlar qiziy boshlaganida er imorat boshladi.

Katta-katta daryo toshlaridan olib keldilar. Yerni o‘yib, tosh bilan urib-urib shibbaladilar. Sen endi aralashmaysan, bu yog‘i erkaklarning ishi, dedi eri Ra’noga.

Qarindosh-urug‘lar, do‘st-yorlar kelishdi, katta qozonda sho‘rva, osh damlandi.

Qishloqda har kuni hashar edi. Kishilar hayyo-hu ila, hazillasha-hazillasha bir uyning devorini bir kunda urib qo‘yar edilar.

Ra'noning eri poydevor ko'tardi. Tejamli bo'lsin deya, poydevorga tosh qaladilar. Shundan so'ng bultur kesilgan teraklarni olib borib sinch ko'tarishdi. Ra'noning eri ustachilikdan xabardor edi, hammasini bir o'zi tinim bilmay chumoliday ishlab, asta-sekin bitirib oldi. Sinch yoz bo'yi qurib turdi. Bu orada er-xotin loy qorib, guvalak solishdi. Guvalaklar ham yoz jazirasida quridi. Yoz tugagach, el hasharga aytili. Xalq kelib, kechgacha urib-ko'tarib ketdi. Ra'no tevaragida va ichkarisida somonli loy parchalariyu guvalaklar qolib ketgan imoratga qarab, savlatli, ko'rkam uy bo'ldi deb, mamnun bo'ldi.

Er to'qaydan qamish kesib keldi. Tomga terak shoxlarini ko'ndalangiga terib, ustidan o'sha qamishlarni bosishdi. Keyin er somon aralashtirib katta loy qildi, tomga loy ham bosildi.

– Shifir ham qilamizmi? – deb so'radi Ra'no eridan.

– Shifirga pul yo'q-ku? – dedi er.

– Bizni uy ham chiroyli bo'lmasinmi? – deya turib oldi Ra'no.

Er ko'ndi. Nihoyat, kech kuzga borganda tomni yopib oldilar.

– Ana, ish bitdi, – dedi er quvonib.

– Endi taxta polini qoqsak, suvog'ini qilsak, eshik-romini o'rnatib, uy tayyor-da.

Kirib, maza qilib o'tiraverasan.

– Hecham-da, – dedi Ra'no. – Sholcha-palos, to'shak-parda degan narsalar ham bor.

– U yog'i seni ishing, – deya kuldi eri.

Shunda Ra'noning esiga onasining gapi tushdi. Eriga yer ostidan qaradi, u xushfe'l kulib turardi.

Sirayam burgutga o'xshamasdi.

O'zi ham ona burgutga o'xshamasdi.

Bekor gap ekan, dedi. Musichalarga o'xshamaymizmi ko'proq?

Musicha ham xas-xashakdan in quradi, birovga zarari tegmaydi, ku-kulab xas-xashak, don-dun tashib yuraveradi.

Yomoni shundaki, o'sha qora yuzli kishi ulardan bir necha uy naridan tomorqa olgan ekan. Qaytayotganlarida tomorqasida bir nimalarni mo'ljallab yurganini ko'rib, Ra'noning yuragi uvushib ketdi. Baqrayib qarab turganini ko'rib: "Iloyo, betingni Xudo teskari qilsin", deya qarg'ab o'tdi.

Qo'ni-qo'shnilar "Yangi uy qutlug' bo'lsin", deya osh-palov pishirib chiqishdi.

– El baribiram yaxshi-da, – dedi Ra'no, suyunib. – Qarang, birpasda hammayoqda imorat. Odamlarimiz juda insofli-diyonatli-da.

– Hammayam emas, – deb e'tiroz bildirdi er. – Narigi ko'chadagi Ahmadni taniysan-ku?

Kecha mast bo‘lib, qo‘shnilari bilan urishibdi. Yoki tepa mahalladagi Toshmat?  
Odamlarni aldab, pulini olib qaytarmay yuradi.

– Unda, o‘sha Ahmad bilan Toshmat yomon, – dedi Ra‘no. – El esa baribiram yaxshi.

\* \* \*

Ra‘no yana ko‘k kiydi.

Qisqa vaqt ichida ota-onasidan ayrildi.

Har ikkovlon kasal bo‘lmasdan, farishtalarday jon bergani yurakni yanada ezar edi.

O‘lim haq! Har kim ham bir kuni bu olamdan ketadi.

Yana bir haqiqat shuki, ketganlar sizni biz boradigan joyga bizlardan avvalroq borib turadilar.

O‘zingniki yomon bo‘lar ekan. Ra‘no yomon kuydi. O‘zini har tomon urdi. Ota izlari qolgan tuproqlarga o‘zini otib yig‘ladi, u qurgan imoratlarga yuzini bosib yig‘ladi.

“Voy otam, hamma narsalaringiz o‘z joyida turibdi-ku, o‘zingiz qaydasiz?” deb bo‘zladi.

“Uyingizga kirsam, isingiz dimog‘imga urilyapti-ku, jon otam?”

Kasal bo‘lganlarida “Jonim qizim” deya, u yog‘ini ayta olmay yutinganlarigacha xayolida jonlandi.

Aytib-aytib yig‘ladi. Shunday yig‘lasa, yuragining ichidagi tafti bosilganday bo‘ldi.

Qator-qator uy solgan,

Devoriga gul solgan,

Solgan guli bitmasdan

Go‘ristonga yo‘l olgan,

Eksa bitmas maydonim,

Chaqirsam kelmas mehmonim,

Ot ko‘tarmas polvonim,

Uyimdagi sultonim,

Orqamga tushgan oftobim,

Ustimga kiygan kimxobim,

Qishlardagi qishlovim,

Yozlardagi yaylovim,

Otajanim, jon otam,

Otajanim, voy otam...

Etigiga, belbog‘iga, to‘niga yuzini bosib-bosib yig‘ladi Ra’no qiz.

Ha, qizning kuyishi yomon bo‘lar ekan. Qiz o‘z-o‘zini yeb qo‘yar ekan. Jonini ayamas ekan, qushday potirlab o‘zini har yon urar ekan.

Na qaynona yupata oldi uni, na er, na bolasi.

Bittasigayam quloq solmadi. Bolasini bag‘riga mahkam bosib, dardu armonlarini aytib bo‘zlayverdi, bo‘zlayverdi.

“Otajonimning behisi”, deb murojaat qildi behiga. “Nainki o‘zini, balki qo‘llarining iziniyam topolmay qoldim-ku, endi sen ham ko‘zimga o‘tday ko‘rinib ketyapsan”, dedi behining g‘adir-budur tanasini siypalab.

“Indamaygina o‘lib qolaverdi-ya”, der edi kuyinib.

“Hech kimimiz qolmadi-ku, bolam”, der edi qizchasiga.

“Bu yorug‘ olamda senu mengina qoldik, xolos, jonim bolam”.

Bola to‘lpoq qo‘lchalarini o‘ynatib, onasiga tiniq nigohini tikib turaverdi.

“Endi kimga keragimiz bor, bolajon?”

Bobong hayitlarda belbog‘ining qatiga qand-qurs qistirib, seni-meni ko‘rgani kelardi-ku?

Enang har ikki-uch kunda bir “non yopuvdim, qip-qizarib pishdi, ikkitaginasini senga ilindim”, deb potirlab kelaverar edi-ku?

Hayotida biror ro‘shnolik ko‘rmasdan, mana, o‘tdi-ketdi-ku?

O‘zi yemadi-ku? O‘zi ichmadi-ku?..”

Shunda qizchasining yuzlariga ko‘zyoshlari tomar, tomar, tomar... Ra’no “bolajonim, seniyam qiynab qo‘ydim-ku” deb, tomchilarni ro‘molining uchi bilan artib-artib olardi. Hatto eriga ham gapirgisi kelmasdi. Indamasdan yig‘lay-yig‘lay, yumushlarini qilib yuraverardi.

Shunday kunlarning birida yomg‘ir yog‘di.

Yomg‘ir tandir yoniga bosib qo‘yilgan g‘o‘zapoyalarni, makka bog‘larini, sarg‘aygan o‘t-o‘lanlarning barini ho‘llab, maydalab yog‘averdi. Birpasda hammayoq shalabbo bo‘ldi.

Chiroq allaqachon o‘chib qolgan edi. Salqin etni junjiktirar, uy bo‘g‘otlaridan shaffof tomchilar chakillardi.

Ra’no uyga kirdi, sham yoqdi.

– Qo‘y endi, kuyaverma. Bolalaring ham qiynalib ketishdi, – dedi er mehribonlik bilan. Ra’no indamadi.

– Bunaqada o‘zingni bir nima qilib qo‘yasan.

Ra’no yana indamadi.

– Kel, qo‘y endi, – dedi er, ovozida mehri tovlanib, o‘ziga tortib. Shunda ro‘moli sirg‘alib yelkasiga tushdi. Er sochlarini silamoqchi edi, Ra‘no chetlanib, ro‘molini qayta boyladi.

– Nega boylading, turaversin? – dedi er.

– Yo‘q, uyat bo‘ladi, – dedi Ra‘no.

– O‘zimiz xolosmiz-ku?

– Xudo ko‘rib turibdi, – dedi Ra‘no.

Jim qoldilar.

– Ayt-chi, – dedi er ovozi o‘zgarib. – Meni sira yaxshi ko‘rganmiding?

– Voy, nima deyapsiz? – deya hayron boqdi eriga. Bunday xayol aqliga kelganiga ajablandi.

– Rostdan?

Er atay shu savolni berganiga aqli yetib turardi.

– Rostini ayt, – dedi er. – Balki, qiz bolaligingda kimnidir yoqtirgandirsan?

– Nimalar deyapsiz? – dedi Ra‘no eriga ro‘y-rost jahli chiqib qarab. Keyin shartta dedi:

– O‘lsam ham birovga tegmas edim!

Shu gap yetarli edi. Erning yuz-ko‘ziga favqulodda jilmayish indi. “Xudoyimga shukur”, dedi iljayib.

\* \* \*

Kunlar o‘taverdi. Tomorqa teraklari juda tez o‘sdi. Ko‘pchilik imoratini tiklab ham oldi. U yerga qarab turib qachonlardir bepoyon dala bo‘lganiga odamning aqli shoshar edi. Ra‘nolarning imorati ham bitdi.

– Odamlarning baxtiyor bo‘lishi uchun qanchalar oz narsa kerakligini qara-ya, – dedi er.

– Haqiqatan ham, bir parcha yer, ozgina rizq-ro‘z, tinchlik-xotirjamlikdan boshqa yana nimayam kerak bo‘lardi? Xudoga shukur, hammamiz sog‘-salomat, xalq omon, bolalar o‘ynab-kulib katta bo‘lishyapti...

– Ha-ya, – dedi Ra‘no.

– Polvonchanning to‘yiniyam qilolmadik, – dedi er. – Avval menikilar ketishdi, keyin senikilar. Uch yil ko‘kdan chiqmading. Endi elga halollab qo‘ysak, nima deysan?

Topgan-tutganlarini yig‘ib-terib, oz-moz qarz ham olib, polvonni “halolladilar”.

Bo‘y-bastiga munosib kichkina to‘ncha, isi anqib turgan yap-yangi do‘ppi kiydirilib, beliga belbog‘ bog‘lab qo‘yilgan o‘g‘ilcha nimalar ro‘y berayotganiga aqli yetmasdan qo‘lida o‘yinchoqlari va shirinliklari bilan hovlida o‘ynab yurar, hammaning diqqat-

e'tibori to'ybolada, qiz tomon kuyovning ota-onasigayu o'ziga boshdan-oyoq sarpo hadya qilgan, tog'alar kattakon novvosni el ko'zida yetaklab olib kelib, bostirma ustuniga boylashgach, shoxlarigayu tuyoqlariga arqon tashlab, mana shu pildirab yurgan bolakayning kelajakda omon-eson o'sishi uchun qurbonlik o'laroq so'yilib, qoni chetroqda yerga qazilgan chuqurchaga oqizib ham bo'lingan, hozir besh-olti kishi birgalashib terisini shilar edilar. Usta kelganida Ra'no ichkari uyga qochib kirib, quloqlarini berkitib o'tirib oldi, bolasining ozor chekishini o'ylasa, vujudi dir-dir titrar edi.

Tashqaridagi erkaklar qattiq-qattiq gapirishib, kulishardi.

Bir mahal bolasi chirillab yig'laganida Ra'no ham yig'lab yubordi, sira o'zini bosolmas edi. Ammo Xudoning ra'yiga, elning urfiga qanday qarshi borsin? Sal o'tib, bola yig'isi bosilganida, "Ana, endi katta yigit bo'ldi", deya shod-xurram turgan kishilar orasiga kirib borib, cho'mbiri ustiga do'ppi yopib, belbog' tashlab qo'yilgan, ammo o'ziga berilgan o'yinchoqlargayu kichkina pichoqchaga alahsib, qora kipriklarida halqa yoshi titragancha jilmayib yotgan o'g'lini ko'rdiy yengil tortdi. "Xayriyat", dedi. O'g'ilning ham, qizning ham onasini kuydiradigan bir dog'i bor, ishqilib, bolalarimga boshqa dard bermagin, bersang o'zimga beraqol, deb yolvordi.

\* \* \*

Endi Ra'no ota uyiga borganida tomorqa aylanar, ariqcha kichrayib qolgan, tubida ozgina suv oqar edi, xolos.

Qizgina endi ota ekib ketgan behi bilan so'zlashar edi.

"Otamning behisi, o'syapsanmi?"

"O'sish qayda, ona qizim. Bir amallab jon saqlab turibman. Ko'ryapsanmi, madorim quridi. Mayda shoxchalarimning uchlari ham qurib bormoqda".

\* \* \*

O'sha tongda zilzila ro'y berdi.

Zilziladan bir necha soniya avval Ra'no to'satdan uyg'onib ketdi. Shu mahal yer ostidan juda qudratli bir gulduros eshitildi. Hayal o'tmay hammayoq silkindi. Devorlar qarsilladi, bir nima taraqlab tushdi, mollar bo'kirib, itlar angillay ketishdi, Ra'no jon holatida sapchib, kalima qaytara-qaytara, bir qo'liga qizchasi yotgan beshikni, boshqa qo'liga ikkala o'g'ilchasini ko'targancha tashqariga otildi.

Valishlar ham silkinar edi.



Havoda qizg'ish tuman suzar, bunaqa g'alati tumanni sira ko'rmagan edi Ra'no. Yoz kunida bunaqa tuman paydo bo'lishi qo'rqinchli edi, hozir yer yuzi yonib ketsa-ya, deb qo'rqdi.

– Xudoyo, o'zing saqla! Subhonolloh!

Tinmay shu so'zlarni takrorlar edi.

Er ham otilib chiqdi, shu falokat vaqtida haliyam qarsillab chayqalayotgan imoratlariga ola-kula ko'zlarini tikib u bir yon, uch bolasini bag'riga bosib, tili kalimaga kelmay turgan Ra'no bir yon... shu ikki jon, eru xotin.

Saldan keyin zilzila tindi. Odamlarning qichqirig'i, mol-qo'ylarning ma'rashi hanuz eshitilar edi.

– Qanaqa qilib opchiqding bularni? – dedi er hayron bo'lib.

Ra'no o'ziyam bilmadi.

– Bilmasam, – dedi hayron bo'lib.

Haqiqatan ham, kap-katta yigitga qo'shib qizaloqni va beshikni bir vaqtning o'zida uydandan olib chiqish aqlga sig'mas edi.

Ko'cha to'la odam edi. Hamma to'zg'ib, uylaridan tashqariga otilib chiqishgan edi.

– Tinchmisizlar, tuzukmisizlar? – der edi hamma bir-biriga.

– Shukur-shukur, – der edilar qolganlar ham.

Hamma bir-biridan hol so'rar edi.

Qishloq vahimaga to'lib ketgan edi. Kimningdir sigir-qo'yi bostirma tagida qolibdi.

Pastroqda, ayniqsa, shovur kuchli edi. Ko'zi yomon qora kishi bultur qo'shnisi bilan devor talashib urishgan ekan, zilzilada uni o'sha devor bosib qolibdi.

– Tavba, Xudoyim tinchlikning qadrini ko'rsatib qo'ydi-ya, – dedi Ra'no.

\* \* \*

Er televizor olib keldi.

Tomga simini chiqardi, qaerini buragan edi, lipillab turli yurtlarni, turfa kishilarni, urush-janjallarni ko'rsatdi. To'da-to'da baqiroq olomon uylarni yoqar, qichqirib-baqirar edi. Televizor otasini o'ldirgan bolani, o'g'lini urib mayib qilgan otani, noma'lum sababga ko'ra to'da-to'da bo'lib o'zini sohilga urib halok qilgan baliqlar galasini, tasodif tufayli boyib ketgan aqlsiz kishini, onasini yolg'iz tashlab qo'ygan o'g'ilni ko'rsatdi.

– O'chiring shuni, – dedi Ra'no ko'ngli ozorlanib. – Tavba, dunyoda shunaqa odamlar ham borligiga ishinging kelmaydi. Birontasida hayo-insof degan narsa yo'g'-a? Bir-birini itday yalab-yulqaydi, odamlar bor ham demaydi.

O'lsin, nima qilardingiz shuni opkelib?

– Bolalar ko'rishsin, dedim-da.

– Bolalarning betini ochib nima qilasiz? – dedi Ra'no.

\* \* \*

Bu yerlarda shamollar suron solib esaveradilar, kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga...

Erning sochlariga oq tushdi. Gavdasi egildi, yuzi tirishlarga to'ldi. O'zining ham ajinlari ko'paydi. Avvalgi chaqqonliklar qayda endi?

Yumushlar esa esini taniganidan beri o'sha-o'sha: hanuz ariq bo'ylaridan, ekinlar oralaridan o't yulib, sigirga solish, tomorqaga qarash, hovli supurish, xamir qorish, non yopish, taom pishirish... Ammo beli darrov og'rib, charchab yotib olgisi kelar, vujudni quvvat tark etmoqda edi.

O'g'ilni uylar vaqti yuz ko'rsatdi.

Tanish-bilishlar kim orqalidir kimnidir qizini ro'para qilar edilar. Emishki, falonchining qizi sochi supurgiyu qo'li kosov, oyog'i oltiyu qo'li yetti, xullas, juda mehnatkash emish. Har qancha ishlasa ham charchamasmish. O'zi nihoyatda kamsuqum, g'oyatda odobli, gap so'rasangiz gapirmasmish, har ish qo'lidan kelarmish, kelin bo'lib tushgan xonadonini bog'u bo'stonga aylantirib yuborarmish.

Shunday esa-da, Ra'no o'g'lini hech kimga ravo ko'rmas edi.

Yo'qsa, o'g'il kuchga to'ldi, ko'rkam, ajoyib yigit bo'ldi. Ota-bobolardan qolgan odat shu, yigit er yetilgach, uni yo'lga soladigan xotini bo'ladi, deydilar. Ko'cha-ko'yda yuraversayam bo'lmaydi. Tezda boshini ikki qilib qo'ysang, quyuladi, aqli kiradi.

O'g'liga "Seni uylantiramiz" derdiyu ich-ichi bir simillab olardi.

O'g'ilning jilmayib turganini ko'rib, g'ashi ham kelar edi.

– Hah, iljaymay qol, nimaga meni kuydirasan? – der edi. – Hali xotining tarafga og'ib ketarsan ham?

– Menga baribir, xizmatingizni qilsa bo'ldi.

– Unaqa dema, – dedi Ra'no. – Meni xizmatim nimayam bo'lardi? Xotin kishi ro'zg'oringni butlaydi.

– Butlasin-da, – deya jilmaydi o'g'il onasini quchoqlab. – Lekin xizmatingizniyam bajarsin. Qancha mehnatlar qildingiz, qancha qattiq kunlarni ko'rdingiz, qavat-qavat to'shaklarda mazza qilib o'tiring-da endi.

\* \* \*

Yigirma yil avvalgi hodisalar endi Ra'noning ko'z o'ngida takroran ro'y bermoqda edi. Kelin bo'lmishning yaqinlari ko'cha-ko'yda ko'rinib qolishsa, egilibroq salom berishar, quyuqroq hol-ahvol so'rashishardi.

Har ikki xonadonda ham ancha-muncha kishi to'y tadorigi bilan ovora.

Devorlarning to'kilgan suvoqlari qaytadan suvalgan, bo'yalgan, el kelsa malomat qilmasin deya, har taraf sarishtalangan.

Jo'xorilar o'sib yotgan yerlar tozalangan.

Kishilar mahallaning doshqozonlarini aravalarda tashigan.

Kelinning uyiga qo'y, nimta, un-guruch, go'sht-non, sarpo-surug' yuborilgan.

Ra'no o'g'lining bo'y-bastiga qarab turib, uni hanuz qizg'anar edi.

"Aylanay qosh-ko'zingdan, biram kelishgan yigit bo'lding-ki", der edi.

"Eshigimdan kirib kelgan davlatimsan-ku, aylanay", deya suyar edi.

"Yuzimning qiziliyam, tilimning uzuniyam sensan, bolam".

Marosimlar davom etar, to'y ruhi qishloqning ancha-muncha xonadonini egallab olgan edi.

Kichkina bolachalar ham o'ynagani kirib kelishsa, "To'ylar qutlug' bo'lsin, xola", deb ketar edilar.

Bakovul kirib keldi. Katta o'choqlarga o'tin qaladi, ko'k tutun ko'klarga o'rladi.

Bakovul qizarib-qizarib, doshqozonlarning birida to'y sho'rvasi, birida osh pishirdi.

Mahallaning odami kirib keldi, hovli izdihomga to'ldi. Yosh bolalar ham makkasi o'rib olinib tozalangan yerga o'tirib olib, "mazza bo'pti" deb sho'rva ichar edilar.

Qariyalarga ichkariga joy qilingan edi. Osh suzildi. Odamlar yeb-ichishib, kelin-kuyovga Xudo baxtu saodat bersin deya, fotiha qilib ketishdi.

Kelgan-ketgan ko'p edi. Hammasining dasturxoniga bir-ikki siqim qand-qurs, non-qatlama, parcha mato qo'yish kerak edi.

Hovli yana ikkiga ayrildi. Xotinlar taraf uzun oq surp bilan to'sib qo'yildi. Erkaklar darvozaxonada to'plangan edilar. Xotinlar taraf qushlar sayragani kabi qiy-chuvga to'la, hammasi bab-baravar gapirayotganday tasavvur uyg'otardi.

Yosh-yalanglar to'yxonani tayyorlab bo'lishgan, uch-to'rttasi tok zangiga katta qora qutilarini ham osishgan, qo'shiqchilar tayyor, nariroqda karnay-surnaychi ham jamuljam... Ra'no mana shu to's-to'polon ichida pildirab yurardi.

– Kuyovnavkarlar tayyormi?

– Tayyor, tayyor.

Bir mahal kelin-kuyovga ajratilgan uydan banoras to‘ni xush qaddiga chunon yarashgan o‘g‘li chiqib keldi. Qop-qora sochlari do‘ppi ostidan toshib chiqib turar, qora qoshlari qalin, baland bo‘yli, ko‘rkam yigit bo‘lgan edi.

Ra‘no istamasa ham qaroqlariga yosh keldi. “Voy o‘lay, to‘y bo‘lyapti-yu, yig‘lagim kelishini qara-ya, uyat-a”, dedi.

“Bo‘y-bastingdan aylanay, bolam, deb, bag‘ringa bosay desam, bo‘yingga bo‘yim yetmaydi-ya, onang cho‘ring bo‘lgur!”

Qarindosh-urug‘lar, tanish-notanishlar ham kuyovning yelkasidan olib, yuzlariga fotiha tortar edilar. Hamma havas ila kuyovbolaga qarashardi.

“Hu, ko‘zing o‘zingga tekkur”, dedi Ra‘no ichida, kelganlarning orasida birontasining ko‘zi bor bo‘lsa-ya, deb xavotirlanib.

Ha, Davlatbek kuyovlarning sarvari bo‘lgan edi.

Kuyovnavkarlar jo‘nab ketishdi.

– G‘o‘zapoya opchiqmaysizlarmi? – deb so‘radi Ra‘no.

– Yo‘q, xola, endi g‘o‘zapoya yoqilmaydi, – dedi yigitlardan biri.

– Voy, kelin-kuyov olov atrofida aylanmaydimi?

– U marosim bekor bo‘lgan, – dedi yigit.

Ra‘no u ishni joiz emasligini bilsa-da, kelin-kuyovga zarar-ziyon tegmasin deya, baribiram o‘t atrofida aylanishlarini istar edi.

Yarim soatcha vaqt o‘tgach, kuyovnavkarlarning qiyqirig‘i, childirma do‘p-do‘pi eshitildi.

Kelin keldi!

Kuyovlarning sarvari Davlatbek kelinni yetaklab davraga olib kirdi.

Ra‘no ana shunda o‘zini tutolmay, tevaragidagilardan ham uyalmay, ro‘y-rost yig‘lab yubordi.

– Hoy, tuzukroq ko‘ylagingizni kiyib olmaysizmi? – dedi kimdir.

Ra‘no o‘g‘lidan ko‘zini uzgisi, boshqa ko‘ylak kiygani uyga kirgisi kelmay, ko‘zidan yoshi oqib qarab turardi. Yor-yor sadolari ostida bolajoni davra to‘riga o‘tib o‘tirdi.

O‘rtakash bir nimalar deb javray boshladi, ammo gaplari Ra‘noning qulog‘iga sira kirmas edi.

\* \* \*

Oradan yil o‘tar-o‘tmas, qizni ham chiqardilar.

Qizalog‘i otasiga tortgan, cho‘zinchoq oq yuzli, qoshlari payvasta, oyday bo‘lib turar edi.

Kelinni olib chiqib ketar mahali otani chorladilar.

Yana o'sha, eski yor-yorlar aytilar edi.

Valishlar ostida, qizaloqning qancha sho'x-shodon kunlari o'tgan shu qadrdon hovlining tuprog'iga, ota oyog'i ostiga yangi palos to'shaldi. Xolalar qizni ikki qo'ltig'idan ushlab, ota poyiga olib kelishdi. Qiz ikki bukilib, "Otajon" deya ta'zim qila-qila keldi. Xotin-xalaj, bola-baqra qiy-chuvi ostida padar oyog'iga bosh urdi, bu bosh urishda "Necha yillar suv kelsa simirib, tosh kelsa yemirib o'stirib katta qildingiz, endi mendan rozi bo'ling", degan nido ham bor edi. Shunda hayotning pastu balandini ko'raverib diydasi anchayin qotib ketgan shu kishining ko'zlaridan ham tirqirab yosh chiqib, yuzlariga oqdi, atrofida gilardan hech tortinmay, baralla ho'ngrab yubordi.

Qizning qalbida ham, otaning yuragida ham aytilmagan qancha gaplar bor edi-ya!

Bu yig'ining ma'nosi shunday edi:

"Dunyo dunda yakka bir o'zim edim, Xudoyim farishtaday bir qizaloqni – seni hadya qilib yubordi. Uyimda o'ynab, chopqillab yurishlaring hayotimni nurga to'ldirdi. Charchab kelsam, kichkina qo'lchalaring bilan oyoqlarimni, yelkalarimni uqalading, choylar damlab kelding... Otang qurboning bo'lsin, bolam, uyimda mehmonim edingmi? Shuncha yil asrab-avaylab katta qildim, bag'rimdan sira chiqargim kelmaydi, ammo naylayin?"

Qizning aytar gaplarini esa hech kim bilmadi. Qiz ichidagi gaplarini o'zi bilan olib ketaverdi.

Kelinni olib chiqdilar.

Qiy-chuv bilan xotinlar ham jo'nashdi. Hovli huvullab qoldi. Otaning bir-ikki do'st-yori bor ekan, shular jonga ora kirishdi, u yoq-bu yoqdan gapirib, chalg'itib o'tirishdi.

To'yxona esa charog'on, hamma shod, bir gapirib o'n kular edilar.

Kuyovlik sarpolari o'ziga yarashgan kuyov davra to'rida qo'r to'kib o'tirar edi.

Ra'noning yuragi iyidi.

"Kuyovjon", degisi keldi.

"Kiprigimning ustida, qarog'imning ostida katta qilgan qizimni o'zim opkelib qo'lingizga topshiryapman.

Iloji bo'lsa edi, bag'rimdan chiqararmidim?

Jonimni ipini qo'lingizga berib qo'yyapman, jon bolam.

Qoshingizda pildirab yurishlarimdan, sizga muhtar-muhtar, yalinib-yalinib qarashlarimdan sezmayapsizmi?

Jonimning shu bitta parchasi endi sizga boylangan. Siz kulsangiz, ichim yorishadi, qovoq uysangiz, dunyo qorong'i bo'ladi.

Iltilmos, shuncha yil qoshu qarog‘imda olib yurib, avaylab katta qilgan bolamga ozor bermang, cho‘ringiz bo‘lay!”

Bu gaplardan kuyovning xabari bormidi? Bilish qiyin. Kuyovnavkarlar qatorida qo‘r to‘kib, Alpomishday bo‘lib jilmayib turar edi.

O‘zining izzatini ham, qadru qiymatini ham bilib turar edi.

\* \* \*

Shu tariqa ketma-ket to‘ylar bo‘ldi. Go‘yo bola-chaqa tashvishidan qutildilar.

Shamollar hanuz avvalgidek esar edilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga...

Kelganu ketgan: “Ana, o‘g‘ilni uylantirib, qizniyam chiqarib oldingiz, katta tashvishdan qutildingiz”, deb havaslanishar edi.

Ammo bola-chaqasini uylab-joylagan odam ham sira tinchimas ekan.

Uyida ishlariga urinib yuradi-yu, ammo ko‘nglining bir cheti narigi mahalladagi qizida, nima qilyapti ekan, tuzukmikin, deya. Yana bir cheti bu qizida. O‘g‘li sal hayallasa, pitirlab joyida o‘tirolmay qoladi. Bolalari katta bo‘lgach, odam bolasining ko‘ngli yarimta bo‘lib qolar ekan, degan xulosaga keldi u. Yarimta nimasi, parchalarga bo‘linib ketar ekansan. Bir parchang o‘g‘lingga, bir parchang qizingga tortib turaverar ekan. Onaizorining gapi ham esiga keldi. Bir mahallar “Ichimdan uzilib tushgan parchamsan-ku”, deb yoyilib kulimsiraganlari ko‘z oldida jonlandi. Oddiygina u gapning shunaqa cho‘ng ma‘nosi bor ekan-da, dedi hayratlanib.

Tavba, taqdir degan ko‘zga ko‘rinmas bir charxpalak, sekin-asta aylanmoqda.

Kelin hovlida yumushlarini bajarib yuripti. Bir nima dey desa, lop etib ko‘z oldiga o‘z qizi keladi.

Kelinchak hali juda yosh, goh tortinib, goh dovdirab o‘zicha yumushlarga urinib yuribdi, mana, hozirgina tovuqlarga jo‘xori donidan sepdi... bir nima dey desa, u yoqda qaynonasi qiziga xuddi shu gaplarni aytishidan cho‘chiydi.

O‘g‘li kelib qoshida biroz o‘tiradi, keyin uyiga kirib ketadi.

Odam xotiniga, bolasiga bog‘lanib qolar ekan-da, deb o‘ylaydi. Ajabo, eri ham shunaqamidi? Rahmatli qaynonasi ham shunaqa deb o‘ylaganmidi?

Shular xayolidan o‘ta-o‘ta, bir kuni eriga:

– Otamiz-onamizga bir jonliq so‘yib is chiqarsak, tushimga kirishibdi, – dedi.

Er mamnun bo‘ldi.

Lekin bu ishlarning barini bitta yaxlit hikmati bor edi.

Bu yorug‘ dunyoda neki qilsang, o‘zingga qaytar ekan: yaxshilik ham, yomonlik ham.

Hatto gapirgan gaping ham bir aylanib o‘zingga qaytib kelib turar ekan. Birovga “Falonchi nega bunaqa-ya”, deb gapirib ham bo‘lmas ekan, chunki kun kelib o‘shaning ahvoliga o‘zing tushar ekansan. Ha, dunyoi dunni bejiz charxpalak, demas ekanlar. Charxpalak deganlari ohista aylanib, ariqlarga suv quyadi, dunyoi dun charxpalagi esa o‘z qilmishlarini o‘zingga qaytarib quyay ekan...

\* \* \*

Ba‘zan o‘ylab ham qolardiki, shuncha yil yashabdi, birovga sira yomonlik qilmabdi. Ajablanarlisi shundaki, o‘ziga ham birovdan yomonlik yetmabdi. Yomonliklarning ko‘pi so‘z tufayli bo‘lishiga ham aqli yetdi. Ha, birov birovning molini o‘g‘irlashi yoki haqini yeb ketishi har doim ham ro‘y beravermaydi, ammo har kuni sonsiz-sanoqsiz so‘zlar aytamiz, kimlarnidir gapiramiz, kimlarnidir yomonlaymiz, mana shu so‘zlarning bari egasiga yetsa ozorlanishi, ranjitishi va gunohga aylanishi turgan gap.

Ra‘no kampirning o‘ylari ko‘p edi. Birining ortidan boshqasi chuvalashib kelaverar edi. Teng-to‘shlarining, yaqinlarining ko‘pi qishloqning tepa tarafidagi jimjit makonga ko‘chib ketishdi. Buva-buvi, ota-ona, qaynota-qaynona kulgilari, gap-so‘zlari olamni charog‘on qilib yurgan yana allaqancha kishilar o‘sha yoqqa abadiyan jo‘nadilar. Ajabki, yuragining bir cheti o‘sha tomonga ham tortib turardi.

Butun o‘tgan umriga razm solsa, bir qushdan ortiq bo‘lmapti. O‘zi ko‘rgan qushlarning bari in qurib palapon ochishardi. Ra‘no ham bir in quribdi, palapon ochibdi, rizq tashibdi...

Bu orada Davlat katta kishi bo‘ldi. Yurganida yer zirilladi, gapirganida osmon. Uyga to‘rtburchak katta bir nima ko‘tarib keldi, uni devorga osib, bir yeriga bosgan edi, g‘irillab salqin havo chiqara boshladi.

– Mana, ona, maza qilasan, – dedi Davlat. – Endi yoz issiqlarida, qishni sovuqlarida qiynalmaysan.

– Bunaqa narsalaringni o‘zing ishlataqol, – dedi. – Menga qishga bitta sandal qurib bersang kifoya.

– Sandal ham qurib beraman, – dedi Davlat. – Rosa mehnatni qilding, endi oyog‘ingni uzatib, biroz orom olsang-chi?

Shuncha yil zahmat chekding, sira biring ikki bo‘lmadi, bor topgan-tutganingni bolamga deb ilinding.

Nima uchun shuncha urinib-tirishib mehnat qilsang ham butun umr bo‘yi topganing shu bir uyu bir dahliz imorat bo‘ldi, nega shunday deb o‘ylab ham ko‘rmading.

Hayot shu ekan-da, deding, ko'nding-chidading.

Qo'llaringni qadog'i haliyam ketmabdi-ku, ona?

Dunyo rang-barang, qaylardadir kishilar yetti uxlab tushingga kirmagan rohatu huzurlar ichida yashab yurishibdi, ularni bilmading ham, ko'rmading ham.

Endi, kel, dunyoni ko'rsatay desam, otang bilan birgalashib qurgan shu uyimdan ketmayman deb bolalarcha tixirlik qilasan. Uyimda nevaralarimni xotirjamgina o'ynatib o'tirsam, sen ishingdan kechga qolmasdan vaqtida kelsang, singling tumov-puchqoq bo'lmasdan uyida tinch bo'lsa bas, deysan.

Haliyam non uvoqlarini terasan, hamma narsani tejaysan. Haliyam bir parcha bo'sh yer qolsa, teshachani olib, inqillab-sinqillab o'sha joyga bir tup rayhon yo bitta chechak qadab qo'yanan.

Nevaralaringga bir boqsang-chi. Sen yaxshi ko'rgan yerimizdan Xudo baraka berib jo'shtirib yuborgan rizq singari, bular ham shunaqa jo'shib-to'lqinlanib yetilib kelmoqdalar.

Olam o'zgarib ketgan desam, qiziqmaysan ham. Ha, ishqilib tinchlik bo'lsin, deb qo'yanan.

Keyingi paytlar "qatorimizdan xato bo'lmasin", deb duo qilar bo'lding.

Bolaligimdan bilaman-ku, avvallari qiziqqaning turli-tuman ko'ylaklar edi. Goho hayitlarda "bolam, ko'ylagim eskirib qoldi, meni bozorga olib borib, yangi ko'ylak olib bersang", der eding.

Shuniyam aytmay qo'yding...

Lekin qo'shnining bolalaridan birontasi kasal bo'pqolsa, darrov bir nima pishirasanda, dasturxonga o'rab, o'shani ko'rib kelasan. Birov to'y qilsa, kelingdan bir parcha mato so'rab olasan, otamning ko'ylagini boshingga yopinib, pildirab o'sha to'yga ham borib kelasan.

Ona, o'g'ling kuch-quvvatga to'ldi. Dunyoda odamni aqli bovar qilmaydigan yurtlar, mamlakatlar bor. Ko'rsang, esing og'adigan mo'jizalar bor. Yuraqol, onajon, desam, xuddi kichkinaligimda bir nimani bilmasdan so'raganimdagi kabi bag'rikenglik bilan jilmayasan, o'zimni yana o'sha mahaldagi kabi nimalarnidir bilmas his qilaman. "Qo'y, bolam, menga shu el kifoya, dunyongni nimayam qilardim", deysan.

Bir kuni qattiqroq turib oldim, o'shandayam ko'nmading.

"Ortiqcha puling bo'lsa, ro'zg'oringdan ortsa, ana, singlingga qarash", deding.

Begona bir xonadonga uzatilib ketganida, singil akaga mo'ltirab qoladi, deding.

Singilni akaga doim ichi achiydi, joni kuyadi, har yerga borsa "Akam undoq, akam mundoq", deb maqtanadi.



Bo'y-bastingni ko'rsa, xursand bo'lib ketaveradi, mabodo uyiga yo'qlab borsang, o'sha tevarakdagilarni oldida ko'ksi tog'day bo'ladi, gerdayib-gerdayib yuradi.

Ko'zining yoshi birpasda duvullab oqib ham ketaveradi, "Otamning o'rniga otam keldiya" deb, suyunib ham oladi.

Sening kelganingdan shodlanib, "Akam yaxshi ko'radi" deb, qo'llari kuya-kuya qumg'onda choy damlaydi.

O'zida yo'q bo'lsa, "Akam keldi!" deb, qo'shnidan qaymoq olib chiqib oldingga qo'yadi.

Erining oldida tili uzun bo'ladi. "Menday g'aribniyam yo'qlab kelar odamim bor", deb suyunadi.

Nima desang ham og'zingga mo'ltirab qarab turadi.

Singil rayhonday bo'ladi, jambilday bo'ladi...

Bolam, deding yana, ota urug'ingdan xabar ol, ona urug'ingdan xabar ol.

Tog'alaring qoni senda oqadi. Ona urug'ing qayishadi, seni bir tomiring og'risa, uning yetti tomiri og'riydi. Bilib qo'y, tog'ayu xola onaday mehribon bo'ladi.

Amakilaringdan xabar ol. Ota urug' sir-haybat saqlab turadi. Ota urug'da otangning qoni oqadi. Otangday vazmin, haybatli bo'lib turadi. Senga bir gap bo'lsa, tegrangni tog'larday qurshab olishadi.

Sen kichkinaligingda ular kuch-quvvatga to'lib, ko'cha-ko'ylarni to'ldirib yurgan kishilar edilar. Sen quvvatga to'lganingda ular zaiflashdilar. Eshigidan kirib borsang, ularning ko'ngli ham tog'day bo'ladi.

Ota urug'ing xotini tarafga, ona urug'ing eri tarafga maqtanadi, ko'rdingmi, qarindoshim keldi, deya.

Bolajon, sen juda aqlli bo'lib ulg'ayding, sening quvvatli aqling yetgan juda ko'p narsalarga mening aqlim yetmaydi. Ammo shuncha yil yashab, bilganim: shu kelbating, farosating, zehning bilan ham ota urug'ingni, ham ona urug'ingni birlashtir.

Birlashmasang bo'lmaydi, bolam, hayot og'ir, murakkab, qiyin, shu olatasir ichida bir-biringga ikki og'iz yaxshi gap aytishing shart. Hammaniyam rizqi yetib turibdi, hech kim sening rizqingga zor emas. Ammo odamlar ikki og'iz mehr so'ziga judayam zor...

\* \* \*

Yillar o'taverdi.

Qiziq, umr goh shitob bilan o'tayotganday, goh esa asta-sekin oqayotganday tuyuladi. Otaning behisi tamomila qartaydi.

Tomorqa oralab o'tgan ariqcha ko'milayozdi. Chunki tepada kimdir suvni berkitdi. Ariqcha qirg'og'idagi o'tlar avvalgiday bo'liq o'smay qo'ydilar.

Bu suv qishloqning tepasidan, tog'lar bag'ridan keladi, derdi. Tusi oqish, toshdan toshga urilib, har xil ma'danlarni eritib juda xushta'm bo'lib kelardi. Kelmay qo'ydi-ya...

Otam o'shanda nima uchun behi ektirganini endi anglagandayman, deb o'yladi u. Behi uzoq yashar ekan. Nok, yong'oq, o'rik ham. Qolganlarining umri qisqa ekan-da.

Qizalog'im umri bo'yi shu mevadan totib yursin, degan ekan.

Lekin bolalarimga shuni uqtirolmay jonim halak.

Hoy, uying bug'doyga to'lgur, ko'chat qadab qo'y. Qush yesayam, qurt yesayam savob. O'ynab yurgan kichkina bolachalar yesa, yana savob.

Sendan osh-non so'rarmidi? Bir-ikki yil tagiga suv quyib tursang, bas. Ildizi namga yetib olgach, o'zi o'sib, meva solaveradi-ku? Yig'ib-terib olishga erinsang, mevasi seni kutib qanchadir vaqt shoxida turadi, keyin uzilib yerga ham tushadi.

Xudoyim butun olamni bahor payti odamning aqli yetmaydigan tur, is, shaklu qiyofada anvoyi chechaklar bilan bezashini ko'rmayapsanmi? Kuzda hammasini xasga aylantirib yuborishidan aqling shoshmayaptimi? O'sha go'zalliklarning barini xazonga aylantirib, loy-tuproqqa qorishtirib tashlayotganidan hayiqmayapsanmi?

Ra'no kampirning tobi qochdi.

Qiziq, bir sabab yo'q, bir joyi og'rimaydi, shu yoshga kirib bir marta kasal bo'lmagan odam, endi madorsizlanib, vujudidan kuch-quvvati ketib yotib qoldi.

Shuncha zahmatlarni ko'rgan ko'zlari endi yumuq, barmoqlari, iyagi holsiz titraydi, ajin bosgan yuzida, peshanasida ter ko'rinadi... keng-mo'l o'rinda bir tutamgina bo'lib yotadi.

Goh xayollari orasiga kirib ketib, o'zini bir mahallar ariq bo'yida kapalaklarni quvib yurganini ko'radi. Qizig'i shundaki, u kapalaklar ham o'sha kezlardagi kabi, Ra'no bilan gaplashadi.

– Yur, o'ynaymiz, – deya hilpirab uchishadi kapalaklar.

Qushlar hanuz tumshug'ida bir nimalar ko'tarib inlariga shoshishadi. Hanuz u inlardan palaponlar chiyillab, boshchalarini chiqarib qarab turishadi.

– Hoy, ko'zingni och, – deydi kimdir, erining tovushi bilan.

Ra'no o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ladi, ko'zini arang ochib, erini ko'radi. Erning qaroqlari nam.

– Meni qo'rqitmasang-chi, – deydi iyagi qaltirab.

– Ha, keldingizmi?

- Kelish nimasi, boshingdan qimirlamay o‘tiribman-ku?
- Otasi... ketib qolmasmikinman?
- Har nimani gapiraveradimi odam degan? – deb zarda qilmoqchi bo‘ladi er, ammo ovozdida shiddat yo‘q, qaltirab chiqadi. – Ko‘zingni ochsang-chi.
- Ozgina orom olay, – deydi Ra‘no kampir, yalinchoq ovozdada. – Salgina xolos, keyin turaman, otasi. Faqat...
- Gapiraqol.
- Faqat... “roziman” deb qo‘ying, otasi...
- Roziman, – deydi shunda ota, ko‘zining yoshlari duv etib oqib. – Mingdan-ming roziman, onasi. Xudoyim senday ayolni menga omonat qilib beribdi-yu, rozi bo‘lmasmidim?
- Shukur... – deya pichirlaydi Ra‘no va birdaniga tirish ajinlari yoyilib, kulimsiraydi.

\* \* \*

Kulimsiragan mahali u o‘zini yana ulkan daraxtlar, shodon ariqcha, gapiradigan gulchechaklar orasida ko‘radi.

– Ha, ariqcha, oqyapsanmi?

– Oqqanda qandoq? Shunaqangi to‘lib-toshib oqyapman-ki!

Sal narida bepoyon bir daraxtzor shovullab chayqaladi.

Oy havolab nur sochirmish. Ra‘no o‘sha daraxtzorning boshlanish joyida, oy yorug‘i chang kabi yog‘dulangan ingichka so‘qmoq boshida turganmish.

“Bu qanaqa daraxtzor bo‘ldi, ilgari sira ko‘rmagan ekanman-a”, deb o‘ylarmish hayratlanib.

Ajabki, o‘zi qizaloqligidagi kabi kuch-quvvatga to‘lgan, chaqqon emish.

Tevarakda hech kim yo‘qligi ham hayratga solarmish.

“Qo‘shni bolaning mazasi yo‘g‘iydi-ya”, – deb xayoliga kelarmish. – Shuni bir ko‘rib chiqmadim-a, attang”.

Eri ham xayoliga kelarmish.

“Yana ancha-muncha ishlar bor, otasi, – dermish xayolan eriga, eshitib turganiga aniq ishonib. – Naylayin, qismat ekan, men endi shu yoqlarga kelib qoldim. Siz shoshmay turaqoling, hammasini bitirib, keyinroq kelarsiz”.

Shu so‘qmoqdan yursa, ortiga qayta olmasligini ham bilarmishu so‘qmoq qayga olib borar ekan deb, qiziqar ham emish.

Lekin o'sha tomonga borishiyam shartmish.

So'qmoqqa qadam bosaman degan joyida, shundoqqina yo'l chetida turgan Chimchilovchi G'alati Maxluqni ko'rib qoldi.

– Voy, – dermish sevinib. – Bu yoqlarda nima qilib yuribsan? Esingdami, bolaligimda meni qo'rqitganlaring?

Chimchilovchi G'alati Maxluqning ko'zlari ma'yus emish.

– Nimaga indamaysan? – dermish Ra'no.

Shunda:

– Alvido, – debdi Chimchilovchi G'alati Maxluq ma'yus, qaygadir boshqa tomonlarga qarab.

U qaragan tomonlarda oppoq bulutlar suzar emish.

– Nimaga unaqa deyapsan? – deb so'rabdi Ra'no.

Chimchilovchi G'alati Maxluq javob bermasmish.

Shundan keyin Ra'no o'sha so'qmoqdan ilgarilab boraverdi. Yuziga shamollar urildi.

– Siz ham shu yerda ekansiz-da, – dedi u yana suyunib. – Esingizdami, sochlarimdan yulqilar edingiz? Sochlarim qop-qora, uzun edi-da... Sadolanishlaringizni bosaman deb qancha qichqirsam ham ovozim g'uvullashlaringizni bosib ketolmasdi. Mevalarni duvullatib to'kib o'tardingiz, osmonda qat-qat bulutlarni to'dalashtirib haydab kelardingiz. U bulutlar yomg'irlarni yog'dirar edi, o'sha yomg'irlar ostida chunon qichqirib o'ynar edim-ki...

– Alvido... – deyishdi shamollar, ortga qarab esarkan.

Ra'no yanada hayratga cho'mib, so'qmoqda ilgarilashda davom etarmish.

Butalar ostida kichkina malla tulki ham turgan ekan.

– Voy o'lgur, sen ham shu yerdamiding? – dedi Ra'no unga.

– Xudoyimga shukur, hammangiz shu yerda ekansiz-ku, – dedi minnatdor bo'lib. – Hozir shunaqangi ajoyib baxtu saodatni sezyapman-ki! Kelinglar, hammamiz birgalashib o'ynaymiz.

– Alvido, – debdi tulki ham, ma'yus ko'zchalarini pirpiratib.

Ularning ma'yus turishlaridan ajablangan Ra'no yana yo'lida davom etgan edi, saldan keyin ingichka, tevaragi gulu chechaklar bilan bezalgan, bir uchi bulutlar orasiga kirib ketgan havoyi so'qmoq oldidan chiqib qoldi.

So'qmoqning tegrasida o'sgan chechaklarga egilib, ularning o'zi bir mahallar o'tqazgan oqu qora rayhonlar va chinnigullar ekanini ko'rdi.

Bu yerda ham pechaklar, kurmaklar, ajriqlar bor ekan, ular yo'l ustini qoplab, yam-yashil gilamcha hosil qilishibdi.

– Voy-bo‘y, – dedi u so‘qmoq uchiga qarab. O‘sha yerda ulkan bir daraxt ko‘rinar, ostida o‘ynab o‘tirgan kichkina qizchalar ko‘zga tashlanarmish.

– U To‘bi daraxti, – deyisharmish chechaklar. Uzoq-uzoqlarda, yanayam yuksakda juda ulkan bir nima ko‘zni olguday bo‘lib yaraqlab tovlanarmish.

So‘qmoq ustidan qushlar uchib o‘ta boshlashdi. Ra‘no ularning ham o‘sha, o‘zi tanigan qushlar ekanini ko‘rdi.

– Qayoqqa ketyapsizlar? – deb so‘radi u qushlardan.

– Bilmadik, yuksaklardan juda qudratli bir sado keldi, – deyishdi qushlar. – O‘z-o‘zimizdan to‘planib, o‘sha sadoga javoban chag‘illay boshladik. U tepayu pastdan, chapu o‘ngdan, ich-ichimizdan bab-baravar keldi. Na yemishga, na palaponlarga qaradik. Don-dunlar, ucholmay qolgan palaponlar yer betida shundoq qolib ketaverdi, to‘lqin-to‘lqin kelayotgan o‘sha quvvatga istasak-istamasak bo‘ysundik. Shu uchishda tog‘laru cho‘llar, daryoyu dengizlar uzra uchamiz, toki o‘sha sado “Yetar, bas” demaguncha.

– Palaponlar? Voy o‘lay, meniyam palaponlarim bor edi-ku?

– Vaqt-soati yetganida ular ham ortingdan kelishadi, – deyishdi qushlar. – Ular boradigan joyga sen sal avvalroq borib turaqol. Zotan, umr bo‘yi shunday qilmadingmi? Bo‘laqol, o‘sha yerga yetib olsak, hammamiz birgalashib o‘ynaymiz.

– Xo‘p, – dedi Ra‘no, ularga ishonib.

“Haqiqatan ham, endi qo‘limdan nimayam kelardi”, deb o‘yladi.

“Umr bo‘yi erimning, bolalarimning kelishiga ovqat pishirib, choylarini damlab kutib o‘tirdim.

Uyimni sarishta qildim, haromu ziyon-zahmat oralatmadim, tomorqalarda ter to‘kib urinib-tirishdim.

Umrim bo‘yi birovga yomonlik qilmadim, qo‘pol gapirmadim, bilganim mehnatu rizolik bo‘ldi.

Aslida, u joy hammaning ham borar joyi ekanini bilib turibman.

Modomiki shunday ekan, vaqtni o‘tkazib, bolalarimga og‘irim tushib nima qildim? Ha, boraqolay, hali-zamon otasi ham ortimdan kelib qoladi, uni o‘sha yerda kutib olaqolay. Nazarimda, o‘sha yoqda ham shu qadrdon uyim, valishlarim, tandır-o‘chog‘im bo‘ladiganday.

Nazarimda, ancha-muncha kishilar o‘sha yoqdayam xuddi o‘zimizning qishloqdagiday yashashayotganday.

Borsam, Xudoyim yana bir uy-joy ato etar, axir? Supurib-sidirib, ozoda qilib kutib o‘tiramanda, qo‘limdan yana biror nima kelarmidi?

Qurigan-netgan joyi bo‘lsa, gulu rayhon ham qadab qo‘yarman, suvlar ham separman.

Qara-ya, hamma qo‘rqib-hayiqib yuradi, ammo sira unaqa emas ekan-ku?  
Shunaqa, oddiygina ekan-ku”, deb o‘yladi.

“Tavba, odamning umrida hech nima yo‘qolmas ekan-da? Abadiyan yo‘qotdim degan narsalarimning bari xuddi o‘shandagiday.

Odamlar bilmaydigan bir hikmatni bilib oldim, afsus, aytay desam ilojim yo‘q”.  
Shunday deb o‘yladi u.

So‘ng, xuddi bolasi yoqimli bir ish qilganida kulimsiragani kabi kulimsirab, bulutlar sari havolanib ketgan o‘sha so‘qmoqqa qadam qo‘ydi.

Shu xotin, yuzu ko‘ziga arshu a’lodan umri bo‘yi nur yog‘ilib turgan shu mushtipar ayol...

## Xotima

Yana bahor keldi. Yana dalalar, yaylovlar, sen qadam qo‘ygan yo‘laklaru so‘qmoqlar uzra chappar urib nozlandi.

Sen ham bahor kabi emasmiding, onam?

Yo‘q, sen tuproq kabi eding. Bag‘ridan anvoyi chechaklarni o‘stirib yuborgan va tevarakni go‘zalligini latofatga burkagan, insonlar uchun turli mevalarni yetishtirib g‘arq pishirgan, bolalaring hamda yaqinlaringning xoki poyiga yaslanib, o‘zini insonlar uchun xarj aylab yuborgan xoksor tuproq!

Yo‘q, sen suv kabi eding-ku, onaginam? Umring suvday oqarkan, mehring, sevging, bag‘rikengliging ila qalblarni yashillantirib gulu chechaklar ochtirgan, jon tomirlarga hayot musaffoligini yetkazib, o‘zi ham bir daryoday uzoq-uzoqlarga qaytmas bo‘lib oqib ketgan...

Sen shamol kabi emasmiding, ona? Boshim uzra hayotbaxsh esib, umr kurtaklarini ochgan, havolarni almashtirib, qanchadan-qancha gullarni yashnatgan, unum keltirgan va shamollar kabi yelib-elib o‘tgan...

Sen otash ham eding, nuridiydam! Harorating bo‘lmasa edi, bolangning bu jo‘shislari, bu shiddati, bu g‘ururi qaydan ham kelardi?

Qalbingning ichida nimalarni saqlaganingniyu nimalarni olib ketganingni men bilmasmidim?

Izlaring qolgan tuproqlardan ko‘zimdan yoshim oqib benavo kezar ekanman, mening shu kezishlarim, kuchu quvvatim, sha’nu shavkatim, baxtu saodatim uchun o‘zingni qurbon qilib yuborganingni, qadringga yetolmaganimni o‘ylab iztiroblarga cho‘mmoqdaman.

Mehnatu zahmatlar aro qadoq qo'llaring taftiga zorman, mehr to'la bir qarashingni yana bir bor ko'rish uchun dunyolarni sarflab yuborishga ham tayyorman.

Uyimda yumushlarga urinib yurishlaringning o'ziyoq bir bebaho sarvat ekan-ku, xazinam mening!

...Axir, bahor ham keldi...

Sen qadagan gulu chechaklar yashnagan hovlida bolalarim o'ynab yurishibdi. Goho o'yindan to'xtab, nariroqda o'z xayollariga g'arq bo'lib odimlayotgan otalariga hayron-hayron boqmoqdalar.

Ular hali juda ko'p narsalarni bilishmaydi. Vaqt-soati kelib ulg'ayganlarida, men ham sen ketgan tomonlarga yo'l olganimda... mening hozirgi ahvolimga tushsalar ham ajabmas... axir, o'zing aytar eding-ku, umr bir charxpalak deya?

Biroq ona uyining hovlisi, daraxtlari, yo'laklari va bog'chalari aro kezib yurgan otalarini bu tarz ezgin qiyofada ko'rishlarini istamayman. Ko'zlarining oldida doimo cho'ng, tog' kelbatli, mustahkam va tadbirli Ota o'laroq qolishni istayman.

...Ko'zimning yoshini kaftimning orqasi bilan artib, istiqbolimga chopib kelayotgan bolalarimga ham anduh, ham sevinch ila jilmayib yuzlanaman...

...xuddi bir mahallar o'zing menga qarab, yoyilib, beg'ubor jilmayganing kabi!

\* \* \*

– Ariqcha, oqyapsanmi?

– Ha, oqyapman, ey Egamning o'g'li...